

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti
Til nazariyasi va metodikasi kafedrasи*

Sobit Avezov, Tavakkal Choriyev

***Til va nutq o'stirish
metodikasi***

*(5141700-Maktabgacha ta'lif va sport tarbiyaviy ish ixtisosligining
2- 3-kurs talabalari uchun o'quv-usuliy qo'llanma)*

Buxoro-2006

Avezov S.S, Choriyev T.R. Til va nutq o'stirish metodikasi
(5141700-Maktabgacha ta'lim va sport tarbiyaviy ish ixtisosligining
2- 3-kurs talabalari uchun o'quv-usuliy qo'llanma). - Buxoro: Buxoro
davlat universiteti, 2006. - 132 bet.

Ushbu o'quv-usuliy qo'llanmada oliy ta'lim tizimida "**Til va nutq o'stirish metodikasi**" fanining o'qitilish, uning maqsad va vazifalari bayon etilgan. Shuningdek, hozirgi davr ta'lim texnologiyasi va yangi modellari assosida maktabgacha ta'lim tizimida nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning metodik yo'llari, vositalari xususida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtining 5141700-Maktabgacha ta'lim va sport tarbiyaviy ish ixtisosligi 2- 3-kurs talabalari hamda shu soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

O'quv-usuliy qo'llanma Buxoro davlat universiteti Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti Ilmiy kengashi (2006-yil 28-mart 6 -sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **Y.Y.Azimov.**

Taqrizchilar: pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **I.M.Toshev**, pedagogika fanlari nomzodi **A.R.Hamroyev**, Buxoro viloyat pedagog xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti maktabgacha ta'lim bo'lim mudirasi, usuliyotchi **M.S.Hasanova.**

So'zboshi

Respublikamizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, fan-texnika, texnologiya yutuqlari hozirgi davr ta'lim mazmunida o'z ifodasini topmoqda. Hukumatimizning "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Qonunlari bu sohada pedagoglar faoliyatida ko'p ijobiy qirralarni ochib, ta'lim mazmunining yangi modellarini taklif etishga, shu asosda o'quv dasturlari, qo'llanmalari va darsiklarida aks etishini talab etmoqda.

Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim bo'g'ini asosiy poydevor sanaladi. Shuning uchun ham "**Til va nutq o'stirish metodikasi**" fani oliv ta'lim tizimida tarbiyachilarga yuksak pedagogik mahoratni egallaydigan, ularni tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro muloqotini shakllantirilagina qolmay, nutqiy ko'nikma va malakalarini ro'yobga chiqarishda yordam beradigan ilmiy-nazariy, usuliy fan sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o'quv-usuliy qo'llanma bo'lajak tarbiyachilarning universitetlarda "**Til va nutq o'stirish metodikasi**" fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, fan bo'yicha mustaqil bilim olish va ish ko'rishiga yordam beradi.

O'quv-usuliy qo'llanma Buxoro davlat universiteti Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti 5141700-Maktabgacha ta'lim va sport tarbiyaviy ish 2- 3-kurs talabalari uchun mo'ljallangan. Unda 15 ta ma'ruza matni keltirilgan bo'lib, 30 soatni tashkil etadi. Ma'ruza matnlari "**Maktabgacha ta'lim tizimi Kontsepsiysi**", "**Uchinchi mingyillikning bolasi**" tayanch dasturlari asosidagi yo'naliishlarda boyitildi.

Tabiiyki, o'quv-usuliy qo'llanmada hozirgi zamon talablari asosida maktabgacha ta'lim tizimida bog'cha bolalarini tarbiyalashda ular bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning yangi modellaridan foydalanish, ta'lim mashg'ulotlarining sifati va samarasi, ta'lim natijasiga erishishning metodik asoslariga alohida e'tibor berildi.

Bundan tashqari, ma'ruza matnlarining mavzu asosidagi qat'iy rejasi, tayanch so'zlari, shu mavzu bo'yicha savollar, shuningdek, fanga doir umumiy adabiyotlar ro'yxati tavsiya etildi.

Qo'llanmada bog'cha tizimida tarbiyalanuvchilarning nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ularning lug'at boyligini oshirish, grammatik nutqini shakllantirish, dialogik va monologik

nutqini kamol toptirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, savodxonlikka o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlash kabi metodik vazifalarni bajarish, shuningdek, bu tizimda tarbiyachi, usuliyotchi, bog'cha mudirasi, tuman usuliyotchisining vazifalari nimadan iborat ekanligi, ularning ta'lim jarayonida shaxs sifatida tutgan o'rni va mas'uliyati ko'rsatib beriladi.

O'quv-usuliy qo'llanmani yaratishda taniqli mutaxassislar M.G'aybullayeva, Q.Shodiyeva va M.Rasulovalarning bu sohadagi metodik qo'llanmalaridan foydalanildi.

Mazkur o'quv-usuliy qo'llanma oliy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim bo'limi talabalari uchun ilk metodik manba bo'lganligi sababli, u ayrim kamchilik va nuqsonlardan xoli emas. Buning uchun mualliflar oldindan uzr so'raydi va qo'llanma haqidagi mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

Mavzu: “Til va nutq o’stirish metodikasi” fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Fan predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Fanning usuliy asosi.
3. Fanning boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorligi.
4. Fan tarixi va taraqqiyoti.

Asosiy tayanch so’zlar:

Fan predmeti, usuliy asos, aloqadorlik, usuliyot, ona tili, tilshunoslik, adabiyot, pedagogika, psixologiya, ilmiy tajriba, fan tarixi, tajriba natijalari, fan taraqqiyoti, zamonaviylici, ta’limda noan'anaviylik, ta’lim texnologiyasi.

Mavzu “Til va nutq o’stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”

Ma’ruza mashg’ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma’ruza mashg’ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(fan perdmeti. Maqsad va vazifalar. Fanning boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorligi), maqsadi, rejasini e’lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. . .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma’ruzada o’rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag’batlantirish, baholarni e’lon qilish, uygaga vazifa berish, mashg’ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro’yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Istiqlolimiz sharofati bilan mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimida qayta tiklanish va yangilanish jarayoni butun murakkabligi bilan yuz bermoqda. Ayniqsa, hukumatimizning "**Ta'lim to`g`risida**"gi Qonunni va "**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**" bu jarayonda o`tmishdan meros bo`lib qolgan bir qator pedagogik usul va amaliyotlarni ko`rib chiqish, uni zamonaviy vositalar bilan almashtirish, shu asosda mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan har tomonlama, barkamol insonni shakllantirish davlat siyosatining bosh tadbiriga aylangan. Bu haqda Yurtboshimiz I.A.Karimov "**Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o`zgalarga ibrat bo`ladigan bilimli, ma`rifatli kishilarni tushunamiz**", - deya yosh avlod tarbiyasi oldiga yuksak talablarni qo`ygan edi.

Bunday orzuli, yuksak insonparvar shaxs erta yoshlikdan tarbiyalanmog`i lozim. Xususan, maktabgacha ta'lim- muassasalarida olib boriladigan zamonaviy ruhdagi ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada yosh go`dak nutqini shakllantirish, ularni tevarak-atrof bilan tanishtirish, shu asosda aqliy ongini shakllantirish tarbiyachi uchun juda ulkan pedagogik tayyorgarlik va mahorat talab etadi.

“Til va nutq o`stirish metodikasi” pedagogika fanining bir qismidir. U, asosan, **ikki qismga** ajratiladi: **bog`chada** va **maktabda nutq o`stirish** usuliyotidir. Ularning har biri o`zining maqsadi, mazmuni va vazifalariga ega.

Til va nutq o`stirish metodikasi - bu pedagogika fanining ajralmas bir qismi bo`lib, u bog`chada bolalar nutqini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyati va qat'iylikka asoslangan fandir. Bu fanning asosiy vazifasi ilmiy-pedagogik texnologiyani joriy etadigan, nutq o`stirishning yuksak usul va metodlaridan foydalana oladigan, bu sohada bolalarda nutqiy ko`nikma va malakalarni rivojlantiradigan tarbiyachi nazarda tutiladi. Fanning asosiy maqsadi esa bolalarda og`zaki nutqni shakllantirish, atrofdagi kishilar bilan nutqiy munosabatni tarkib toptirishdir.

Til va nutq o`stirish usuliyoti fani, asosan, uchta savolga javob izlaydi:

1. Nimani o`qitish lozim (bolalarda qanday nutqiy imkoniyatni o`rgatish zarur)?
2. Qanday o`rgatish kerak (qanday usul va qanday sharoit yaratish darkor)?

3. Nima uchun aynan shunday o'rgatish lozim?

Umumiy ishlarning nazariy asosida bolalarga ona tilini o'rgatish, ularda shu asosda nutq malakalarini o'stirish, atrofdagi kishilar bilan o'zaro munosabat qilishga tayyorlashdan iborat. Muhimi shundaki, bolalarning domiy maqsadli, mazmunga asoslanish nutqi pedagog faoliyatining natijasi o'laroq yuzaga keladi. Shunday ekan, har bir tarbiyachi yuksak maqsadga erishish uchun uning o'zi, eng avvalo ona tili, qolaversa, tilshunoslik fani bo'yicha yuksak nazariy va ilmiy tasavvurga ega bo'lmos'h'i lozim. Ana o'shandagina u nutq ko'nikma va malakalarini tarbiyalanuvchilar ongiga singdira oladi.

Til va nutq o'stirish uslubiyoti pedagogik fan bo'lib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o'rganadi.

Bola hikoya, she'r, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional ta'sirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, ya'ni uni san'at asari sifatida his etish qobiliyatining paydo bo'lishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan, har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalashi kerak.

Bolalarni boshlang'ich savodga tayyorlash. Bolalar bog'chasida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan barcha pedagogik ishlar ularni maktabga tayyorlashga qaratilgandir.

Maktabda to'g'ri og'zaki nutq, boshqalarni tinglay olish, ular nutqining mazmunini tushunish, zarur bo'lganda o'rtog'ining javobini to'ldirish yoki to'g'rakashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. **Nutq** bolalar uchun tahlil predmeti bo'lib qoladi, bu esa bolalardan zo'r aqliy kuchni talab etadi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun quyidagi sifatlar katta ahamiyatga ega:

1. **Pedagogik** tinglay olish.
2. O'z fikrlarini aniq, ravshan bayon eta olish.

Bu malakalar, asosan, katta va tayyorlov guruhlarda shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda 6 yoshli bolalar bilan savodga tayyorlash bo'yicha ishlar olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga so'zlarning qanday tovushlardan tuzilganini tahlil qilish: ikki, uch, to'rt so'zdan iborat gap tuzish, gapda so'zlar qanday tartibda turganini aniqlash hamda so'zlarni bo'g'lnlarga ajratishni o'rgatadi.

Shunday qilib, bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha har bir ish jarayoni bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan

holda amalga oshiriladi. Bu borada yuqorida bayon etilgan vazifalarning har biri o'zining ta'limiylar va tarbiyaviy jihatiga ega. Nutqni rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy sifatlari shakllantiriladi, aqliy va estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

Har bir vazifani hal etish bir-biriga uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Masalan, nutqning grammatik tomonini o'zlashtirish uchun "**Nima yo'q**" o'yini o'tkazilganda, nutqning tovush tomoniga ahamiyat berish talab etiladi, ammo asosiy vazifa bola nutqining grammatik tomonini shakllantirish bo'lib qolaveradi. Shunday qilib, bolalar bog'chasida tarbiyachining nutq o'stirish bo'yicha bilimga ega bo'lishi nomigagina talab bo'lib qilmasdan, balki barcha tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish uchun ham muhimdir.

Til va nutq o'stirish usuliyoti mактабгача тарбиya usuliyoti fani bilan uzviy bog'langan bo'lib, tarbiyachi uni bolaning maqsadi, shaxsiy hayotiy tarbiyasi bilan uyg'un ravishda olib borishi lozim. Shundagina uning nutqi barkamollahib, nutq munosabati rivojlandi.

Til va nutq o'stirish metodikasi - pedagogik fan. Fanning usuliy asosi-falsafiy dunyoqarashdir. Falsafiy mushohada tevarak-atrofdagi voqelikka ongli munosabat, tilni falsafiy mushohadlash, kishilarning mehnat faoliyatini his qilish, uni til orqali izohlash anglashiladi. Demak, til va ongni bir-biridan ayri tushunmagandek, ularni ajratib o'rgatish ham mumkin emas. So'z va tasavvur- dialektik tushunchalardir.

Til – tarixiy o'zgaruvchan ajdodlarimizning ma'naviy merosi. Shunday ekan, tarbiyachi uni yosh avlodga tilning hozirgi zamon me'yorlari asosida etkazishi zarur. Tarbiyachining o'zi yangi zamon leksikasi, grammatikasi, orfoepiyasi, fonetikasi xususida to'la tasavvurga ega bo'lishi darkor.

Til kishilar o'rtasidagi kommunikativ (aloqaviy) munosabat uchun xizmat qiluvchi vosita. Har bir inson o'z orzu-intilishi, kurashi, o'y-xayollarini til orqali bildiradi. Shunday ekan, tilni egallah, uning adabiy me'yorlariga qat'iy rioya qilish inson madaniyatining yuksak namunasidir.

Xalqimizning milliy tili-o'zbek tilidir. O'zbek tili- millatimizning ma'naviy boy merosi. O'zbek tiliga ish ko'rish, uni asrash, boyitish hukumatimiz tomonidan himoya qilinadi. **"O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"**- deyiladi davlatimizning Asosiy qonuning 4-moddasida. Tilimizning boyligi, go'zalligi va nafisligi ulug' shoirlarimiz A.Navoiy, Z.M.Bobur, Mashrab, Ogahiy,

Muqumiy, Furqat hamda A.Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, A.Qaxxor, A.Oripov, E.Vohidov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev kabi mumtoz va zamonaviy adiblarimiz ijodida o'z ifodasini topgan.

Mustaqilik g'oyalari jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohasida o'z aksini topmoqda. Ma'lumki, adabiy tilda gapirish kishilarning bir-birini tez va oson tushunishiga yordam beradi. Nutqning jozibadorligi, ta'sirchanligini oshiradi. Bolalarni adabiy nutqqa o'rgatishda oila, maktabgacha tarbiya muassasalarining roli benihoyadir. Bugungi kunda bizning asosiy vazifamiz bog'cha yoshidanoq bolaning og'zaki nutqini o'stirib borishdir.

Butun dunyo xalqlarining siyosiy va madaniy taraqqiyotini tilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki til muhim aloqa vositasi, jamiyat esa aloqasiz rivojlanmaydi.

O'zbek adabiy tili o'zbek xalqining me'yorlashgan tili sifatila og'zaki va yozma shaklda rivojlanib, mukammallashib keldi. Adabiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklar o'zbek xalqi va uning tili taraqqiyoti tarixini o'rghanishda manba bo'lishi bilan birga, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili uchun ham asos bo'lgan. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining davomi, yangi sharoitda o'zbek xalqining iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishi asosida har tomonlama boyigan shaklidir.

Bolalar bog'chasi bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek, maqsadni o'z oldiga qo'yan. Bu maqsad esa bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog'chada og'zaki nutqni o'stirish natijasida bolalar aqlan rivojlanib, umumiyligi madaniy saviyasi oshadi. U tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqining rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga (so'zlashishga) o'rgatib borilsa, u vaqtida bunday bola normal holatda rivojlanadi, ya'ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol

qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar (parallel) ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vaqtida, ularni mакtabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi.

So'z boyligi barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu o'z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo'l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin hayotga tatbiq etishga ham o'rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbai va vositasi hamdir.

Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg'ularni o'stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomonidan tarbiyalash vositasidir.

Bola kuzatish va nutq orqali dunyonni, borliqni bilib oladi: tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning, voqeа va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o'xshash va farqli tomonlarini aytishga o'rganadi.

Ona tili orqali bolalar o'z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, san'at bilan tanishadilar.

Shunday qilib, ona tili maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ruhiy jihatdan rivojlantirishda, ularning madaniy saviyasini oshirishda, tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib olishlarida, mакtabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin yaratishda, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatishda, aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, dunyonni, borliqni bilib olishda, xalqimiz madaniy merosini o'rganishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Til va nutq o'stirish usuliyoti fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Til va nutq o'stirish usuliyoti fani boshqa fanlar bilan o'zaro hamkorlikda rivojlanadi. Ayniqsa, uning usuliy asosini tilshunoslik fani tashkil etadi. Chunki u tilning o'zaro bir-biri bilan vosita shakllari: tovush, so'z, gap va matn bilan ish ko'radi. Uslubiy nutq o'stirishda tilshunoslik fani nuqtai nazaridan ushbu qismlarni: fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya va grammatikada o'rganadi, tahlil etadi.

Tilshunoslik fanining bo'limlari til belgilari yuzasidan nazariy tushunchalarini o'rgatadi. Chunonchi, so'zning ma'nosi va uning o'zak mazmunini-leksikologiya, grammatika-so'zning tarkibiy xususiyati, morfemikasi, tovush va talaffuzi esa fonetik va orfoepik bo'limlarida o'rgatiladi. Bu esa bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlash va tahlil etishda keng imkoniyat yaratadi. Tilshunoslikni atroflicha o'rgangan tarbiyachi bolaga har bir so'z ma'nosi va ularning til xususiyatlarini osonlikcha tushuntiradi va o'rgata oladi, tahlil qiladi.

Tilshunoslik tilning mavhum tizimi shaklida nutqda namoyon bo'ladi, psixologiya (ruhshunoslik) fani nutqda nutq faoliyatini, munosabatini, uni shakllantirish sharoiti va qulayliklari ustida ish ko'radi. Nutq o'stirish faoliyati fiziologiya fani bilan ham uzviy bog'liq. Nutq faoliyatii bola organizmi fiziologik jarayoni bilan o'lchab boriladi. Chunki nutqiy mavjudlik fiziologik jarayonda namoyon bo'ladi. Nutq o'stirish usuliyoti anatomiya fani bilan ham uzviy bog'liq, chunki bola tanasining sog'lomligi nutq rivojiga erishishishni ta'minlaydi. Bolalarning barchasi tarbiyachining mashg'ulot jarayonida yangi usul va amaliyotlarni bajarishga imkon yaratadi.

Til va nutq o'stirish usuliyoti pedagogika fani bilan uzviy bog'lanadi. Fan, tabiiyki, yana bir qancha fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda olib boriladi. Bunday fanlarga adabiyot, musiqa va tasviriy san'at kabi fanlar kiradi.

Til va nutq o'stirish usuliyoti fani tarixi va taraqqiyoti. O'zbek xalqi azal-azaldan bolajon xalq. Bu xalqimizning o'z farzandlariga mehri daryo ekanligi: Butun orzu- umidi baxt-saodatini unda ko'radi, tasavvur qiladi degan ma'nodadir. Shuning uchun har bir ota-onasi o'z farzandining tili chiqishi-yu, qadam bosishini yangi kun sifatida qabul qiladi. Uning ilk so'zlari **dada, nanna, buva** so'zlarini orziqib kutadi.

Bolalar tarbiyasi xalqimizning azal-azaldan oilaviy faoliyati natijasi sifatida qaralib keligan. Shuning uchun ham bu sohada juda katta pedagogik tajribaga egamiz. Go'daklik chog'idanoq alla aytish,

she'r yodlatish, kitobga havas uyg'otish an'analari qadimiydir. Savod chiqarish davri esa har bir ota-onan uchun orzu-quvonch sifatida qabul qilingan va unutilmas kunga aylangan. Shu nuqtai nazardan bunday pedagogik tajribalarni ulug' allomalarimiz Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Muqimiy, Furqat va boshqa shaxslar hayoti taqdirida ham kuzatish mumkin.

Til va nutq o'stirish metodikasi fani bizning hayotimizga 50-60-yillardan boshlab kirib kelgan. U oliy ta'lim bo'g'inida fan sifatida o'rganila boshlandi. Bu davrdan oldin esa rus pedagogikasida V.G. Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov va boshqalar o'z qarashlarini ifoda etdilar. Ayniqsa rus pedagoglari K.D.Ushinskiy o'zining yuksak pedagogik salohiyati bilan bolalar dunyoqarashi, ularning ongini rivojlantirishini turli xil metodik yo'llarini yaratdi.

Bu fan mustaqilik davrida yanada kamol topdi. Oliy ta'lim muassasalarida qat'iy fan sifatida o'rganilib, bolalarning ilk yoshlik davridan to maktabgacha ta'lim davridagi nutq o'stirish jarayoni ilmiy-nazariy va metodik jihatidan tadqiq etildi.

Bu sohada o'zbek usulshunos olimalarning xizmatlari ham juda ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Q.Abdullayeva, T.Ashrapova, Q.Shodiyeva va M.G'aybullayeva kabi mutaxassislarning xizmatlari beqiyosdir. Yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash, ularni har tomonlama kamol toptirishda ushbu fanning taraqqiyoti va rivojlanishi ijtimoiy hayot yuksalishida muhim o'rin egallaydi.

Fan maktabgacha tarbiya muassasalarida hozirgi zamон ta'lim texnologiyasi va modellarini o'rganish bilan bir qatorda yangilanish asosida hamisha taraqqiyot bosqichida bo'ladi va rivojlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Fanning maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Fanning usuliy asosini qaysi fan tashkil etadi?
3. Nutq o'stirish metodikasi fani qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?
4. Nutq o'stirishda tilshunoslik fanining nazariy asoslari qanday rol o'ynaydi?
5. Fanning adabiyot bilan bog'liqligini izohlang.
6. Fan tarixi xususida nimalarni bilasiz?
7. Fan taraqqiyoti haqida gapirib bering.

2-Mavzu: Nutq o'stirish ishining mazmuni, usuliyoti va vazifalari

Reja:

1. Fanning bo'limlari.
2. "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturi.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga qo'yiladigan davlat talablari.
4. Nutq o'stirish usul va uslublari.
5. Mashg'ulotga qo'yiladigan talablar.

Asosiy tayanch so'zlar:

Bolalar bog'chasi, lug'atni boyitish, grammatic qurilish, tovush madaniyati, dialogik va monologik nutq, hikoya qilish, badiiy adabiyot, savodxonlikka tayyorgarlik, fan dasturi, ta'lim, bo'lim, taqvimiyl reja, maishiy faoliyati, lug'at usuli, ko'rgazma usuli, o'yin usuli, mashg'ulot, mashg'ulotga tayyorgarlik.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg'ulotning tashkiliy qisminamalgaoshiradi, (.Fanningbo'limlari.Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga qo'yiladigan davlat talablari.4. Nutq o'stirish usul va uslublari.5. Mashg'ulotga qo'yiladigan talablar), maqsadi, rejasi e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyg'a vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Bolalar bog'chasi-xalq ta'lim tizimining birinchi bo'g'inidir. Yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda mактабгача tarbiya tizimining alohida o'rni bor. Ayniqsa, bu davrda tarbiyalanuvchilarni, eng avvalo, ona tilimizga mehr-muhabbat uyg'otish, shu asnoda og'zaki nutqlarini shakllantirish, atrofdagi kishilar bilan o'zaro munosabatga o'rgatish tarbiyachining nutq o'stirish mashg'ulotlarining asosiy maqsadidir. Bu esa nutq rivojining mazmuni, vazifalari va usuliyotlarini chuqr o'rganishga, bu sohadagi muhim pedagogik vosita va tadbirlarni, faoliyat turi va xususiyatlarini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Shunday ekan fanning, quyidagi bo'limlari unga shu faoliyat mazmunini o'z ichiga oladi, aniqlaydi:

Lug'atni boyitish. Maktabgacha tarbiya tizimida ona tilini o'rgatish ularning nutqiy fikrlashida lug'at boyligini o'stirish asosida olib boriladi. Bu esa atrofdagirlar bilan aloqa-munosabatga tayyorlash va tabiat dunyosining anglatish orqali amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasida lug'at ishi dasturi amal qiladi, binobarin, ular o'zaro munosabat, she'riy yo'llar, ertak aytish va boshqa vositalar bilan o'rgatiladi. Ana shu qiziqishlar orqali so'zning ma'nosi, uning boshqa so'zlar bilan bog'lash va nutqqa olib kirish yo'llari orqali bolaning nutq doirasi kengaytirib boriladi.

Bolalarda oddiy, qo'pol xato so'zlashuvdan og'zaki nutqning madaniy shakliga o'tish darajasi shakllantiriladi. Lug'at ishida lug'atni e'lon qilish, uning buyum-narsa yoki voqeа-hodisa bilan lug'aviy aloqadorligi va umumiyl o'quv-tarbiyaviy jarayondagi ob'ekti, ahamiyati ko'rsatiladi.

Grammatik qurilishni shakllantirish. Lug'at qurilish materiali sanaladi. Grammatika-so'zning o'zgarishi, gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'lanish yo'llarini o'rganadi. Bundan tashqari, u so'zning tildagi qurilish shaklini aniqlaydi.

Bola grammatik bog'langan so'zlarni eshitadi. Tarbiyachi esa bolaga nutqning rang-barang amaliy vositalarini, til o'rgatishini mashqlar orqali mustahkamlash bu sohadagi qiziqishni tarbiyalab boradi. Bu ishlar, "**Biz orzu qilamiz-so'z birikmasini davom ettirish talab etadi**". Biz orzu qilamiz (nimani?) - bolalar: " qo'g'irchoq, o'yinchoq, koptok va boshqa predmetlar" ni aytishlari mumkin. Bu ishlar "**Men boshlayman, sen tugat! Grammatik o'yin orqali ham amalga oshirish mumkin**" va hokazo.

Nutqda tovush madaniyatini tarbiyalash. Bola, eng avvalo, so'zni tovushlar asosida yuzaga kelganligini chuqr his qilishi lozim.

Tovush ustida ishlash tarbiyachining tilshunoslikdagi fonetika va orfoepiya xususidagi bilimlari asosida amalga oshiriladi. Bu esa so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'llash ifodalashishga rioya qilish, uni nutq jaryoniga olib kirish bilan bog'liqdir.

So'zlashuv (dialogik) nutqni shakllatirish. Bolalarni tinglashga o'rgatish va nutqni tushunib munosabat qilish, fikrni tasdiqlash, savollarga javob berishga so'rashga o'rgatishdan iborat. Bog'lanishli nutq darajasi bolaning til bilan qay darajadagi muomala qilishga, so'zdan o'rinni va unumli foydalanishga o'rganadi. Tarbiyachi esa ularning so'zlashuv munosabatlarini mavzu asosida kengaytirib borishi lozim.

Hikoya qilish ta'limi (monologik nutq). Bolalarni monologik nutqa tayyorlash bog'cha ta'lim-tarbiya ishining yuqori ko'rinishidir. Bunda tarbiyalanuvchi o'z fikrlarini bog'lanishli nutq asosida yakka, individual tarzda bayon etilishga o'rgatish demakdir. Monologik nutqqa erishgach, bola o'zi mustaqil gap tuza olish, hikoya qila olishi, biror maqsadda gapira olishi lozim. Bu esa bolaning ijodkorligidir. Shu davrda tarbiyachi bolaning nutqi ravonligiga erishishiga, hikoya qila olishishga ishonch paydo qilish, ularda ijodkorlik, qat'iylik, jamoada bilimga qiziqish uyg'ota olishi lozim.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar eng muhim badiiy adabiyot namunalari bilan tanishadilar. Tarbiyachi ularda tushuncha va tasavvurlarni shakllantiradi. Bir qancha badiiy asar qahramonlari bilan tanishtiradi. Ular vatan, mehnat, kishilar haqida she'r yodlaydilar. Bir qancha illyustratsiyalar orqali o'qishga havas uyg'otiladi. Sahna asarlari, dramatik o'yinlar, kinofilmlar ko'rishga muvaffaq bo'ladilar.

Bolalarni savodxonlilikka tayyorlash. Bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan butun pedagogik ishlar ularning matabda savodxonlikka tayyorlashdan iboratdir. Bu esa bolalarda buyum-narsalarni tahlil qilishga o'rgatish orqali nutqidagi xatolarni tuzatishga erishtirishdan iboratdir. Umuman, bolani matabga tayyorlashda quyidagi sifatlarga e'tibor berish lozim: o'qituvchini tinglashga o'rgatish, o'z nutqida to'g'ri, aniq, grammatik bog'langan mantiqli gap tuzishga o'rgatish, hikoya qilishni egallashga da'vat etish 6 yoshli bola tovush madaniyatiga asoslangan 2 - 4 ta so'zdan iborat gaplar tuzishga o'rganishi lozim.

Nutq o'stirish vazifasini biz 7 qismga ajratdik. Bo'limlarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Yuqoridagi vazifalarning

barchasi tarbiyachi tomonidan rejali amalga oshirilsa, bog'chada bolada dunyoqarash shakllanib, u kelgusida mакtabda bilim olish darajasiga yetishadi.

Bolalar bog'chasida nutq o'stirish dasturi. Nutq o'stirish dasturining asosiy talabi tevarak-atrofdagi kishilar bilan munosabat qilishga o'rgatish, so'z bilan munosabat qilmoqligi, shu asosda o'z shaxsiy xususiyatlarni topa olishga da'vat etishdan iborat.

Dasturiy materiallar asosan ikki qismda beriladi: "**mashg'ulotda**" va "**mehnat**" da. Bolalar o'zaro aralash holda ham amalga oshiriladi. Masalan, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari paytlarda ham bajarilishi lozim.

"Uchinchi mingyllikning bolasi" tayanch dasturi ham maktabgacha ta'lif tizimining asosiy nizomidir. Ushbu dastur o'zining butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Dasturda bog'chada olib boriladigan nutq o'stirish mashg'ulotlari hamda oylik, haftalik soatlari va mavzulari qat'iy reja asosida aniq va ravshan keltirilgan. Ayni paytda mashg'ulotlar shu asosda tashkil etilmoqda.

Dasturda nutqning grammatik tu'zilishini shakllantirishga katta ahamiyat berilgan. Bolalar nutiqining grammatik tuzilishini kattalar bilan muomalada bo'lish va tatbiq qilish asosida asta-sekin o'zlashtirib boradilar. Nutqning grammatik tuzilishini egallash murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir.

Shuning uchun ham dasturda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish bo'yicha ish mazmuni har bir yosh guruhida bolalarning ishi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilangan. Masalan, kichik guruhda bolalarga otlarni ko'plikda to'g'ri ishlatish, sifatlarning ot bilan shaxs va sonda moslashuvi, fe'lning o'tgan va kelasi zamonda ishlatishni mashq qildirish, ularni so'roq gaplarning intonatsiyasini egallashga tayyorlash kabi vazifalarni hal etish rejalahtirilgan bo'lsa, o'rta guruhda esa bu vazifa ancha murakkablashadi. Endi ushbu guruh bolalari nutqini morfologik va sintaktik tomonidan takomillashtirishga, otni kelishiklar bo'yicha turlashga, fe'llarni shaxs va zamonda qo'lash o'rgatiladi.

Katta va tayyorlov guruhlarida nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish bo'yicha dastur vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashishi bilan ajralib turadi. Ushbu guruhdagi bolalarni o'z nutqida uyushiq bo'lakli, yoyiq va yig'iq sodda gaplar xillaridan ko'makchi, bog'lovchi va ravishlardan foydalanishga o'rgatish, ularni

ko'plikda (qo'ylar, jo'jalar, uloqchalar) to'g'ri ishlatish kabi malakalar takomillashtiriladi.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish dasturning muhim bo'limlaridan biri. Tovush madaniyati ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, diksiya hamda intonatsiyaga bog'liq bo'lgan nutqning ifodaliligi, so'zlashgan vaqtida to'g'ri nafas olish va chiqarish, ovoz ohangi va darajasini tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Dastur mактабгача tarbiya ishidagi bolalarni aniq, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirishga, so'zlarni dona-dona qilib talaffuz qilishga, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, intonatsiya vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish kabi vazifalarni amalgा oshirishni belgilab bergan. Dasturdagi ushbu vazifalar har bir guruhda, bolalarning yosh va psihologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalgा oshirilib boriladi.

Bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish. Bolalarni so'zlashuv (dialog) nutqiga o'rgatish bo'yicha dastur talabida ularni butun guruh uchun berilgan savollarga bitta-bittadan javob berishga, jamoa bo'lib so'zlashishga, suhbatda qatnashishga, o'rtoqlarining javobini qunt bilan tinglash va o'zi ham savol berishga o'rgatilishi ko'rsatilgan, shu bilan bir qatorda, tevarak-atrofdagi kishilar bilan so'zlashganda samimi, mazmunli gapirish kabi ijobjiy xislatlar ham tarbiyalanib boriladi.

Dasturda kichik guruhdan boshlab bog'lanishli nutqni rivojlantirish, ya'ni hikoya qilishga (monologik nutqda) o'rgatish mo'ljallangan. Dastur 4-5 yoshdan boshlab bolalarni buyumlarni tasvirlashga (o'yinchoqlarni, o'simliklarni, kiyimlarni), ularning o'ziga xos belgilarini aytishga, qisqa, bolalarga tanish ertaklarni, mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan, hajmi uncha katta bo'lмаган hikoyalarni qayta hikoya qilishga o'rgatishni nazarda tutadi. Dasturda katta va tayyorlov guruhdagi bolalarni ijodiy hikoya qilishga (tarbiyachi tomonidan boshlangan ertak yoki hikoyani nihoyasiga etkazishga, taklif etilgan mavzuda alohida ertak yoki hikoya o'ylab topishga, taklif etilgan mavzu va reja asosida ertak yoki hikoya to'qishga, berilgan 3-4 so'z asosida ertak yoki hikoya o'ylab topishga, bolalarning shaxsiy tajribalari, hayotiy mavzular asosida hikoya yoki ertak tuzishga o'rgatish belgilangan.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Bolalar badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga dasturda alohida bo'lim ajratilgan, bolalarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini va muhabbatini o'stirish va rivojlantirish maqsadida ularga hikoyalar, she'rlar o'qib beriladi,

ertaklar hikoya qilib beriladi, she'rlar yod oldiriladi. Kitobdagi rasmlarni ko'rib chiqib, uni to'g'ri idrok etish, asar mazmunini tushunib olish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay olish, badiiy so'z jozibasini his eta olish qobiliyatini tarbiyalash kabi vazifalar dasturda ko'rsatilgan.

Dasturda katta va tayyorlov guruhdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash uchun ham alohida o'rinni ajratilgan. Bu bolalarni ikki, uch, to'rt so'zdan iborat, ko'makchi va bog'lovchilarsiz gap tuzishga (masalan, "**Koptok dumaladi**", "**Chiroyli qo'ng'iroq**", "**Ahmad koptokni oldi**", "**Lola Ahmadga koptokni irg'ityapti**" va hokazo), so'zlarni bo'g'indarga ajratishga (masalan, **lo-la qo'-g'ir-choq o'y-na-yap-ti**) o'rgatiladi.

Dasturda maktabgacha tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri bo'lган bolalarni ona tilida turli va aniq, gapirishga, ya'ni kattalar bilan turli faoliyatlarda: uydagi mashg'ulotlarda, mehnat jarayonida, kundalik tartib daqiqalarida erkin, to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatishga katta ahamiyat berilgan.

To'g'ri nutq, bu - tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish; so'zlarni ma'nosiga ko'ra to'g'ri ishlatish. Agar bola o'z fikrini aniq, va to'g'ri ifodalasa, atrofdagilarga uning fikri tushunarli bo'ladi; grammatika qoidalariga asosan so'zlar shaklini to'g'ri o'zgartirish va boshqa so'zlar bilan bog'lay olish, mahoradir.

Ona tili dasturining ikkinchi xususiyati bu uning tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish dasturi bilan qo'shib berilganligidir. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida ularning nutqi takomillashib boradi. Chunki tevarak-atrof bilan tanishtirish, turli voqealari va hodisalarini, predmetlarni kuzatish so'z vositasi yordamida amalga oshiriladi.

Dastur vazifalarini amalga oshirish yo'llari. Bolalar bog'chasida nutq o'stirish dasturi bolalarning u yoki bu faoliyatini (o'quv, o'yin, mehnat, maishiy) jarayonida amalga oshiriladi.

Bolalar nutqini shakllantirish katta kishilar tomonidan ma'lum bir faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu faoliyati turlarini shartli ravishda vositalar deb aytish ham mumkin. Shunday qilib, nutqni rivojlantirish vositalariga mashg'ulotlar, o'yin, mehnat, maishiy faoliyati yoki kundalik hayot faoliyati, san'at asarlarini idrok yetish kabilarni kiritish mumkin. Ammo bu faoliyati turlarining barchasiga tarbiyachi va kattalar rahbarlik qiladi, boshqaradi, yo'llaydi.

Bolalar kundalik hayotdagi faoliyatlarida nutqdan mustaqil ravishda foydalanadilar. Ammo ularni kattalar nazoratisiz qoldirilsa,

nutqida ba'zi nuqsonlar mustahkamlanib qoladi. Shuningdek, yaxshi tashkil etilmagan mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyati ham bola nutqiga salbiy ta'sir etadi.

Dasturda ham bola nutqini rivojlantirish bo'yicha ikkita ish turi ko'rsatilgan: birinchisi-bolalarning barcha bog'cha xodimlari, tarbiyachilar hamda bir-birlari bilan erkin muomalada bo'lishga o'rgatish; ikkinchisi-nutq o'stirish bo'yicha mustaqil mashg'ulotlar. Bolalarni erkin muomalaga o'rgatish quyidagi faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi: a) maishiy faoliyatida (ertalabki kiyim almashtirishda, kiyinishda, ovqatlanish jarayonida, yuvinishda va hokazo); b) sayr vaqtida; d) o'yin jarayonida; e) tevarak-atrof bilan tanishtirishda (ijtimoiy hayot va yilning turli fasllaridagi tabiat bilan); g') mehnat jarayonida (xo'jalik-maishiy, qo'l mehnati); h) bayram tadbirlari vaqtida; j) boshqa mashg'ulotlarda (shakliy matematik tasavvurlarini shakllantirish, rasm, ko'rish, yasash, qirqib yelimlash, jismoniy tarbiya, musiqa). Nutq o'stirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar hamma guruhlarda "Tevarak-atrof bilan tanishtirish, ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishni tarbiyalash", "Nutq o'stirish", "Badiiy adabiyot", "Tabiiy o'stirish" nomi bilan berilgan.

Ta'limning asosiy shakli mashg'ulotdir. **Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bola o'z nutqini tarbiyachining namunaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshqa bolalar bilan o'quv materialini bajarishga, ya'ni tarbiyachining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda rasmlarni, diafilmlarni ko'rishga, suhabatlashishga, didaktik o'yinlarda ishtirok etishga, birgalikda kuylashga, musiqa tinglashga, ma'lum bir ob'ektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rganadi.** Bolalar mashg'ulotda yangi bilimlar (voqeа va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarga taalluqli so'zlar, nutqning grammatik shakllari) bilan tanishadilar, tarbiyachining nutqiy ko'rsatmasi orqali o'quv ishlarini bajarishga, o'z ishlariga baho berishga o'rganadilar.

Ona tilini o'rgatish mashg'ulotlarini didaktik maqsadiga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin: yangi materialni bayon etuvchi mashg'ulotlar, bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlar, bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashg'ulotlar, yakunlovchi yoki tekshiruvchi hisobga oluvchi-sinovchi aralash mashg'ulotlar.

Bolalar bog'chasida ilgari hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlardan keng foydalaniladi.

Bu mashg'ulot turi o'zining mazmuni jihatidan ilgari hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulot turiga yaqinroqdir.

Masalan, "**Kimga nima kerak?**", "**Do'kon**" o'yinlarida bolalar predmetlarnng shakli nimaga mo'ljallanganligiga qarab gap tuzadilar.

Katta guruhda ona yurt, kattalarning mehnati, haydovchining mehnati, kitoblar haqida umumlashtiruvchi (yakunlovchi) suhbat o'tkaziladi. Bunda bolalar oldiga materialni muayyan maqsadga qaratgan holda esga olish vazifasi qo'yiladi. Umumlashtiruvchi (yakunlovchi) tipdagi mashg'ulotlar bolalarda mantiqiy tafakkurni, analitik-sintetik faoliyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Hisobga oluvchi mashg'ulotlarda tasviriy faoliyatida keng foydalaniladi. Biroq, bu mashg'ulot turi bolalarning ona tili bo'yicha bilim va malaka darajalarini aniqlash uchun zarurdir.

Ayrim bilimlar bo'yicha sinov-tekshiruv mashg'ulotlarini o'quv yilining boshida guruhiiga yangi qabul qilingan bolalarning bilimini aniqlash asosida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Kirishilgan ishlarga yakun yasash maqsadida yilning oxirida ham sinov-tekshiruv mashg'ulotlari o'tkaziladi. Bolalar bog'chasida ko'proq, aralash turdag'i mashg'ulotlardan foydalanish joriy etilgan. Masalan, bir mashg'ulotning o'zida bolalarni yangi bilim beruvchi material bilan tanishtiriladi, ilgari hosil qilingan bilim (o'tilgan material) takrorlanadi va mustahkamlanadi. Nutq o'stirish mashg'ulotga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ayrim vaqtarda mashg'ulotni o'tkazishda qiyinchiliklar vujudga keladi.

Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'ulotlarida, hamma bolalar bir xilda faollik ko'rsatadilar, ammo nutq o'stirish mashg'ulotida hamma bolalar faol qatnashmaydilar. Rasm asosida hikoya tuzish, savollarga javob berish, she'rni yoddan aytib berish kabi topshiriqlar bo'yicha ba'zi bolalar javob beradilar, qolganlar esa o'rtoqlarining javobini to'ldiradilar. Mashg'ulot vaqt chegaralanganligi sababli, har bir bola bilan alohida shug'ullanish imkoniyati yo'q. Shuning uchun mashg'ulotlarda yuqori natijalarga erishish uchun ularni umumiylidik talablarga javob beradigan qilib tashkil yetish kerak.

Har bir tarbiyachi mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi didaktik talablarga qat'iy rioya qilishi lozim:

1. Mashg'ulotga oldindan puxta tayyorlanish, uning mazmunini, ta'lim usullarini aniqlash. Bunda ona tili bo'yicha bolalarning bilim va malakalari aniq, bo'lishi kerak. Belgilangan dastur materialini o'rganish

uchun zarur bo'lgan usullar tanlanadi, mashg'ulotning tuzilishi va borishi oldindan o'ylab olinadi. Kerakli ko'rgazmali qurollar, o'quv jihozlari tayyorlab qo'yiladi, individual (yakkama-yakka) ta'lim vazifalari aniqlanadi (yakka beriladigan topshiriqlar, bolalarni javob berishga chaqirish navbati belgilanadi).

2. Tarbiyachi ta'limning rivojlantiruvchi tamoyiliga amal qilib, bolalardan aqliy faollikni talab etuvchi, murakkab vazifalar beradi. Ba'zan bolani aqliy ish bilan band qllish yoki aqliy zo'riqishni talab etuvchi ish etarli bo'lmaydi: bolalarning o'zлari mustaqil ravishda ish ko'rishga kirisha olmaydi, analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni hal eta olmaydi; predmetlar o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlay olmaydi; o'xshash narsalarni guruhhay olmaydi va hokazolar.

Aqliy ish bilan bandlik yukini (aqliy zo'riqishni) turli taqsimlashda mashg'ulotning aralash tuzilishi, shuningdek, xulosa chiqarish va takrorlash uchun beriladigan savollar yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablarini amaliyatga tatbiq etish keng ko'lamli ish bo'lib, u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari har bir o'quv yili yakunida tayanch dasturida keltirilgan talablar asosida nazorat mashg'ulotlari orqali tekshirib yuriladi.

Davlat talablari ko'rsatkichlariga erishish "Uchunchi mingyllikning bolasi" tayanch dasturi bolalarning ilk yoshidan boshlab 6-7 yoshga etgunga qadar amalga oshiriladi.

Demak, ushbu talablar asosida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning egallashi lozim bo'lgan **bilim, ko'nikma va malakalariga** qo'yilgan minimal talablarni amaliyatda qo'llash shartli ravishda **chaqaloqlik (1 yoshgacha), ilk (2 yosh), kichik yosh (3 yosh), o'rta yosh (4 yosh), katta yosh (5 yosh), maktabgacha tayyorlov (6-7 yosh)** davrlarini o'z ichiga oladi.

Chaqaloqlik davri

Bir yoshgacha davrda bolalar egallashi lozim bo'lgan ilk tushuncha, ko'nikma va malakalar:

- buyumlarni bir-biridan farqlash;
- o'yinchoqlarni taniy olish;
- ota-onasi va kattalarni ajrata olish;
- mustaqil o'tirib turish;
- mustaqil ovqatlanishga odatlantirib borish;
- 5-6 ta harakatli o'yinlarni bajara olish;
- ayrim tovush va so'zlarni takrorlay olish;

- kattalar nutqiga taqlid qila olish.

Ilk yoshdagi (2 yosh) bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

- tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olish;
- 40-50 tadan ortiq so'zni tushunish va bilish;
- erkalamachoqlar va ovutmachoqlar eshitganda undan zavqlana olish;
- yaqin kishilarining ismini ayta olish;
- idish-tovoqlardan qoshiq, piyola kabilarni bilish;
- kuchuk, mushuk, sigir tovushlariga taqlid qila olish;
- mashinaning signaliga taqlid qila olish;
- ko'z, quloq, burun, og'iz, qo'l, bosh kabi a'zolarini ko'rsatib aytib bera olish;
- kattalarning topshirig'iga ko'ra aytilgan narsani topa olish va olib kela bilish.

3 yoshdagi bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

- tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olish;
- 400 tadan ortiq so'zni bilish va ma'nosini tushunish;
- turli mavzudagi 2 ta 4 qatorli she'rni yoddan aytib bera olish;
- kattalar tomonidan berilgan savollarga javob qaytara olish;
- 5 gacha to'g'ri sanay olish;
- doira shaklini bilish;
- katta va kichik narsalarni turishiga qarab ko'rsata olish;
- mevalardan olma, o'zumning nomini bilish;
- poliz ekinlaridan qovun, tarvuzning nomini bilish;
- uy hayvonlaridan sigir, qo'y, mushuk, itni bilish;
- yovvoyi hayvonlardan bo'ri, quyonni bilish;
- uy-ro'zg'or buyumlaridan sandiq, shkafni bilish;
- uyda g'o'llaniladigan elektr jihozlaridan televizor, chiroqni bilish;
- transport vositalaridan velosiped, avtobus, poezdni bilish;
- parrandalardan tovuq, xo'rozni bilish;
- gullardan lolani bilish;
- sabzavotlardan pomidor, bodiring nomlarini bilish.

4 yoshdagi bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

- tovush va so'zlarni aniq hamda to'g'ri talaffuz qila olish;

- jumlalarni to'g'ri tuzish, gapning har xil turlaridan o'rini foydalanish;
- eshitgan hikoya va ertaklarini mustaqil holda qayta so'zlash;
- o'yinchoq, turli buyumlar va voqeiy rasmlar bo'yicha hikoya tuzish;
- O'zbekiston haqida tasavurga ega bo'lism;
- milliy bayramlar haqida qisqacha tasavvurga ega bo'lism;
- turli suhbatlarda ishtirok etish;
- Navro'z, Yangi yil, 8-mart bayramlari haqida bilish;
- kattalar tomonidan berilgan savollarga javob qaytara olish;
- 5-6 gacha tartib bo'yicha va teskari sanay olish;
- bittalab va yakka tartibdagi sanoqni farqlay olish, shu bilan birga: "hammasi bo'lib qancha?", "nechanchi?", "sanoq bo'yicha nechanchi?", "nechanchi o'rinda?" kabi savollarga javob berish;
- miqdorni 2 ta belgisi asosida taqqoslash;
- shakli turli o'lchovda bo'lishi haqidagi tasavvurga ega bo'lism (masalan: katta doira, kichik doira, katta uy, kichik uy);
- vaqt haqidagi oddiy tushunchalarga ega bo'lism;
- atrofdagi narsalarning o'ziga nisbatan joylashishni so'z bilan izohlash;
- harakat yo'naliishi haqidagi tushunchalar haqida (oldinga, orqaga, pastga) ko'nikmaga ega bo'lism;
- tanish geometrik figuralarni shakl bo'yicha guruhash;
- oddiy geometrik shakllarning (doira, to'rtburchak, uchburchak) nomini aytish, farqlash;
- predmetning tartib o'rmini aniqlash, "qancha", "nechanchi" kabi savollarga to'g'ri javob berish;
- mevali daraxtlardan olma, gilos, uzum nomlarini bilish va ular haqida tasavvurga ega bo'lism;
- gullardan lola, atirgulni bilish;
- poliz ekinlari va sabzavotlardan-kartoshka, sabzi, piyozi bilish va ular haqida tasavvurga ega bo'lism;
- qushlardan qaldirg'och, kabutar, qarg'a haqida tasavvurga ega bo'lism;
- mevali daraxtlardan o'rik, gilos, olma, uzum nomlarini bilish va ular haqida tasavvurga ega bo'lism;
- uy hayvonlaridan sigir, ot, eshak, it, mushuk nomlarini bilish;
- uy-ro'zg'or buyumlaridan gilam, stol, stul, parda haqida tushunchaga ega bo'lism;

- yovvoyi hayvonlardan bo'ri, tulki, quyon nomlarini bilish va ular tasavvurga ega bo'lish;
- hasharotlardan chumoli, kapalak nomlarini bilish va ular haqida tasavvurga ega bo'lish;
- transport vositalaridan samolyot, poezd, velosiped haqida tasavvurga ega bo'lish.

5 yoshdagি bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

- tovush va so'zlarni aniq hamda to'g'ri talaffuz qilish;
- jumlanı to'g'ri tuzish, gapning har xil turlaridan o'rini foydalanish;
- 2000 tadan ortiq so'zni bilish va ma'nosini tushunish;
- ijodiy og'zaki hikoya tuza olish;
- turli mavzudagi 4-5 ta she'rni yoddan ayta olish;
- rasmga qarab hikoya qila olish;
- tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta so'zlab berish;
- o'yinchoq, turli buyumlar va voqeiy rasmlar bo'yicha hikoya tuzish;
- turli mavzudagi suhbatlarda ishtirok etish;
- 2-3 ta so'zdan iborat gap tuza olish;
- yil fasllarini nomma-nom, ketma-ket aytib berish

6-7 yoshdagи bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

- tovush, so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilish;
- 3000 tadan ortiq so'zni tushunish va bilish;
- rasmga qarab gap tuzish;
- ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish;
- eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta so'zlab berish;
- ifodali nutqqa ega bo'lish;
- tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so'zlab berish;
- ota-oná, tarbiyachi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular bo'yicha qisqacha og'zaki hikoya to'qish;
- kattalar va o'rtoqlari bilan so'zlashish odobiga ega bo'lish;
- o'z fikrini mustaqil, erkin bayon eta oliish va xulosa chiqara bilish;
- mantiqiy tafakkur qilish malakalariga ega bo'lish ...

Mashg'ulotning tarbiyavi xarakterga ega bo'lishi. Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limning tarbiyaviy tomoni ham hisobga olinadi.

Bolalar tomonidan ona tilini egallash, uning boyligini, jozibadorligini bilib olish vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda yordam beradi. Ijtimoiy-tarixiy hayot voqealari, Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Amur Temur, Jaloliddin Manguberdi, Sobir Raximov va boshqalar haqidagi hikoyalar axloqiy tuyg'lar bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni ona-Vatanga muhabbat, baynalmilallik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Pedagog bolalarni mashg'ulotda olgan bilim va malakalaridan mustaqil va ijodiy tarzda foydalanishga o'rgatadi. Mashg'ulotda bolalarning bilim olishga bo'lgan xohish va istaklarini qo'llab-quvvatlashi muhimdir. Chunki bu istak va xohish ularning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, bilimlarining puxta bo'lishiga yordam beradi. Mashg'ulotning mazmuni va uni to'g'ri tashkil etish bolalarda maktadga intilish, intizomlilik, samimiylilik kabi axloqiy-irodaviy xususiyalarini tarbiyalashga yordam beradi. Nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari bolalarga estetik tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Pedagog-estetik tarbiyani bolalarni tashqi olam bilan tanishtirish orqali amalga oshirib qolmay, balki tilning obrazli ko'rnlishi, musiqaviyligi, badiyiligidan ham foydalanadi.

Mashg'ulotning hissiylik xarakteriga ega bo'lishi. Mashg'ulotni boshlashdan avval bolalarda bilim olish istagini, qiziquvchanlikni, yangilikni bilib olishga ishtiyoqlarini vujudga keltirish kerak. Mashg'ulot bolalarda chiniqish hissini vujudga keltirishi lozim.

Ta'lim usullarini mashg'ulotning tuzilishiga qarab tanlash. Mashg'ulotning tuzilishi avvaldan aniq qilib belgilab qo'yilishi kerak. Mashg'ulotning boshida yangi material bilan tanishtirishda avvalgi mashg'ulotlarda o'rganilgan materiallar esga olinib, uni bolalar tajribasi bilan bog'laydi.

Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotning maqsadi asoslab beriladi. Masalan, tarbiyachi bolalar bilan nutqining tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotni boshlashdan avval shunday deydi: "Aytishi qiyin so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganish kerak. Chunki bizning nutqimiz to'g'ri, chiroyli, atrofdagilar uchun tushunarli bo'lishi lozim".

Tarbiyachining bunday asosli gapni bolalarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallash zarurligiga ishontiradi.

Mashg'ulotning boshlanish qismini ta'sirli, qiziqarli qilib tashkil etish, unga qiziqish uyg'otib, diqqatining barqarorligini ta'minlaydi. Shuning uchun mashg'ulotning boshlanishi qisqa, jonli qilib tashkil etiladi, ba'zan qo'g'irchoqning mehmon bo'lib kelishi, ayiqning mashinada kirib kelishi, sahnada masxarabozning paydo bo'lishi kabi ko'rinishlardan foydalanish, topishmoq, she'r aytish, kirish suhbat o'tkazish va hokazolarni kiritish mumkin.

Mashg'ulotning asosiy qismini aniq rejalashtirish kerak. Uning birinchi bosqichida (yangi vazifani hal etishda) bolalarga nutqiy faoliyatning va uning maqsadini aniqlashga yordam beruvchi ta'limning asosiy usullari mujassamlangan bo'ladi.

So'ngra bolalar tomonidan mustaqil ishlar (savollarga javoblar, mashqlar va hokazo) amalga oshiriladi, ammo tarbiyachi tomonidan rahbarlik qilinadi.

Mashg'ulotning yakuniy qismi qisqa va tushunarligi bilan ajralib turishi kerak, ya'ni mashg'ulotda o'zlashtirilgan materialni mustahkamlash uchun mavzuga yaqin bo'lgan badiiy asarlarni o'qib berish, she'r aytib berish, topishmoq aytish, didaktik o'yin kabi usullardan foydalaniladi.

Agar mashg'ulot aralash turda bo'lsa, u holda uning birinchi qoida yangi mavzu bilan tanishtiriladi va u yuqorida aytib o'tilgan tartib asosida tuziladi. Mashg'ulotning qo'lgan qismlari bolalarga tanish bo'lgan materialga bag'ishlanadi, ammo bu qismlarda ham ta'limning o'rgatuvchi usullaridan foydalaniladi. Masalan, tarbiyachi boladan she'rni yoddan aytib berishni so'rар ekan, unga she'rni qanday (sho'x, mungli yoki muloyim) aytish kerakligi va nima uchun shunday aytish zarurligini tushuntiradi.

Mashg'ulotning tuzilishini rejalashtirishda oddiydan murakkabga, jo'shqinlikdan yanada jo'shqinlikka o'tish hisobga olinadi. Mashg'ulot qismlari o'rtasida 1-2 jismoniy daqiqalar ko'zda tutiladi.

Mashg'ulotning hamma bosqichlarida har bir bolaning nutqiy faolligini o'stirish. Nutqiy faollik bolaning butun mashg'ulot davomida hammaga tushunarli qilib gapirishi emas, balki pedagogning va tengdoshlarining nutqini faol tarzda idrok qilishi va uni tushunishi demakdir. Imkoniyatga qarab ko'proq, bolalarning ovoz chiqiarib gapirishlari, faol nutqlari uchun sharoit yaratib berish kerak. Bolalarning nutqiy faolligini o'stirishda ko'rgazmali qurollardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, faoliyatning xilma-xilligi, turlarining o'zgartirilib turilishi, o'yin usullari ham

bolalarning nutqiy faolligini oshiradi. To'g'ri tanlangan va tuzilgan savollar, topshiriqlar ham nutq faolligini ta'minlovchi vositalardan biridir. Tarbiyachi savollar, topshiriqlar berganda, guruhdagi hamma bolalarga qarata murojaat qiladi, zarur bo'lganda uni takrorlaydi, javob beruvchiga baland, aniq, hammaga tushunarli qilib gapirish kerakligi haqida ko'rsatma beradi, nutqiy rivojlanishi har xil darajada bo'lgan bolalardan navbatma-navbat so'raydi, hadeb bir boladan so'rayvermaydi, guruhdagi bolalarga javob berayotgan bolaning javobi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini nazorat qilib borishni aytadi, ularga savol bilan murojaat etadi: u to'g'ri va to'liq javob berdimi? Yana nimalar haqida gapirishi kerak edi? Tartib bilan so'zlab berdimi?

Bolalarning nutqiy faolligiga baho beruvchi savollardan (Senga nimasi yoqadi?) foydalanish, ijodiy topshiriqlar berish, shaxsiy tajribalaridan foydalanishga undash va hokazolar ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'luming jamoa harakter kasb etishini bolalarga individual yondashish bilan birga qo'shib olib borish. Ishning frontal shakli - bu umumiy topshiriqlar, umumiy ritm, xor bo'lib javob berish va hokazolardir. Bu esa o'z navbatida bolalarga beriladigan alohida topshiriqlar bilan qo'shib olib borilishi kerak. Tarbiyachi yakka (individual) topshiriq va usullarni tanlashda bolaning bilim darajasini va nutq malakasini, qiziqishini hisobga olishi kerak.

Ayniqsa, pedagog mashg'ulotda nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Shuningdek, indamas, muloqot qilishni istamaydigan, o'zini tutib tura olmaydigan, ezma bolalarga yakkama-yakka yondashishi lozim.

Mashg'ulotni to'g'ri tashkil etish. Nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar to'g'ri sharoitlarda tashkil etilishi mumkin. Ko'proq nutq o'stirish mashg'ulotlari guruh xonasida o'tkaziladi. Shuningdek, qo'g'irchoq teatri, kinofilmlar, harakatli o'yinlar va boshqa mashto'lotlar zalda o'tkaziladi. Yilning issiq kunlarida mashg'ulotlar guruh maydonchasida, peshayvonda ham o'tkazilishi mumkin. Nutq o'stirish mashg'ulotlari va boshqa mashg'ulotlarda quyidagi gigienik sharoitlarga amal qilish lozim: yorug'lik yetarli darajada bo'lishi kerak. Bolalarning va tarbiyachining doimiy o'tiradigan joyi bo'lishi, bolalar stol atrofida o'tirishganda tarbiyachini aniq, ko'rib turishlari, bolalar tarbiyachiga, tarbiyachi esa bolalarga qarab o'tirishi kerak. Guruh xonasining havosi doimo yangilanib turishi lozim.

Mashg'ulotda harakatlanuvchi, mayda predmetlar, shuningdek, loto o'yini vaqtida predmetlar bilan mashq qilishda, akvariumdagi baliqni, qafasdagи qushni va hokazolarni kuzatishda bolalar doira shaklida o'tirishadi, tarbiyachi esa bolalar o'rtasida o'tiradi. Mashg'ulot vaqtidagi muhit estetik talablarga javob berishi lozim.

Mashg'ulot natijalarini hisobga olish. Bolalar bilimi mashg'ulot jarayonining o'zida e'tiborga olib boriladi. Tarbiyachi mashg'ulot vaqtida bola nutqini kuzatib, uning javobini hisobga olib boruvchi daftarga belgilab qo'yadi. Ayniqsa, dasturning murakkab bo'limi hisoblangan hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha bolalarning javoblarini kundalikka yozib boradi. Buni hisobga olib borish tarbiyachi uchun kelgusi ish vazifalarini belgilab olishda yordam beradi.

O'tilgan materialni mustahkamlash. Bu talab-jarayon takrorlash asosida amalga oshiriladi. Bola mashg'ulot jarayonida yangi o'rgangan xatti-harakat va ko'nikmani egallahsga da'vat etiladi va malaka hosil qilinadi. Bolalar nutqini rivojlan Tirish bo'yicha olib boriladigan ish jarayonida murakkab aqliy ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Shuni hisobga olish kerakki, mashg'ulotlarda, eng avvalo, dasturdagi asosiy talablar (sanashga o'rgatish, musiqa tinglash, rasm chizish, ko'rish-yasash va hokazo) amalga oshiriladi, shuningdek, nutqiy ko'nikma va malakalar ham shakllantirib boriladi.

O'yin bolalar nutqining rivojlanishi va boyishiga yordam beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Har bir o'yin turi alohida ahamiyatga ega. Rolli o'yinlar ma'lum bir sohaga oid so'zlarni o'zlashtirishga, o'z fikrini mustaqil ravishda bayon etishga o'rgatadi. Kasbga taalluqli bo'lgan (shifokor, tarbiyachi, haydovchi, sotuvchi) rolli o'yinlar kasbga oid so'zlarning bola lug'atiga jadal kirib borishiga hamda madaniy so'zlashish malakasini egallahsga yordam beradi.

Yasash, guruhg'a doir o'yinlar bolalarning lug'atini o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan so'zlar bilan to'ldirish va ularni nutqida faol qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Bunday o'yinlar orqali bolalar narsalar (predmetlar) ning sifatini, o'lchamini, fazoviy joylashishini (yirik, katta, (kir, yupqa, uzun, yuqorida, pastda, oldinda, orada, o'ngda, chapda va boshqada) bilib oladilar va lug'atlarini boyitadilar.

Didaktik o'yinlardan bolalarning tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini, lug'atlarini mustahkamlash uchun hamda nutqiy malaka va ko'nikmalarini (jumla tuzish, so'z shaklini o'zgartirish, hikoya tuzish va hokazolar) shakllantirishda foydalilaniladi.

Bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy omili mashg'ulotdir. Mashg'ulotning samaradorligi va sifati qanchalik yuksak bo'lsa, u maqsadga shunchalik erishiladi. Shuning uchun ham mashg'ulot oldiga bir qancha talablar qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulotga o'z vaqtida tayyorlanish: ta'limning metod va usullarini aniqlash, bolalarning bilim darajasi va qobiliyatini hisobga olish. Dastur asosida aniq nutq mazmunini, metod va usullarini tanlash, mashg'ulot qurilishi va uning borishini belgilash.

2. Mashg'ulotning samaradorligini belgilash. Bunda o'quv materiallarni mosligi: emotsionalligi, qiziqtirish xarakteri, mustaqil harakat va analiz-sintez xarakterini aniqlashdan iborat.

3. Mashg'ulotning tarbiyaviy xarakteri. Mashg'ulotning bolalar hissiyotiga ta'siri, ularni ijobiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga qaratilganligi nazarda tutiladi.

4. Mashg'ulotning hissiy xarakteri. Har bir mashg'ulot har bir bolada hissiy tuyg'u, zavq, sho'xlik, quvonch, havas tuyg'ularni shakllantirishi lozim.

5. Mashg'ulotning aniq qurilganligi. Mashg'ulot jarayoni aniq bosqichlar asosida o'tkazilishi zarur. Chunonchi, mashg'ulotning kirish qismi (kichik guruhlarda 1 daqiqadan, katta guruhlarda 5-7 daqiqagacha) davom etishi mumkin. Aslida o'rta guruhlarda 15-17 daqiqa, katta guruhlarda 20-25 daqiqa, tayyorlov guruhlarda esa 30-35 daqiqada mashg'ulotlar o'tkaziladi.

6. Mashg'ulot bosqichlarida har bir bolaning nutq faoligini o'stirishiga alohida e'tibor beriladi. Nutq faolligi bolaning turli harakatlari, o'yin usullari va boshqa shakllar orqali rivojlantiriladi. Bunda dialogik nutq usuliga katta ahamiyat beriladi.

7. Mashg'ulotning jamoa xarakteri ta'limidan yakka o'tish. Ishning umumiy shakli jamoa faoliyat tarzida tashkil etiladi. Mashg'ulot jarayonida bolalar birgalikda faoliyati ko'rsatadilar, xor tarzida she'r yodlaydilar. Tarbiyachi ana shu umumiyligidan har bir bolaning yakka faoliyatiini ajrata olishi, farqli xususiyatlarini belgilashi, shu asosda ularning faoliyati doirasini kengaytirmog'i lozim.

8. Mashg'ulotni to'g'ri tashkil etish. Mashg'ulotning qurilishi jihatidan samaradorligiga erishishdan tashqari, uning maqsadi jihatidan muvaffaqiyatlari asosiy o'rin tutadi. Har bir mashg'ulotning bolalar hissiyotiga ta'siri, predmetlarni tanlash, o'yin tashkil eta olish kabi holatlar xususan, estetik talablar mashg'ulotning sifat va samaradorligini belgilaydi.

9. Mashg'ulot natijasi. Har bir mashg'ulot uning natijasi bilan belgilanadi. Tarbiyachi mashg'ulotning dastur asosida o'tganligi, bolalar nutqining lug'at jihatidan boy etganligi, grammatik nutq vositalarini amaliy o'rgata olganligi, tarbiyaviy nuqtai nazaridan samaradorlikka erishganligi bilan o'lchanadi.

10. O'tgan mashg'ulotni boshqa materiallar va faoliyati bilan kutilmaganda boyitish. Bu talabda o'tilgan mashg'ulot didaktik tamoyil asosida uning takroriyligi, nutq ichida muhimligi, mashg'ulot jarayonida qayta ishslash, bola qobiliyati va bilim darajasi uchun zarurati hisobga olinadi.

Yuqoridagi talablar mashg'ulot samaradorligini rivojlantirishning asosiy talab va vazifalari sanaladi. Bu talablar tarbiyachining asosiy pedagogik burch va vazifasi bo'lib, uni nutq o'stirish faoliyatidagi maqsad va natijani belgilaydi. Bu esa hozirgi davr ta'lim texnologiyasi mazmuni, sifati va natijasi demakdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Fan qanday bo'limlardan iborat?
2. Bog'chada nutq o'stirish mashg'ulot darsturining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
3. "Maktabgacha ta'lim to'g'risida" gi nizomning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Nizomda nutq o'stirish talablari qanday belgilangan?
5. "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi bolalarni nutqiy rivojlantirish va maktab tayyorlashning talab va vazifalari haqida gapiring.
6. Nutq o'stirish mashg'ulotining qanday metod va usullarini bilasiz?
7. Mashg'ulotga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

3-Mavzu: Bog'lanishli nutqni o'stirish usuliyoti

Reja:

1. Nutq munosabatida shakl va tuzilish.
2. Dialogik nutqni shakllantirish.
3. Suhbatda so'zlashuv nutqini shakllantirish.
4. Suhbatning qurilishi.

Asosiy tayanch so'zlar:

Bohlanishli nutq, ilk yoshdagi, o'rta, katta, tayyorlov guruh bolalar nutqi, so'zlashuv nutqi, suhbat, suhbat mazmuni, suhbatning qurilishi, suhbat ta'limi va tarbiyaviy usullari.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.
Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	<p>1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Nutq munosabatida shakl va tuzilish. Dialogik nutqni shakllantirish.</p> <p>Suhbatda so'zlashuv nutqini shakllantirish.</p> <p>Suhbatning qurilishi.)maqsadi, rejasini e'lon qiladi.</p>	<p>1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. . .</p>
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	<p>1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova)</p> <p>2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova)</p> <p>3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)</p>	<p>1. Eshitadi, yozadi,</p> <p>2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi</p> <p>3. Savollarga javob beradi.</p>
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	<p>1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyg'a vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash.</p> <p>2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi</p>	<p>1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi.</p> <p>2. Eshitadi yozib oladi.</p>

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogikaning muhim masalaridan biri hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha uzoq, va ko'p yillar davomida tadqiqot ishlari olib borganlar.

Bola hayotining birinchi yili eng mas'uliyatli davr bo'lib, bu davrda bola nutqida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu bolaning umumiy rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Bola tayyor nutq organ bilan tug'iladi, lekin u gapirmaydi. Buning sabablari bir qancha:

1. Yangi tug'ilgan chaqaloq (go'dak) o'zining nutq organ foydalanish ko'nikmasiga ega emas, bu ko'nikmani unda hosil qildirish kerak. Unda nutq uchun mavzu (ob'ekt) yo'q, u bu mavzuni (ob'ektni) kuylashi kerak.

Unga nutqning so'z shakllari tanish emas, bola ular bilan tanishishi shart.

Nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun bolaning tafakkurini rivojlantirish zarur.

Nutq kishilarning bir-birlari bilan bo'lgan munosabatida rivojlanadi, go'dak hali atrofini o'rab olgan kishilar bilan aloqa o'rnatgan emas.

Mana shu yuqoridagi yo'nalishlarga qarab, bolalar nutqining rivojlanishiga rahbarlik qilish kerak. Bola nutq organining takomillashishiga va nutqining rivojlanish jarayoni tezlashishiga tasir etish lozim.

Bolada nutq ilk yoshidanoq shakllana boshlaydi. Bu davrda egallangan nutq bolaning kelgusida ona tilini mukammal egallahida asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bola tug'ilishi bilan atrofdagilar bilan nutqiy munosabatga kirishadi, bu munosabat orqali o'zidagi hamma kuch va qobiliyatni rivojlantiradi.

Tarbiyachi ilk yoshdagi bolalar nutqini o'stirishga jiddiy e'tibor berishi va uni rivojlantirishga oid barcha ishlarni sistemali tarzda tashkil etishi lozim.

Ilk yoshdagi davr bolaning jismoniy va ruhiy tomondan tezkorlik bilan rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu yoshda markaziy nerv sistemasining rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi va miya fiziologik jihatdan etilib bo'ladi.

Masalan, 7 oylikda bolaning miyasi ikki barobar, bir yoshida uch barobar o'sadi. 2 yoshida esa katta yoshdagi kishilar miya og'irligilashning 70 foizini tashkil etadi.

Bola ikki yoshli davrida aniq harakatlarni shakllantirish uchun javobgar bo'lgan markaziy nerv sistemasining bo'limi - miyacha 5 barobar, xotira, tafakkur, nutq va xayol kabi ruhiy jarayonlar hamda ixtiyoriy harakatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bosh miya po'stlog'inining maydoni esa 2,5 barobar kattalashadi.

Fiziologlarning ilmiy nazariyalariga ko'ra, markaziy nerv tizimining funksiyalari ularning tabiiy ravishda shakllanish davrida mashq qilish va tarbiyalanishga yengillik bilan moyillik bildiradi.

Bolaning uch yoshgacha bo'lgan davri uning nutqi, tafakkuri va bilish faoliyatiining rivojlanishi uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. "Bu davrga kelib muayan nutq shakli anatomik tomondan yetilib bo'ladi. Bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini egallaydi, ko'p so'z to'plamiga ega bo'ladi. Agar uch yoshgacha bo'lgan bolalar nutqiga yetarlicha e'tibor berilmagan bo'lsa, u vaqtida kelgusida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun katta kuch va g'ayrat sarf etishga to'g'ri keladi", - deb ta'kidlayd olimlar. Nutq vositasida bola bilan kattalar o'rtasida turli munosabatlar o'rnatiladi. Yaxshi rivojlangan nutq ruhiy jarayonlarning (xotira, tafakkur, xayol va boshqalar) rivojlanishiga, bolalarning bog'cha davridagi va undan keyingi faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishi bilan kattalar nutqining tarbiya vositasi sifatidagi roli ortib boradi.

Aksincha, bolaning bog'cha yoshigacha bo'lgan davrida nutqning rivojlanishiga tarbiyachining yetarlicha ahamiyat bermaganligi, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatmaganligi natijasida bolalar bog'cha yoshida (3-4 yoshda) ham nutqni yaxshi egallay olmaydilar. Bolalar nutqni ancha kechikib egallahslari sababli, ularning nutqida so'zlar miqdori yetishmaydi, grammatik xatolar, talaffuzida nuqsonlar juda ko'p bo'ladi. Buning oqibatida bola o'z fikrini boshqalarga bildirishga qiynaladi, atrofdagilar bilan muomala qilish imkoniyatlari cheklanadi. Natijada tarbiyachilar, ota-onalar nutq vositasida bolalarga ta'limgartarbiya berish imkoniyatlaridan foydalana olmaydilar. Shuningdek, nutqning yetarlicha rivojlanmaganligi bolalarni shaxs sifatida har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni barcha ruhiy jarayonlar idrok, xotira, diqqat, fikr yuritish operatsiyalari, xayol rivojlanishdan orqada qoladi, ularga aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasini berish imkoniyatlari chegaralanadi. Bola nutqini ilk yoshdan boshlab nutq o'stirish sohasida olib borilgan izlanishlar natijalariga ko'ra, kattalarning bola bilan yaqindan

munosabatda bo'lib, qulay shart-sharoitlar yaratishlari nutqni o'z vaqtida o'stirish imkonini beradigan tarbiyaviy ta'sirning asosiy shaklidir.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda nutq o'stirishga tayyorgarlik bosqichlari ilk yoshdagи bolalar nutqining rivojlanishi ikki davrdan iborat: tayyorgarlik davri. Bu davr bir yoshgacha bo'lgan bolalar hayotini o'z ichiga qamrab oladi; nutqning mustaqil rivojlanishi davri. Bu davrga ikki va uch yoshdagи bolalar kiradi.

Bolaning tug'ilgandan keyin bir yoshgacha bo'lgan davri nisbatan kam harakat davridir. Bu davrda bolaning o'sishi va taraqqiyoti oila va yaslidagi sharoitdagи tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Lekin shunday bo'lsa ham bu davr har jihatdan juda ildam rivojlanish davridir.

Bola hayotining birinchi yilida bolaning har tomonlama tarbiyasiga katta ahamiyat berish va quyidagilarni amalga oshirish lozim: ko'ruv, eshituv organlari, sezish taassurotlari, emotsiyal his-tuyg'ularni bolaning jilmayishi, kulishi, narsa-buyumlar bilan harakat qilishini shakllantirish.

Bir yoshgacha bo'lgan bola hayotini to'rt davrga bo'lib, o'rganish lozim.

1. Tug'ilgandan 2,5 - 3 oylikkacha.
2. 2,5 - 3 oylikdan 5 - 6 oylikkacha.
3. 5 - 6 oylikdan 9-10 oylikkacha.
4. 9 - 10 oylikdan 1 yoshgacha.

Bu davrlardagi vazifalar turlicha bo'lib, shu vazifalar asosida nutq o'stirishga tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Nutqqa tayyorgarlik davrining o'zi uch bosqichdan iborat:

1. Chiniqish davri (tug'ilgandan 2,5 - 3 oylikkacha).
2. Guvrash davri (2,5 - 3 oylikdan 5 - 6 oylikkacha).
3. Til chiqarish davri (5 - 6 oylikdan 9-10 oylikkacha va 9 - 10 oylikdan 1 yoshgacha).

1. **Chiniqish davri.** Go'dak (tugilgandan 2,5 - 3 oylikkacha) hali o'zining nutq apparatidan foydalana olmaydi, u faqat chinqirish bilan, ya'ni ovoz reaktsiyalari bilan turli istak va xohishlarini bildiradi: "**Qornim ochdi, ovqatlanmoqchiman**", "**Tagim ho'l bo'ldi, quruqlang**", "**Qornim ogriyapti**" va boshqalar.

Go'dakning chinqirishi ma'lum bir kommunikativ vazifani (muomala vazifasini) bajaradi. Chinqirish davrida sensor jarayonlarini taraqqiy qildirish, ko'rish, eshitish va sezish taassurotlarini (tevarak-atrofdagi kishilar va buyumlar bilan bog'liq bo'lgan

taassurotlarni) ta'min etish zarur. Bolani unga so'z o'rgatayotgan katta yoshdagi kishilarga bo'yalgan va yaltiroq o'yinchoqlarga diqqat bilan qarashga, harakatdagi buyumlarni ko'z bilan kuzatishga odatlantirish zarur. Turli xil tovushlarga, katta yoshdagi kishining so'zi, shiqildoqning shaqqillashiga qulqoq, sola bilish malakasini o'stirish lozim. Bolalarda ko'rish va eshitish malakasini o'stirishga yordam berish zarur, chunki bu malaka bolaning umumiy o'sishi uchun tevarak-atrofdagilar bilan munosabatda bo'lishi va emotsiyalar hosil bo'lishi uchun katta ahamiyatga egadir. Bola 1 - 1,5 oylik (uch-besh haftaligida) bo'lganida unda dastlabki quvonch alomatlari paydo bo'ladi, unga kulib boqqan, so'z o'rgatgan kishiga javoban tabassum qiladi. Bola ikki-uch oylik bo'lganda esa katta yoshdagi kishilar bilan munosabatda bo'lganda faqat jilmayibgina qolmay, balki turli ovozlar ham chinqira boshlaydi, qo'l va oyoqlarini tez-tez tipirchilatadi. Bolaning bunday emotsiyonal ifoda reaksiyasi uning organizmini, umumiy hayotiy faoliyati darajasini o'stridi, harakatlari va ovoz reaksiyasing o'sishiga yordam beradi.

Bola hayotining birinchi oylarida unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uni parvarish qilish vaqtida amalga oshiriladi. Ular kompleks xarakterga ega bo'lib, bular: a) ko'ruv organiga; b) eshituv organiga; v) sezgi organiga ta'sir etadi.

Bolaga ta'sir ko'rsatish ularni tinchlantirishga, bezovtalikni yuqrtishga qaratilgan bo'ladi, Buning uchun har doim kattalarning chehralarida quvnoqlik alomati, jilmayish holatlari bo'lishi, so'z ohangi muloyim, yumshoq bo'lishi lozim. Kattalar bolaning oyoq-qo'llarini, orqasini silaydi, yonini oladi, erkalaydi va hokazolar. Mana shu harakatlarni bola bilan "gaplashish" orqali bajarishi lozim. Bunday "gaplashish" mazmun jihatidan juda oddiydir. Bundan asosiy maqsad, bolani tinchlantirishdan, unga o'zining mehribonchiligini bildirishdan iboratdir (Salim, Salimjon, yig'lama, hozir senga ovqat beraman. Yig'lama, mening erkatoym, shiringina uxlugin. Hozir men sening tagingni quruqlayman, keyin tinchgina uxlaysan. Seni hech kim ko'tarmadimi, hozir men seni sayrga olib chiqaman va hokazo). Bola hayotining birinchi oyi oxiri va ikkinchi oyining boshida muomalasi faollashadi. Bu davrda bolada ijobiy-emotsional holatlar paydo bo'la boshlaydi.

Bu davrda kattalar kundalik tartib daqiqalarida va chiniqtirish paytalarida bolaning ko'ruv, eshituv va sezgi organlariga kompleks ta'sir

etishni amalga oshiradilar (xuddi birinchi oylardagi kompleks ta'sir etishdek).

Bolaning ko'ruv va eshituv organiga ta'sir etish jarayonida bola nigohini o'ziga qaratishi va uni bir necha daqqa ushlab turishi kerak

Bola bilan "gapplashish" tinch ohangda, xuddi bola hayotining birinchi oylarida "gaplashgandek" bo'lishi kerak "Gapplashish" ning mazmuni xuddi avvalgidek (bir oylikdagidek) sodda bo'lsa-da, ovoz ohangi xilma-xillikni talab etadi. Bu oyda bolaning ovoz reaksiyasi ifodali bo'lib boradi: baland ovozda, qichqirib, kikirlab kula boshlaydi. Kattalarning bola bilan "gaplashishi" bolaning qichqirishini to'xtatadi. Bu bolaning kattalar bilan muomalasi ancha faollashganidan dalolatdir.

Bola uch oylik bo'lganda kattalar ular bilan munosabatga kirishganda buyumlardan (predmetlardan) foydalana boshlaydi: osib qo'yilgan o'yinchoqni, shiqildoqini shiqqillatadi. Bu bolaning ko'ruv va eshituv organlari rivojlanishiga yordam beradi.

2.Guvrash davri. Bu davrga 2,5-3 oylikdan 5-6 oylikkacha bo'lgan payt kiradi. Bu oylarda bolalarda sezish qobiliyatini yanada o'stirish va idrok eta bilishni tarkib toptirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish lozim. Bola bu davrda ba'zi bir buyumlarni (shisha va shiiildoq) farq qila boshlaydi, o'ziga yaqin kishilarni begonalardan ajrata boshlaydi, onasini va o'ziga yaqin kishilarni ko'rgan zahoti taniydi.

Bolada tovushlarni diqqat bilan tinglash va bir-biridan farqlash qobiliyati o'sa boshlaydi, tanish tovush diqqatini darrov o'ziga jalb etadi, tinchlantiradi va quvontiradi.

Bola 4 oylik bo'lganida shiqildoq tovushiga yoki ko'rinasdan chaqirayotgan qishi ovoziga boshini buradi va uni topib oladi.

Bu oyda bola diqqatini musiqaviy tovushlarga jalb etish kerak. Qo'shiqlar, musiqaviy o'yinchoqlarning ohangdor jaranglashi bolada quvnoq kayfiyat qo'zg'aydi, uning diqqatini kattalarning musiqa sadosiga uyg'un suratda bayroqcha, ro'molcha bilan ijro etiladigan harakatlarga jalb etadi.

Bola to'rt oylik bo'lganida kikirlab kuladi, u o'zi bilan har kuni muomalada bo'ladigan kishilarga juda ham o'rganib qoladi. Shuning uchun bolaga tez-tez so'z o'rgatib turish kerak. Kattalar bolalar bilan muomala qilish jarayonida bolada tovushga javoban tovush chiqarish qobiliyatini paydo qilish va o'stirish kerak. Bola 3 - 4 oylik bo'lganda uning "gugu" lashiga (g-g, bu-u), 4, 5 oylik bo'lganda esa: "ma-ma", "da-da", "buv-buv", "baba", "aya", "ya", "a-na" kabi unli tovushlar

ko'proq, bo'lgan bo'g'inlarni takrorlashiga ahamiyat berish kerak. Bolada "gugu" lash qobiliyatini o'stirishga harakat qilish uning tili chiqarishiga yordam beradigan artikulyatsiya apparatining o'sishiga va tovushga qulq sola bilish faoliyatiini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu davrda bolalar bilan nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi:

1. Bolalardagi quvnoq kayfiyatni quvvatlash.
2. Javob tovushlarini vujudga keltirish.
3. U bilan quvnoq gaplashayotgan kishini qidirib topishga o'rgatish.

Shunday qilib, mashg'ulotda ham, bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarda ham bolalarda ijobiy emotsiyal holatlarni vujudga keltirish, eshituv idrokini va tovushlarga taqlid qilish malakasini rivojlantirishga katta e'tibor berilishi lozim.

Rejim daqiqalarida ham va mashg'ulotlarda ham bir xil maqsad va vazifalar qo'yilishiga qaramasdan, bir qancha ahamiyatli farqlar ham bor.

Mashg'ulotlarni kunning ikkinchi yarmida bolani chiniqtirishdan 40 - 60 daqiqa o'tgach o'tkazish taklif etiladi. Nutqni rivojlantirishda oldindan qaysi bolaning qaysi tomoniga ahamiyat berish kerakligi belgilab olinadi. Mashg'ulot har kuni 4 marta 3-6 daqiqadan o'traziladi. Har bir mashg'ulotda bir necha ta'sir etish usullaridan navbat bilan foydalanish ko'zda tutilishi va ular o'rtasidagi pauza (dam olish) 30 soniyadan iborat bo'lishi kerak. Bu pauzada bolaga tovushni talaffuz etish imkonи beriladi. Avval bola bilan quvnoq "gaplashiladi" ("ma-ma-ma"), so'ngra uning tepasida bir necha daqiqa jim turiladi, keyin o'yinchoq, shaqillatiladi va bola bilan yana bir marta quvnoq "gaplashiladi".

Agar bola katta kishi tomonidan talaffuz etilgan ("ma-ma-ma-ma") bo'g'inni takrorlasa, unga kulib boqib (tasdiq ma'nosida), silab qo'yish va yana bir marta quvnoq ohangda mashqni takrorlash kerak. Mashg'ulotning oxirida ota yoki ona (tarbiyachi-hamshira) bolaning harakatini yana bir marta tasdiqlaydi. Tasdiqlash vaqtida so'zlarni to'liq aytish kerak.

3. Til chiqarish davri. Bola 5-6 oylik bo'lganda kattalar, bolalar, hayvonlar, atrofdagi o'yinchoqdar, buyumlar bilan ko'proq qiziqa boshlaydi. Bola bularning hammasini bir-biridan yaxshigina farqlay oladi: notanish odamlarni ko'rganida ulardan yuz o'girib olib, hatto

yig'lab yuborishi mumkin. Kattalar og'zidan chiqayotgan tovushga qulq soladi, tovush talaffuzini va ba'zi bir so'zlarni farqlaydi, kattalarning ovoz ohangiga ongli tarzda javob beradi, uni nutqning mazmuni bilan bog'lay oladi. Endi nutq bilishning elementar funksiyasini bajara boshlaydi.

Masalan, ota yoki ona qo'g'irchoqni ko'rsatib, uni qanday raqsga tushishini quvnoq, ohangda aytib ko'rsatadi. Yoki qo'g'irchoq stol ustidan tushib ketganda, ular ovozga achinish ohangini berib, shu vaziyatga mos so'zlarni aytadi. Bu bilan kattalar harakat va ovoz ohangiga ma'no, mazmun beradilar, ya'ni ular, qo'g'irchoq yiqilib tushdi, uning oyog'i og'riyapti, u yig'layapti, unga mehribonlik qilish kerak (uni silab qo'yish kerak) kabi gaplar bilan bolani ovutadilar.

Bola 7 oylik bo'lganda kattalarning unga bergen savoliga (o'ying qani?" "soat qani?") qarab yaqinida turgan kishiga yoki devorda, javon ustida turgan buyumga bosh burib qaraydi va uni qidirib topadi.

8 - 9 oylik bo'lganda nomi aytilgan buyumni zo'r berib axtaradi va u buyum qayerda turgan bo'lmasin, uni ko'zi bilan axtarib topadi. Bola 6 oylikdan 9 oylikkacha takror-takror aytilgan so'zlarni "chapakkaho-chapakka", "chimo-chimo", "sarak-sarak", "assalom" "xayr-xayr", "qo'lingni ber" kabi harakatlarni farqlay boshlaydi va ularni bajonidil bajaradi, tanish harakatlarni bildiradigan so'zlarni ("o'tir", "yot" kabi) tushunadi.

Tevarak-atrofdagi kishilar nutqini tushuna boshlagach, bolada faol nutq kurtaklari paydo bo'ladi. Tevarak-atrofdagilar ta'siri ostida bola kattalar talaffuz qilayotgan tovushlarga taqlid qila boshlaydi, bu tovushlarni qayta-qayta takrorlaydi, tovush reaksiyalariga diqqat bilan qulq soladi. Shu tariqa bolada faol nutqqa erishishga sharoit yaratiladi.

5-6 oylikdan 9-10 oylikkacha bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirishning asosiy vazifasi kattalar nutqida uchraydigan tovush birikmalarini tushunishga va unga taqlid qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Nutqni tushunish, eng avvalo, kundalik tartib daqiqalarida ovqatlantirishda, cho'miltirishda, uyquga yotqizishda rivojlantiriladi. Bolani parvarish qilish jarayonida unda juda ko'p turli xildagi harakatlar, malaka va odatlar, xulq-odob qoidalari shakllanadi. Bularning hammasida kattalarning so'zlar orqali ko'rsatmalari asosiy rol o'ynaydi. Bolalar bilan qilinadigan nutqiy muomala orqali ularni birgalikda qilinadigan faoliyatiga sekin-asta jalg qilib boriladi. Birgalikda faoliyat ko'rsatish bu ob'ektni, narsa-buyumlarni, harakatlarni bajarish jarayonini ko'rib chiqish va bo'layotgan voqealarni

kuzatishdan iboratdir. Masalan, bolani kiyintirayotgan vaqtida kichkintoyning gavda qismlari, kiyimning nomini aytib, bolaning diqqatini aytilayotgan ob'ektga yoki harakatga yo'naltirib, ular tafakkurini faollashtirish lozim (Salimning oyoqlari qani? Mana uning oyoqlari. Oyoqlariga hozir biz nima kiydiramiz? Paypoq. Salimning paypogi qani? qara, mana ular. Ko'ylakchasi qani? Mana ko'ylarchasi. hozir ko'ylarchasini kiydiramiz). Shuni nazarda tutmoq kerakki, bola xali harakatlarni bildiruvchi so'zlarning ma'nosiga tez tushunib yetmaydi. Buning uchun tartibli ravishda nutqiy munosabatda bo'lib turish lozim. Narsa-buyumlarning, harakatlarning nomlarini bildiruvchi so'zlarni takror aytish lozim. Shuningdek, bolani narsa-buyumlarning nomlarini yaxshi bilib, uni tushunib olishga o'rgatish maqsadida intilayotgan narsa-buyum tomonga qarab harakat qilishini talab qilish kerak.

Mashg'ulotning borishi har xil bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda kattalar (hamshira-tarbiyachi), eng avval bolaning eshituv a'zosiga ta'sir etadi-shiqildoqni shiqillatadi, so'ngra savol beradi: "Salima, kuchukcha (mushukcha) qani?" Keyin shiqildoqni shiqillatadi. Ba'zi hollarda bola idrokini ko'chaytirish maqsadida narsa-buyumni (o'yinchoqni) bola oldiga olib keladi. Bola uni qo'liga oladi, yaxshilab ko'radi. So'ngra tarbiyachi bu o'yinchoq (narsa-buyum)ni yashiradi yoki avvalgi joyiga olib borib qo'yadi va boladan: Salima, kuchukcha (mushukcha) qani? - deb so'raydi. Bola aytilgan narsani zo'r berib qidiradi va uni topgach, qo'li bilan uni ko'rsatadi yoki kattalar bola bilan birga qidiradi va "Mana, kuchukcha (mushukcha)" deb aytadi. Bu mashq bir necha marta takrorlanadi.

9-10 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan davr. Bu davrdagi tarbiyaning eng muhim vazifasi nutqni o'stirishdir. Bolada yaqin kishilarning va bolalarning ismini bir-biridan farq qilish malakasini hosil qilish, uni tevarak-atrofdagi ba'zi buyumlar, o'yinchoq, hayvonlar va eng oddiy harakat nomi bilan tanishtirish, bolaning passiv lugatini boyitish zarur. Bolani kattalarning unga aytgan va uning uchun tushunarli bo'lgan iltimosini, nomi aytilgan kishini yoki buyumni topish, ma'lum bir harakat, amalni bajarish kabi iltimoslarni ,ijro etishga o'rgatish lozim. Nima qilish, o'yinchoqdan qanday foydalanish kerakligini bolaga ko'rsatish, esiga solish kerak. Bola yoshiga to'lganda uning mumkin emas degan so'zning ma'nosini tushunishiga erishish va bu so'zni unga o'rgatish kerak. Bola bir yoshga to'lganda dada, buva,

buvi, oyi, opa, nanna, umma, ko'klu, miyov-miyov, vov-vov kabi 8 - 10 ta so'zni bemalol ayta olishiga erishish kerak.

Bu yoshda (9-10 oylikdan 1 yoshgacha) nutqni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni bajarish uchun bolani parvarish qilish vaqtlaridan unumli foydalanish kerak. Bu yoshga kelib bola hayoti ancha murakkablashadi: ovqatlanish tarkibiga turli xildagi oziq-ovqatlar kiritiladi, kiyim-kechaklarning yangi turlaridan foydalaniladi, madaniy-gigienik odatlар shakllantiriladi. Eng muhim shundaki, endi kattalar kundalik tartib jarayonida eyish, kiyinish va boshqalar bilan bog'liq bo'lган harakatlarni shakllantirish maqsadida bolalarni sekin-astalik bilan faollashtirib boradi. Endi kattalarning so'zlari harakatga aylanadi. Avval harakatni kattalarning o'zlari bajarib ko'rsatadilar, so'ngra bolani ushbu harakatni bajarishga o'rgatadi. ("Salima, mening oldimga kel, hozir ovqatlanasan, "Salima hozir nima eydi?" "Sho'rva ichadi, non eydi, choy ichadi"). Bola tomonidan bajarilgan ish ko'zatib boriladi va rakbatlantiriladi. ("Firdavs, Salima, sen piyolani to'g'ri ushlading. Choy juda mazali, uning hammasini ichib qo'yish kerak").

Bir harakatni ko'p marta takrorlash natijasida bola kattalar-ning birgina so'z orqali ko'rsatmasi bilan turli harakatlarni mustaqil bajara boshlaydi.

Endi unda turli xildagi predmetlarni (narsa-buyumlarni), harakatlar nomini (soat, stol, qo'g'irchoq', kuchuk, ko'ylak, botinka, shippak, yech, qiyin, ber, olib kel va hokazolar) bildiruvchi so'zlarni tushunish rivojlanadi. Ular o'zlarining harakatini kattalar tomonidan suday bag'shanayotganligini tushunib boradilar. O'z tushunchalarini avval harakatlarda, imo-ishoralarda, ovoz ohanglarida aks ettiradilar. Keyinchalik esa ma'lum ahamiyatga ega bo'lган ayrim umumlashtiruvchi so'zlarni ishlatadilar.

1 yoshdagagi bolalar bilan nutqni rivojlantirish bo'yicha turli xildagi mashg'ulotlar o'traziladi. Bu yoshda bolalar nutqin rivojlantirish vositalari kengayadi. Syujetli o'yinchoqlar, qo'g'itchoq va hayvon o'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarga katta ahamiyat beriladi, birinchi marta predmetlarni aks ettiruvchi rasmlarni ko'rsatish mashg'uloti kiritiladi, ya'ni o'yin ovutmachoqdardan foydalaniladi.

Nutqni tushunish tevarak-atrofdagi predmetlarni idrok qilishning kengayishi jarayonida rivojlanadi. Ushbu yoshda mashg'ulotda foydalaniladigan usuliyoti bu nomi aytilayotgan narsa-buyumni

ko'rsatishdan, shuningdek, harakatni predmet bilan ko'rsatishdan iboratdir.

Ko'rsatish mashg'ulotning maqsadiga qarab har xil o'traziladi. Ma'lum bir predmetni anglatuvchi so'zni tushunishni o'zlashtirish uchun eng avval shu predmet ko'rsatiladi. Masalan, kuchukcha yoki xo'roz o'yinchoqni ko'rsatib, "Vali, qara, bu kuchukcha. Uning ko'zлari, quloqlari, dumi, oyoqdari qaerda ekanligini ko'rsat. Mana bu - xo'roz. Mana uning boshi, dumi, panjalari. Xo'rozning boshi qani, dumi qani, panjalari qani, ko'rsat." Avval o'zi bu predmetlarning qismlarini ko'rsatadi, so'ngra boladan ko'rsatishni so'raydi.

1 yoshga kirgan bola umumlashtiruvchi so'zlarni bilib olishiga erishish uchun, bolaga bir xil nomdagi, ammo tashqi ko'rinishi har xil bo'lган o'yinchoqdar ko'rsatiladi. Masalan, "Odina, mana bu qo'g'irchoq". (Qattiq materiaddan qilingan.) Uning ustida chiroyli ko'y lagi bor. Ma, qo'g'irchoqni ushlab ko'r. Uncha katta bo'lмаган pauzadan so'ng ikkinchi bir ko'g'ichoqni (uncha katta bo'lмаган, rezinadan yoki yumshoq materialdan qilingan, boshqacha kiyintirilgan) ko'rsatadi. "Bu kim? Qo'g'choqni ol, uni yaxshilab ko'rib chiq".

Narsa-buyumlarni (o'yinchoqdarni) va harakatlarni bir vaqtning o'zida ko'rsatish usullaridan foydalanib ham mashqlar o'kraziladi.

Masalan: "Ajoyib xaltacha" nomli didaktik o'yin mashg'ulotida xaltacha ichiga kuchukcha, mushuk, xo'roz kabi o'yinchoqlar solinib, o'yinchoqdar navbatma-navbat bolalarga ko'rsatiladi, nomi aytildi, qanday yugurishi, qanot qoqishi, qichqirishi va hokazo harakatlar ko'rsatiladi.

Ikki yoshgacha bo'lган bolalarda nutqni egallash jarayoni ikki davrdan iborat bo'ladi: yoshdan 1 yoshu 6 oygacha 1 yoshu 6 oylikdan 2 yoshgacha.

Har ikki davrda ham bola nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

a) nutqni tushunish va taqlid qilish malakasini rivojlan tirish;

b) bol al ar lug'atini boyitish;

v) nutqni atrofdagilar bilan muomala qilish vositasi sifatida shakllantirish.

Bolaning kattalar nutqini tushunishini rivojlantirish. Bu jarayon ma'nosiga tushunadigan so'zlar to'plamini kengaytirish bo'lib, uning mazmuniga quyidagilar kiradi: 1) o'z ismini, yaqin kishila-ri ismini; 2) kiyim-kechaklar, mebellar, idish-tovoqlar nomini; 3) bir joydan ikkinchi joyga borishda transport vositalari nomini; 4) o'ziga tanish

bo'lgan hayvonlar va o'simliklar nomini; 5) o'z tanasining, o'yinchoq-hayvonlar tanasining ayrim qismlari (qo'l- oyoqlar, bosh, og'iz, ko'z, qulqoq) nomini bilib olishi.

Maishiy hayotda bajariladigan oddiy ish-harakatlarni bildiruvchi so'zlarni (yot, uxla, o'tir, kiyinamiz, o'ynagani boramiz va hokazo) o'yin va mashg'ulot jarayonida ishlataladigan so'zlarni (ichir, kiydir, och, bekit va hokazo) bilib olish hisobiga bolada ma'nosiga tushunadigan so'zlar to'plami kengayib boradi.

Faol nuqni o'stirishga bola tomonidan tez-tez eshitib turiladigan tovush birikmalari va so'zlarga taqlid qilish orqali erishiladi.

1 yoshdan 1 yoshu 6 oylikkacha bo'lgan bola ajablanish, shodlik, norozilik, xafalik va shu kabilarni ifodalovchi ba'zi bir intonatsiyalarni takrorlay bilishi, yaqin kishilarni (oyi, dada, ona, aka va hokazolar) hamda tanish buyumlar va o'yinchoqlarni (piyola, karavot, stol, archa, o'yinchoq va boshqalar), tanish ish-harakatlarni (o'tir, tur, menga ber, quyib yubor va boshqalar) bildiruvchi so'zlarni aytib, o'z lug'atini faollashtirib boradi. Shuningdek, bu yoshdagagi bolalar qisqa hikoyalarni, she'r, hazil-mutoyibalarni tushunadilar; uncha murakkab bo'limgan topshiriqdarni bajaradilar. Endi bola lug'at to'plamining kengayishi asosida ilgari tushunib, bilib olgan so'zlarini faol ishlata boshlaydi, qisqa gaplarni va ayrim jumlalarni takrorlaydi. Bola 1 yoshu 6 oylik bo'lganida ba'zi narsalarning sifati, hajmi va vazifalarini bilib olishga harakat qiladi. Lekin o'zi bu belgilarni ayta olmaydi. Shuning uchun kattalar yordamiga muhtoj bo'ladi.

1 yoshu 6 oylikdan 2 yoshgacha bo'lgan davr nutq o'sishining ikkinchi davri hisoblanadi. Bu davrda nutqni tushunish qobiliyatları ularning faol nutqi taraqqiyotidan ancha o'zib ketadi. Taqlid qilishning o'sishi natijasida ikki yoshga qadam qo'ygan bolalarning talaffuz etadigan so'zları soni ortib, 200 - 300 taga etadi; ularning lug'atidagi so'zlar tarkibida tevarak-atrofdagi kishilarni anglatadigan so'zlar (**qizbola, o'g'lola, xola, amma, tog'a, amaki, buvi, buva**), uyda va uydan tashqarida (**bog'da, hovlida, ko'chada**) bo'ladigan narsalarni anglatuvchi so'zlar, ba'zi bir hayvonlar va o'simliklarni, kunda ko'rib turadigan xatti-harakatlarini anglatuvchi so'zlar mavjud bo'lib, ular lug'at to'plamini kengaytirib boradi. Shuningdek, bu yoshdagagi bolalar iboralar (**kosa stol ustida turib-di; sut kosada; u erda; bu erda**) ma'nosini to'g'ri tushunish qobiliyatiga ega bo'ladilar va ularni o'z o'rnida ishlata olish ko'nikmasi sekin-asta shakllana boradi. Endi bolalar katta va kichik narsalarni bir-biridan farq qiladilar, ranglarni

ajrata oladilar (**qizil**, **ko'k**, **sariq**, **zangori**), buyumlarning boshqa sifatlarini (**toza**, **iflos**, **mazali**, **shirin** va hokazolarni) bilishga intiladilar. Bola nutqining bu xususiyatlari lug'atining boyib borishiga, faollashishiga katta ta'sir etadi. Bolalar ikki yoshga qadam qo'yganlarida ularda umumlashtirish qobiliyati tarkib topa boshlaydi. Bu nutq faoliyatiini xarakterlovchi asosiy xususiyatdir. Masalan, bola 10 oylik va 1 yosh bo'lganda "**Kosa qani?**" degan savolga faqat o'zining har doim ovqat eydigan kosasini ko'rsatadi. Ikki yoshga ham qo'yganda esa u muomala qilish, tevarak-atrofdagi buyumlar bilan tanishish jarayonida bu savolga javoban turli gapdagi va kattalikdagi kosalarni ko'rsatadi. Kosalarni suratlar ichidan ham tanib oladi.

Bolaning nutqi ma'noli bo'lib boradi. Ilgari uning so'zlari faqat ehtiyojlarini ifodalagan bo'lsa, endi nutqning nom berish xizmati tobora kuchayib boradi. Bu bolaning "**Bu nima?**", "**Nomi nima?**" degan savollarida yorqin ko'zga tashlanadi.

Endi u sekin-astalik bilan imo-ishora orqali o'z istak hamda talablarini ifoda etadi. Katta yoshdagi kishilar talaffuz qilgan so'z va iboralarga taqlid qilib, ularni takrorlaydi, ashula, she'r, ertaklarni eshitib, undagi ayrim ohanglarni ko'yplashga, ayrim so'zlarni takrorlashga odatlanadi. Uning nutqi grammatik jihatdan ancha shakllanadi. U ba'zi bir olmoshlarni (**men**, **sen**, **biz**, **menga** kabi) qo'llay boshlaydi, ravishlarni (**u erda**, **bu erda**), sifatlarni (**katta**, **kichkina**, **yaxshi**, **yomon**, **shirin**) o'z o'mnida ishlatishga harakat qiladi. Ular ish-harakatlarni bildiruvchi fe'llarni ham to'g'ri qo'llay boshlaydilar. Nutqida bosh gap bilan ergash gapdan tuzilgan dastlabki qo'shma gaplar ham paydo bo'ladi. Bola tovushga taqlid qilishdan odatdagি so'zlarni ishlatishga o'tadi (soatni "chiq-chiq" deyish o'mniga soat deb, kuchukni "vov-vov" demasdan, kuchuk deb ishlatadi va hokazo). Bola o'ziga berilgan savollarga tushunib, javob qaytaradi, kattalarga ko'proq savollar beradigan bo'ladi. Kattalar bolani savollarga javob berishga o'rgatishlari zarur. Buning uchun bolaga savol berib, so'ngra o'zi shu savolga javob qaytarishi lozim. Masalan, "Alisher qayerga boradi? - Sayr qilgani boradi". Bola kattalarning javobini takrorlaydi. Keyinchalik esa bunday savollarga o'zi mustaqil javob bera oladigan bo'ladi.

Bola hayotining ikkinchi yoshi uning nutqini rivojlantirishning muhim davri hisoblanadi. Shuning uchun pedagogik jarayonning butun tizimida nutqni rivojlantirishga aloida ahamiyat beriladi. Bola nutqini rivojlantirishga ta'sir etishda kundalik tartib daqiqalaridan, mustaqil o'yinlardan, maxsus mashg'ulotlardan, narsa-buyumlar bilan

qilinadigan harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlardan foydalaniladi. Kattalar (hamshira-tarbiyachi) ikki yoshgacha bo'lган bolalar nutqini rivojlantirishda ular bilan so'zlashishni turlicha tashkil etishi kerak. Bola bilan so'zlashganda turli xil usullardan foydalaniladi. Masalan: 1) buyumning nomi aytildi (mana paypoqcha, mana shippak va hokazo); 2) nimanidir qaerdaligini ko'rsatishni so'raydi (ko'ylakning cho'ntagi qaerda? kuchukchaning quloqlari qani? mushukning dumi qani? va boshqalar); 3) buyumlarning sifatini tushuntiradi (katta ayiq, kichkina ayiq, shirin choy, issiq suv, sovutseuv); 4) "Bu kim?", -deb savol beradi, bolaga topshiriq Beradi (ko'rsat, olib kel, olib bor, top, sura va hokazo); 5) bolaga faol nutqni talab etuvchi topshiriqlar beriladi.

Bunday topshiriqlarni bergandan so'ng, albatta uning bajarilishini nazorat qilib turish kerak. Buning uchun "Sen aytdingmi?", "Sen so'radingmi?" "Sen bajardingmi?" degan savollardan foydalanish lozim.

Bizga ma'lumki, bolalarning mustaqil o'yinlari bilan nuqni rivojlantirish o'rtasida mustahkam bog'liqlik bor. Bolalar o'yininining takomillashishi bilan nutq ham takomillashadi. Mana shu jarayonda katta kishilar ishtirok etishlari va bolalar o'yinlariga rahbarlik qilishlari lozim. Bolalar o'yiniga rahbarlik qilganda savollar berish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu savolga bola so'z bilan javob beradi yoki harakatlarni bajarib ko'rsatadi. Bolalarning javoblariga qarab, kattalar kelgusi nutqiy muomala uchun yo'l tanlaydi.

Maishiy faoliyat-nutq o'stirshda muhim vosita bo'lib, tarbiyachining rahbarligida tashkil etiladi. Bu vositaning ustuvorligi shunda: tabiiyligi, suhbatda o'zlarini yengil his etadilar, mazmun-mantiqiylik real munosabatda bo'lish, so'zlashuv mavzusining hayotligi bilan ajralib turadi. Maishiy faolyati (ovqatlanish, kiyinish, hojatxona, gimnastika, sayr, uplashga tayyorgarlik va hokazo) bolalarda so'zlashuv nutqini rivojlantiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ilk yoshgacha bo'lган bolalar nutqi xususida gapiring.
2. Ilk yosh davri bolalar nutqi o'sish belgilarini aytинг.
3. Ikki yoshgacha bo'lган bolalar nutqi qanday xususiyatlarga ega?
4. Uch yoshdagи bolalarning nutqidagi o'zgarishlar haqida nima deya olasiz?
5. Suhbat (dialogik nutq) ni tashkil etish metodlarini tavsiflang.

4-Mavzu: Hikoya qilish ta'limi usullariga qo'yiladigan asosiy talablar

Reja:

1. Monologik nutq haqida.
2. Bolalar hikoyalari tavsifi.
3. Hikoya qilish ta'limining usullari.
4. Qayta hikoya qilish talimiga qo'yiladigan talablar.

Asosiy tayanch so'zlar:

Monologik nutq, bolalar hikoyalari, daliliy va ijodiy, aniq va syujetli hikoyalar, hikoya turlari, hikoya ta'limi usullari, qayta hikoya qilish.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma'ruza mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(.Monologik nutq haqida. Bolalar hikoyalari tavsifi.. Hikoya qilish ta'limining usullari. Qayta hikoya qilish talimiga qo'yiladigan talablar.maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. . .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyg'a vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o'rgatish. Bolalarni maktabga tayyorlashda monologik nutqni rivojlantirish juda muhimdir. Monologik nutq boladan o'z fikrini tushunarli va izchil bayon qilishni talab etadi, bunday nutq turini esa bola 5 - 6 yoshda egallay boshlaydi. Chunki bu yoshda mantiqiy tafakkur rivojlanan boshlaydi, bolada katta so'z boyligi to'planadi, tilning grammatik qurilishini egallab oladi. Nutqning monolog shakli bolalarga ko'rgan narsalari haqida batafsil va izchil so'zlab berishga, o'z fikrlarini to'g'ri tuzilgan jumlalar orqali bayon qilishga imkon beradi.

Bog'langan nutq (monologik nutq) bolada boshqalarning hikoyasini tinglashga va uni tushunishga, qisqa, o'zlariga tanish bo'lgan voqeani qayta hikoya qilib berishga, ertakda ishtirok etuvchi qahramonlarning gaplarini ifodali aytib bera olish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi (katta guruh) bolalar rasmda tasvirlangan narsalar, o'z hayotiga doir voqealar haqida oddiy hikoyalar tuzishga, ko'rgazmali qurolsiz, mustaqil tarzda hikoya to'qishga o'rgatiladi. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish ularning aqliy rivojlanishiga yordam beradi, fikr yuritish doirasi kengayadi, diqqat, tafakkur kabi psixologik jarayonlar rivojlanadi, nutqi ifodali bo'lib boradi, bolada o'zini tutish va jamoa oldida so'zlay olish malakasi hosil bo'ladi.

Monologik nutq murakkab psixologik jarayon bo'lib, u dialogik nutqdan farqlanadi. Bu farq monologik nutqning voqealar tavsioti holati va hikoya qilishni tinglash xususiyatini belgilaydi. Monologik nutq tinglovchidan qat'iy diqqat, nutq mazmunini qanday shaklda bayon etilayotganligini kuzatish talab qilinadi. Shuning uchun ham monologik nutq tasavvur va tafakkur mahsuli sifatida xarakterlanadi. Buning uchun so'zlovchidan tabiat, atrof-muhit va voqeiylik haqida mushohada yuritish, uni his qilish xususiyatlari shakllangan bo'lishi zarur. Demak, monologik nutqda xabar bo'lib o'tgan voqeiylik xususida ko'rganlarini bayon etish muhim o'rinni egallaydi. Bu jarayon asosan 5-6 yoshga to'lgan bolalar nutqida shakllanadi.

Hikoya qilish xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Daliliy hikoya qilish.
2. Ijodiy hikoya qilish.

Daliliy hikoya qilishda bolalar hayotida kuzatilgan, ular ishtirok etgan, bevosita shu voqeiylik ishtirokchisiga aylangan hikoyalar misol bo'la oladi. Daliliy hikoyalar namunalari quyidagilar:

1. O'simliklar haqidagi hikoyalar.

2. O'yinchoqlar haqidagi hikoyalar.

3. Bo'lib o'tgan voqealar haqidagi hikoyalar (Masalan, Archa bayrami, Tug'ilgan kun, Navro'z bayrami ...).

Ijodiy hikoya qilishda bolalarning o'zлari o'y-tasavvurlari, xayollari asosida tug'ilgan voqealarni bayon etishlari nazarda tutiladi. Bundan tashqari, mashg'ulot jarayonida o'rgangan ertak, hikoya va boshqa mavzulardagi bir-biriga bog'langan voqeiylik asosidagi monologik nutqlari misol bo'la oladi.

Hikoya qilishning yana bir turi qayta hikoyalashdir. Qayta hikoyalashda asosan badiiy adabiyotdan o'rgangan va eshitgan asarlarini tayyor nutq shakllarida (so'zda, gapda, ketma-ketlikda) ifoda etishidir. Bunda asosan ifodalilik, ohang, tezlik (temp) va ovoz hisobga olinadi.

Qayta hikoyalashda bolalar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Fikrlash, matnni to'liq tushinish.

2. Asarni to'liq yetkazish, mantiqiy bayonlikka erishish.

3. Ketma-ketlik.

4. Lug'atlardan to'g'ri foydalanish, muallif matnini to'liq ifodalash va matndagi murakkab so'zlarning ma'nodoshlaridan o'rinci foydalanish.

5. Ritmdan to'g'ri foydalanish, uzoq to'xtam (pauza)ga yo'1 qo'ymaslik.

6. Og'zaki hikoyalash nutq madaniyatiga va so'z ma'nolariga mantiqiy erishish.

Bu talablarning birortasini ham bajarmasdan qayta hikoyalash usuliga erishib bo'lmaydi.

Qayta hikoyalash ta'limi usullari rang-barangdir. Ular quyidagilardan iborat:

1. **Birgalikdagi qayta hikoyalash.** Bunda tarbiyachi va bolalar birgalikda asar voqeiyligini bayon etadilar. Asar bayoni tugagach, tarbiyachi: - "Barakalla, bu asarni birgalikda hikoya qildik. Endi sizlarga bayon etish oson. Qani, aytganlarimizni kim takrorlay oladi?" - deya so'raydi.

2. **Alovida qayta hikoya qilish.** Bu hikoya qilish usuli bolaga murakkablik hosil qilsa-da, tarbiyachi o'zining replikasi bilan yordamlashadi va ayrim voqeiylik qismlarini bayon etishda, takrorlashlarga olib keladi.

3. **Biror so'z yoki frazani tarbiyachi tomonida aytish orqali qayta hikoyalash.** Bunda tarbiyachi mustaqil bayon etayotgan bolaga

qiynalib qolganda, yoki biror voqeani esdan chiqarganda: " **Davom etchi, eslading-mi**" deya so'z yoki fraza keltiradi.

4. **Ta'limning keng tarqalgan usuli - savol berish usulidir.** Bunda tarbiyachi mashg'ulotning kirish qismida yoki qayta hikoyalashning o'rta qismida ham bolaga to'g'ridan to'g'ri mavzu doirasida savol bilan murojaat qiladi. Bunday savollar tarbiyachining mahoratiga bog'liq bo'lib, bolaning qayta hikoyalashdagi nutqini o'stirishga xizmat qilmog'i lozim.

Bolalar bog'chasi dasturida ushbu vositalarga keng o'ren berilgan.

Nutq o'stirish usuliyoti va usullari. Ta'lim usuliyoti - har bir usulning aniq ishlangan usullar majmuasidir. Ular bolalarda bolalar qobiliyati va tajribalarini o'stirishga xizmat qiladi, tarbiyachining bu sohada qo'yilgan qulay vositalaridir.

Ona tilidan nutq o'stirish usullarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Ko'rgazmali usullar: mashg'ulot jarayonida tarbiyachi turli vositalardan foydalanadi, predmetni ko'rsatish, sayrga olib chiqish, tabiiy predmetlarini ko'rsatish. Bular tarbiyachi tomonidan ijodiy vositalarda: rasmlar, suratlar, kinofilm va diofilmlar asosida amalgam shiriladi. Shu asosda bilim, bog'lanishli nutq shakllantiriladi.

So'zlashuv usuli. Bu usuldan bog'chada keng foydalaniladi, chunki badiiy adabiyotni o'rganishda qo'llanib, mактабда ko'p qo'llaniladi. Tarbiyachi badiiy asarni o'qishda, dastur asosida o'tkazadi. Yana murakkab usul - she'r yodlatish, qayta hikoya qilishga o'rgatishdir. Bu usul katta va taylorlov guruhlarda qo'llaniladi.

So'zlashuv (dialogik) nutqni shakllantirish. Bolalarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so'zlashish bolalarning kundalik faoliyatları va turli voqeа-hodisalarни kuzatish natijasida hosil bo'lgan tushunchalarni aniqilash va uni bir tizimga solishda eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. **Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish - bu boshqalarning nutqini tinglash va tushuntirish, so'zlashni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish).** Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darjasini uning boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liq. Bolani so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog'liqdir. Masalan, suhbatdosh bilan so'zlashayotgan vaqtida o'zining va suhbatdoshining nutqiga doimo

e'tiborli bo'lismish, suhbatdoshining nutqini aslo bo'lmaslik, savollarga odob bilan qo'l ko'tarib, ruxsat olish, javob berish.

"Ha" yoki "yo'q" deb qisqa javob bermay, balki shoshmay, o'ylab, so'ng to'liq, to'g'ri javob qaytarishga odatlantirish lozim. So'zlashganda o'rtacha ovozda fikrni tushunarli qilib bayon etish, nutqning yoqimli bo'lismiga e'tibor berish, shuningdek, gapirayotgan vaqtda yerga, tevarak-atrofga qaramay, balki o'rtoqlariga qarab, ikki qo'lini yonga tushirib, erkin, samimiylashtirishga o'rgatishi va buni har mashg'ulotda bolalardan talab qilib borish zarur.

Bundan tashqari qayta hikoya qilishning topshiriq, ko'rsatmalilik, matnni kengaytirish, qismlarga bo'lismish, rollarga bo'lismish, sahnalashtirish kabi usullari ham mavjudki, bu usullarning barchasi bolalarda qayta hikoya qilishni rivojlantirish uchun muhim o'rin egallaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Monologik nutq bog'chada qanday mazmun kasb etadi?
2. Monologik nutqni shakllantirishning metodik omillari haqida gapiring.
3. Hikoya qilish turlari necha xil bo'ladi?
4. Daliliy va ijodiy hikoya qilish haqida gapiring.
5. Qayta hikoyalash ta'llimi usuli haqida nimalar bilasiz?
6. Qayta hikoya qilishning usullari haqida gapirib bering.

Mavzu: Lug'at o'stirish usuliyoti

Reja:

1. Lug'at o'stirishga qo'yiladigan talablar.
2. Lug'at ishning mazmuni va vazifalari.
3. Lug'at ustida ishslash usullari.
4. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'at ishi.

Asosiy tayanch so'zlar:

Lug'atga munosabat, lug'atni belgilash va mustahkamlash, faol lug'at, passiv lug'at, lug'atni tushuntirish, ko'rgazmalilik, tevarak-atrof bilan munosabat, lug'atni faollashtirish va mustahkamlash mashg'ulotlari.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Lug'ato'stirishgao'yiladigan talablar Lug'at ishning mazmuni va vazifalari.Lug'at ustida ishslash usullari.Tevarak-atrofbilan tanishtirish va lug'at ishi). maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Bog'chada lug'at ishi rejali, bolalardagi faol so'zlarni kengaytirish maqsadiga qaratilmog'i lozim. So'z - asosiy lug'aviy birlik bo'lib, u fikr va tushunchani yuzaga keltiradi. Har bir so'zda mazmun, mantiq, so'z tovushi tizimi va morfologik qurilishi bo'lishi lozim. Bu uch tavsif orqali bolalarda lug'at ishi o'rgatiladi. Bolalar lug'at doirasidagi so'zlarni asosan ikki qismga bo'lib, o'rganishi mumkin:

1. Faol so'zlar.
2. Passiv (nofaol) so'zlar.

Faol so'zlar - bolalarning kundalik hayotida, nutqida foydalilaniladigan so'zlardir. Tarbiyachining asosiy vazifasi ana shu faol so'zlar doirasini kengaytirib borish, rivojlantirishdan iboratdir.

Passiv (nofaol) so'zlar - bolalar tushunadigan, biroq o'zaro muloqotda kam qo'llaydigan yoki qo'llashda qiynaladigan so'zlar majmui anglashiladi.

Lug'at ishining quyidagi mazmun va vazifalari bor:

1. Bolalarni lug'at bilan munosabat qilishga o'rgatish. Bundagi vazifa va talablardan asosiysi bo'lib, bolalar nutqidagi so'zlarni boyitish, tilimizdagi yangi ma'noli so'zlarga havas uyg'otish tushuniladi. Yangi ma'noli lug'at o'rgatish tarbiyachi tomonidan xususan aniq ma'noli so'zlardan iborat bo'lishiga qaratilmog'i lozim. Qaysiki, bunday aniq ma'noli so'zlar bolalar tasavvuridagi so'zlar bo'lib, ular eshitish, talaffuz qilish hamda ko'rishga mo'ljalangan bo'lishi darkor. Faqat 6-7 yoshli bolalargina mavhum otlar o'rgatish talab etiladi.

2. Bolalarga aniq lug'atni tanishtirsh va mustahkamlash. Bolalar har bir yangi lug'atga qiziquvchan bo'ladilar. Shuning uchun ham tarbiyachi o'rgatayotgan yangi ma'noli lug'atni mashg'ulot jarayonida alohida urg'u bilan talaffuz etishi, ularga bu so'z xususida havas uyg'ota olishi lozim. Ikkinchi muhim ish esa bu lug'atni bolalar nutqiga olib kirish va mustahkamlash maqsadi yotadi. Mustahkamlashning o'ziga xos yo'llari mavjud bo'lib so'zning, avvalo, lug'aviy ma'nosi tushuntirilib, uning fonetik, orfoepik va boshqa morfologik xususiyatlari izohlanadi.

3. Lug'atni faollashtirish.

Yangi o'rganilgan nutqni faollashtirish usullari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Yangi so'zni qo'llash maqsadi.
2. So'z tushunchasi, sifati, o'zligi va boshqa so'zlar bilan munosabati.

3. Boshqa so'zlar bilan talaffuziga ko'ra o'xshatish, tahlil qilish.

Bolalar bog'chasida lug'at ishi - bu bolalarning faol lug'atini ularga notanish yoki qiyin so'zlar hisobiga rejali kengaytirishdir. Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning lug'atini kengaytirish bir vaqtning o'zida tevarak-atrofdagi voqelik bilan tanishtirish va unga to'g'ri munosabatda bo'lishni tarbiyalash bilan qo'shib olib boriladi.

Biz o'z fikrlarimizni gap orqali ifodalaymiz. Gap so'zlardan tuziladi. So'z esa tilning qurilish materialidir. Shuning uchun ham so'zni bilmay turib, tilni bilish mumkin emas. Nutqimizda ishlataladigan so'zlarning hammasi tilimizning lug'at boyligini, ya'ni leksikasini tashkil etadi. Leksika so'zi yunoncha "leksis" so'zidan olingan bo'lib, u so'z degan ma'noni bildiradi.

Har bir so'zda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: 1) uning ahamiyati yoki ma'nosi; 2) so'zning tovush tarkibi; 3) uning morfologik tuzilishi. Bolalar bilan lug'at ishini tashkil etganda so'zning mana shu uchta tomoniga e'tibor berish kerak.

Bolalar bog'chasida ishining aniq, vazifalari bolalarni predmetlarning qismlarini, gaplarini, hajmini farqdashga o'rgatishdan iborat. Shu asosda gavda qismlarini (**bosh, qo'llar, oyoqlar, burun, ko'zlar** va hokazo), hajmni (**katta, kichik**) va gaplarni (**qizil, sariq, ko'k, yashil**) bildiruvchi so'zlar bolaning lug'atiga kiritiladi.

Ikki yoshning oxirida o'xshash predmetlarni, narsa-buyumlarni (masalan, mushukni uning gavdasi, kattaligidan qatiy nazar tanish) bitta so'z bilan aytishga, bir guruhdagi buyumlarni boshqa guruhdagi buyumlardan gavda, kattaligidan qatiy nazar (koptokni shardan piyolani stakandan va hokazo) farqlashga o'rgatiladi. Uch yoshdan boshlab bola lug'ati kattalar va o'zi shaxsan munosabatda bo'ladigan uy-ro'zgor buyumlari nomini, ko'chada, bog'da, xiyobonda va boshqa joylarda (transport vositalari, qurilishlar, o'simliklar, hayvonlar va hokazo) ko'rghan predmetlar nomini. bildiruvchi so'zlar bilan boyiydi.

Bola o'zi munosabatda bo'ladigan buyumlarning qismini (dasta, choynakning qopqog'i keng, cho'ntak, tugmalar, tugma teshigi, yoqa va hokazolarni), shaklini (shar, kubik, aylana), meva-sabzavotlarning mazasini (shirin, nordon, mazali, bemaza, achchiq), kunning qismlarini (ertalab, kunduzi, kechqurun) bildiruvchi so'zlar hisobiga lug'at boyligi kengayadi.

To'rt yoshli bolalar hamma buyumlarni, jihozlar nomini aniq, aytadilar. Bulardan tashqari: 1) buyumlarning hajmini, detallarining

katta-kichikligini farqlashni bildiruvchi (**kattaroq**, **katta**, **kichkina**, **kichkinaroq**, **keng**, **kengroq**, **uzun**, **uzunroq**, **yo'g'on**, **ingichka kabi**); 2) buyumlarning joylashish o'rnini (**o'ngda**, **chapda**, **o'rtasida**, **orqasida**, **yaqinida**, **yonida**), kun qismlarini va ularning belgilarini (**ertalab**, **kechqurun**, **kechasi**, **sahar**, **shom**, **xufton**, **qorong'i**, **yorug' kabi**); 3) buyumlarning fizik sifatlarini (**yumshoq**, **qattiq issiq**, **sovuj**, **silliq**, **tip-tiniq,, g'adir-budur**, **yaltiroq** va hokazolar), xususiyatlarini (**eriydi**, **iviydi**, **yirtiladi** kabi) bildiruvchi so'zlar ham ular lug'atini boyitadi.

Bolalar lug'atini boyitish deganda biz ularni mustaqil o'zlashtirishlari uchun qiyin bo'lgan yangi so'zlar bilan muntazam tanishtirib borishni tushunamiz.

Bolalar lug'atini boyitish ishi uch yo'naliшda olib borilishi mumkin:

1. Sekin-astalik bilan miqdori ortib boradigan buyumlar va hodisalar bilan tanishtirib borish.
2. Tevarak-atrofimizni o'rab turgan predmetlar va hodisalarning nomini, sifatini, xususiyatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini bildiruvchi so'zlarni kiritish.
3. Predmetlarning belgilariga qarab farqlash va umumlashtirish asosida boshlangich tushunchalarni bildiruvchi so'zlarni kiritish.

Lug'atni boyitish ishining uch yo'naliшhi bo'yicha olib boriladigan ish hamma guruhlar uchun taalluqli bo'lib, faqat mazmun jihatdan farq qiladi. Masalan, tabiat hodisalari, buyumlar, ijtimoiy hayot hodisalari va hokazolar bilan tanishtirishda ish mazmunining oddiydan murakkabga borishi bilan turli guruhlardan o'zaro farq qiladi.

Ikki yoshli bolalar bog'chada, uyda munosabatda bo'ladigan buyumlarning, kiyim-kechaklar, mebellar, idish-tovoqlar, o'yinchoqdar va hokazolarning nomlarini bilib oladilar. Endi ular maishiy-xo'jalik va o'yin faoliyatlarida foydalaniladigan ayrim buyumlar va ular bilan bajariladigan harakatlarning nomlarini bilib olishlari kerak.

Bu yoshda ularning narsa-buyumlar to'g'risidagi bilimlari chuqurlashib va mustahkamlanib boradi, endi ular o'xshash buyumlarni belgilariga qarab farqlashga o'rgatiladi va buning natijasida ular lug'ati kursi, kreslo, divan, stol, xontaxta, tuqli, botinka, kovush, shippak, maxsi, kalish, etik, ro'mol, do'ppi, qalpoq, telpak, yaktak, chopon, chakmon, lozim, shalvar, shim, stakan, piyola kabi qator so'zlar hisobiga boyiydi.

Besh yoshli bolalarning faol lug'atiga ular hayotida duch keladigan hamma buyumlarning nomlarini, ularning qismlarini, sifat va xususiyatlarini, fazoviy o'rnini va vaqt munosabatlarini bildiruvchi so'zlar kiritiladi. Shuningdek, bu yoshda ularning lug'atiga maishiy-xo'jalik tushunchalarini bildiruvchi so'zlar (sabzavotlar, mevalar, kiyimlar, o'yinchoqlar, idishlar, oyoq kiyimlari va hokazolar) kiritiladi.

Olti yoshli bolalarning faol lug'atiga buyumlarning muhim belgilarini (metal, plastmassa, mato, shisha, chinni), sifat va xususiyatlarini (och, qizil, tiniq, yashil, nordonroq, sariqroq, yengil, sovuqroq, issiqroq, issiq, iliq, iliqroq; pishiq, pishiqlroq, pishiq emas; iviydi, sekin iviydi va hokazo) va boshqa tushunchalarni bildiruvchi so'zlar kiritiladi.

Yetti yoshli bolalar lug'atiga esa buyumlarning va materiallarning eng muhim belgilarini bildiruvchi so'zlar kiritiladi (nordon - shirin, achchiq – sho'r, yashilroq - sariq; mato, tufli, yengil, qalin va hokazo). Bunda farqlashni bildirish uchun zarur bo'lgan so'zlarni kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'zlari qaysi so'z to'g'ri, aniq, ekanligini tanlay olmaydilar, balki eshitayotgan so'zlariga taqlid qiladilar. Shuning uchun tarbiyachining nutqi bolalar uchun namuna bo'lishi, u o'z lug'atini boyitish ustida ishlashi kerak. U ona tilining lug'at tarkibini yaxshi o'rganishi shart. Shunday qilib, lug'atini boyitish ishi va uning mazmunini, bolalarning buyumlar to'g'risidagi bilimlarini muntazam ravishda kengaytirishga, umumlashtirishga va chuqurlashtirishga intilishi zarur. Bola lug'atidagi so'zlar miqdori bola tasavvuri bilan mos kelishi kerak. Agar bola tasavvuri rivojlanib, lug'at boyligi sekin o'ssa, u vaqtida bola o'z fikrini boshqalarga bildirishda qiynaladi, nutqi juda kambag'al, tushunarsiz bo'ladi. Agar aksincha bo'lsa, u vaqtida bola so'z ma'nosiga tushunmay, ko'p gapiradigan "vaysaq" bo'lib qoladi. Bola lug'atiga muomaladan chiqarilgan va mahalliy shevaga oid so'zlarni kiritish yaramaydi. Bolalarning bir-birlari va kattalar bilan muloqotda bo'lishlari hamda o'z fikrlarini erkin, tushunarli bayon qilishlari uchun asosiy manbalardan biri bolalar badiiy adabiyotidir. Bolalar kattalarning o'qib berishi, hikoya qilishlari orqali badiiy asarlarni idrok etadilar va shu asosda lug'atlari boyib boradi.

Bolalar lug'atidagi so'zlarni mustahkamlashga tarbiyachi alohida e'tibor berishi zarur. Bu vazifa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda

amalga oshiriladi. Bog'cha yoshidagi bola lug'atida so'zlarning mustahkam o'mashishi uchun uni ko'p marta takrorlash zarur.

Bola xotirasida qiyinlik bilan mustahkamlanadigan murakkab so'zlarga quyidagilar kiradi: 1) umumlashtiruvchi so'zlar: uy hayvonlari (ot, sigir, qo'y, echki, eshak); mebel (stul, stol, divan, xontaxta, javon); oyoq kiyimlari (tufli, botinka, shippak, kalish), idish-tovoqlar (likopcha, kosa, piyola) va hokazolar; 2) mavhum so'zlar (jimjitlik, tozalik, go'zallik); 3) sifatlarni bildiruvchi so'zlar (g'adir-budur, tip-tiniq, nordon, temirdek) va hokazolar.

Bolalar lug'atida umumiyl tushunchalarni bildiruvchi so'zlar mavjud bo'lib, ulardan xato foydalanadilar, ya'ni ushbu so'zlarning ma'nosi chegaralangan holda tushuniladi. Buning natijasida bolalar bilan tarbiyachi o'rtasida tushunmovchiliklar vujudga keladi va bolalar tarbiyachining so'zlarini anglab yetmaydilar. Shuning uchun tarbiyachining asosiy vazifasi bolalar yoshiga mos so'zlar tanlab, ularning ma'nosini tushuntirishi, narsa-buyumlar va hodisalarining nomlarini to'g'ri aytishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, tarbiyachi qaysi turdag'i mashg'ulotni o'tmasin, qaysi faoliyatini tashkil etmasin, albatta yangi, bolalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan so'zlarni bolalar lug'atida mustahkamlashi va ularning ma'nosini alohida tushuntirishi shart.

Bolalar lug'atini faollashtirish - bu bolalar tomonidan ma'nosini aniq, tushungan holda foydalaniladigan so'zlar miqdorining ortib borishidir.

Turli-tuman faoliyati turlarida (mashg'ulotda, o'yin, mehnat, maishiy faoliyati va kundalik tartib jarayonida) bolalarni o'z lug'at boyligidan foydalanishga o'rgatish ular nutqini o'stirishning zarur shartidir, chunki tilni undan foydalanish jarayonidagina egallah mumkin. Bolalarning kattalar bilan nutqiy muloqoti ular lug'atini faollashtirishda qimmatli vosita bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, topshiriqlar berish, ya'ni uslubiyot xonasiga borib, katta tarbiyachidan didaktik (ta'limiy) o'yinchoq yoki sayr haqida enagaga so'zlab berish; Nomi nima? Gapda qanday? Qanday materialdan qilingan? Nima uchun kerak? kabi savollar berish; bolalarga ma'lum bo'lgan so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri aytib, esiga tushirish, o'xshashlik bo'yicha (buyumlarning vazifasiga qarab) yangi so'z yasash (qand uchun qanddon, sut uchun sut idish); ob'ekt uchun xos bo'lgan sifat va

fe'llarni tanlash kabi usullardan foydalanib, bolalar lug'atini faollashtirish mumkin.

Bolalar lug'atidagi mahalliy shevaga oid so'zlarni adabiy so'zlar bilan almashtirish. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan nutqimizda ishlataladigan so'zlarga e'tibor yanada kuchaydi. Bolalar lug'atida mahalliy shevaga oid so'zlarga e'tibor bermaslik kelgusida maktabda ta'lif olish jarayoniga, kishilar bilan muloqotda bo'lishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, maktabda olib borilgan kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar nutqidagi orfografik xatolar: a) mahalliy sheva ta'sirida; b) bola qanday gapirsa, shunday yozishidan kelib chiqadigan xatolardir. Mahalliy shevaga oid so'zlearning ko'p ishlatalishi kelgusida maktabda bolalar savodxonligini oshirishga xalal beradi. Bola lug'atining shevaga oid so'zlar hisobiga boyib borishida ota-onalarning, atrofdagi kishilarning, bolalar bog'chasida esa tarbiyachining, bog'cha xodimlarining ta'siri katta. Chunki bolalar atrofdagilardan eshitgan har qanday so'zlarni o'zlashtirib borishadi, natijada bu so'zlar bola lug'atining mahsuliga aylanadi. Shuning uchun tarbiyachi ota-onalar bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkazib, ularga iloji boricha adabiy tilda gaplashishlarini, bolani ham sof adabiy tilda so'zlashga o'rgatishlari lozimligini uqtirishi zarur.

Avvalo tarbiyachi-pedagogning o'zi bolalar bilan sof adabiy til qoidalariga rioya qilib so'zlashishi lozim. Buning uchun o'zbek tili lug'atini muntazam tarzda o'rganib borishi, adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda gapirishi, o'qib berishi yoki hikoya qilib, buyumlar, jonli va jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati, ijtimoiy hayot hodisalari va hokazolar uchun lug'atchalar tuzishi kerak.

Bola lug'atidagi mahalliy shevaga oid so'zlarni adabiy so'zlar bilan almashtirish uchun turli usullardan foydalaniladi. Chunonchi: 1) mahalliy shevaga oid so'zlarni adabiy so'z bilan almashtirish mumkin bo'lsa avval xor bo'lib takrorlatish, so'ng esa har bir boladan qayta aytishni talab etish; 2) nomi buzib aytilgan (zochak – qo'g'rchoq, barra – qo'y va hokazolar) narsa-buyumning rasmini yoki o'yinchoqlarni buyumlar ichidan topishni buyurish; 3) shu narsa-buyumning rasmini solib, uning nomini takror aytirish.

Ta'liming muhim uslublaridan biri bu kuzatishdir. Kuzatish o'ziga xos bir faoliyati bo'lib, u bolani borliq hayot bilan yaqindan tanishtiradi. Bola, odatda, eshitganlariga nisbatan ko'rgan va

kuzatganlarini og'zaki va yodida saqlaydi, ulardan ta'sirlanadi, estetik zavq oladi. Turli-tuman gaplarga boy, go'zal va xushmanzara tabiat bola didi, so'z boyligi, nuqini o'stirish manbaidir. Bolani atrofdagi go'zallikni ko'ra bilishga, gaplarni idrok eta olishga, tovushlar ohangini tinglay bilishga, xushbo'y hidlarni payqay olishga o'rgatish orqali uning fikr doirasi o'stiriladi, nutqi rivojlantiriladi. Bolada tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini so'z bilan ifodalash xususiyatlarini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bola tevarak-atrof va ijtimoiy hayot hodisalarini, kishilar mehnatini kuzatar ekan, ularni ifoda etish uchun yangi-yangi so'z va iboralarni o'rgana boshlaydi. Eng muhimi, bola o'zi yashab turgan joydagi o'simlik, hayvon, ijtimoiy hayot, buyumlar bilan yaqindan tanishadi.. Bolalarni yangi ob'ekt bilan tanishtirishning asosiy maqsadi shu ob'ektdagi yangilikni bilib olishga, uning belgilari, xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishga hamda atrof-muhit bilan aniqlashga yordam berishdan iboratdir. Kuzatish jarayonida turli analizatorlar (ko'rvu, eshituv, ta'm bilish, teri) faollashadi, bolalarning ayrim sezgilarini so'z bilan (achchiq, taxir, issiq, sovuq, gadir-budur, silliq, qizil, sariq, ko'k va hokazo) ifodalanadi.

Idrok bolaning tafakkur faoliyati bilan bog'liqdir: ya'ni ob'ekt haqida fikr vujudga keladi, muhim belgilari sanab o'tiladi, ob'ekt boshqa ob'ekt bilan taqqoslanadi. Kuzatish jarayoni tarbiyachining va bolalarning nutqiy muloqotlari asosida olib boriladi, idrok qilinayotgan muhim tomonlari esa so'z bilan ifodalanadi.

Bolalar bog'chasining eng muhim vazifasi:

- bolalarda kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stirish; amaliy tajribalarni orttirish;
- nutq ko'nikmalarini hosil qilish uchun o'z his-tuyg'ularidan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarda kuzatuvchanlik qobiliyati ularni tevarak-atrofdagi olam bilan tashkiliy tarzda tanishtirish yo'li bilan o'stiriladi. Bolalarning bilim doirasini kengaytirish, nutqini o'stirish va lug'at ustida ishlashida tevarak-atrofdan foydalanishning ikki usuli mavjud.

Buyumlarni o'rganiladigan material sifatida bolalarga yaqinroqdan ko'rsatish. Bolalarga turmushda ishlataladigan buyumlar, idish tovoqlar, kiyim-kechak, poyafzal, o'yinchoqlar, tabiatdan gullar, novdalar, mevalar, sabzavotlar, ob'ektlar, uy hayvonlari va parandalar, qushlar, baliqlar va boshqalar kiradi. Bunday kuzatish bolalar bog'chasining o'zida o'tkaziladi. **Bolalarni ob'ektga yoki buyumga yaqinlashtirish.**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish eng yaqin joydan, ya'ni guruh, xonalari (uyqu xonasi, yuvinish xonasi va hokazolar), ulardagi buyumlar, o'yinchoqlar, tabiat burchagi, guruh maydonchasi va hokazolar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bunday kuzatishlar ma'lum bir maqsadni, ya'ni o'z guruh, xonasi, undagi jihozlar va buyumlar, bog'cha binosi, undagi xonalarning, guruh maydonchalarining joylashishi haqidagi, tevarak-atrofdagi buyumlar, bog'chadagi xizmatchilarning mehnati haqidagi bolalarning bilimlarini aniqlash va kengaytirish, lug'atini boyitish va faollashtirishdan iboratdir. Bunday kuzatish, ko'zdan kechirish mashg'ulotlari bog'chaning hamma guruhdarida o'tkaziladi. Tarbiyachi kuzatish mashg'ulotini o'tkazishga tayyorlanar ekan, u tevarak-atrof bilan va ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirish bo'yicha bitta ma'lumot o'tkazishga tayyorlanar ekan, u mashg'ulot uchun zarur bo'lgan ma'lumot hajmini, shuningdek, kuzatish jarayonida bolalarning bilishlar va o'zlashtirishlari lozim bo'lgan so'zlarni tanlaydi. Mashg'ulotning rejasini tuzishda kuzatish jarayonida foydalilaniladigan, bolalar uchun yangi va qiyin bo'lgan so'zlarni belgilab qo'yadi. Masalan: Kichik guruhda guruh xonasi, yechinish xonasi va hokazolar bilan tanishtirilganda bolalarga shkaf tokchasi, o'ngda, chapda, ilmoq, oyoq kiyimi, ust kiyimi ilinadi, yechiladi va hokazo so'zlar aytiladi, faollashtiriladi, mustahkamlanadi. Shuningdek, o'z guruh xonalari bog'cha binosining qaerida joylashganligini bilib olishga o'rجاللشادی.

Shu tarzda bog'cha yer maydoni, undagi barcha binolar: oshxona, kirxona, hamshira, mudira xonasi va musiqa xonalari, gulzor, bog' va boshqalar tanishtirilib, kuzatishlar tashkil etiladi. Kuzatish ob'ekti va uning mazmuni kichik guruhdan katta guruhga o'tganda murakkablashib boradi.

Bolalar bilan tashkil etiladigan bunday kuzatish mashg'ulotlari bolalarning bilim doirasini kengaytirish va lug'atini boyitish bilan birga, ularda yuksak axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

Kuzatish mashg'ulotlarining boshlanishi muhim bosqich bo'lib, butun mashg'ulot jarayoniga ko'p tomondan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bolalarda kuzatiladigan buyumga qiziqish uyg'otish maqsadida mashg'ulotni qiziqarli qilib tashkil etish kerak. Buning uchun turli usullardan foydalilaniladi. Mashg'ulotni muqaddima suhbatidan, ya'ni mavzu mazmuniga taalluqli bo'lgan bir qancha savollar berishdan boshlash mumkin. Masalan: katta guruhda qishki kiyimlarni ko'zdan

kechirishdan avval mashg'ulotni savollar bilan boshlash mumkin. Mashg'ulotni mavzu mazmuniga doir topishmoq aytish bilan ham boshlash mumkin.

Kichik guruhdagi mashg'ulotlarda to'g'ridan-to'g'ri kuzatish mashg'ulotining mavzusiga taalluqli buyumni ko'rsatish usulidan foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarga ovoz tonini biroz balandlab, sho'x ovozda, intonatsiya bilan: "Men sizlarga bir narsa olib keldim! Siz uni ko'rishni istaysizmi?" deb aytadi. Ushbu guruhlarda kuzatish jarayonida o'yin usullaridan keng foydalaniladi. Ularga maydon bo'y lab yugurishga ruxsat etiladi ("Qanday uzun yo'lak!"). Mashg'ulotning boshida tarbiyachi bolalarga ko'rsatmalar beradi (tinch qulq solib o'tiring; kirishingiz bilan salom bering; shovqun qilmang va hokazo). Mashg'ulotning boshlanish qismi (ko'rsatmalar berish, kirish suhbat va hokazolar) bolalarning yoshiga qarab har xil davom etadi: kichik guruhdarda bir daqiqa, katta guruhdarda esa besh-etti daqiqa.

Tarbiyachi buyumni, hayvonni, o'simlik va boshqalarni ko'zdan kechirish vaqtida bolalarga kuzatilayotgan ob'ektni yaxshilab ko'rib olishlari, bir-birlari bilan fikrashib olishlari uchun bir necha daqiqa vaqt beradi. So'ngra kuzatishga rahbarlik qila boshlaydi, ya'ni kuzatilayotgan ob'ekt bo'yicha savollar bera boshlaydi. Bu nima? Bu kim? U qanday? Nimadan yasalgan? Nima uchun kerak? Qanday? Qancha? va hokazo. Agar ob'ekt bolalarga ilk bor tanishtirilayotgan bo'lsa, savolga javob berishda qiynalishsa, u vaqtida kuzatish ob'ektining nomini, uning sifatini yoki xususiyatlarini bildiruvchi so'zni aytib berish usulidan foydalanadi. So'z bolalar idrokini o'stiradi, buyumlar va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi. Masalan, choy idishlarini ko'zdan kechirish vaqtida tarbiyachi shunday izoh beradi: "Bu qulqoli piyola (chashka), uning dastasi o'ng tomonda, tagi dumaloq, bu dumaloq chiziqcha qulqoli piyolani likopcha ichiga qo'yish uchun qilingan, qulqoli piyolani likopchadagi dumaloq chiziqcha ichiga sekingina, taqillatmasdan qo'yish kerak". Ko'zatish vaqtida tarbiyachi buyumning vazifasini, uni kim tayyorlaganligini, u bilan qanday munosabatda bo'lishni bolalar bilan birgalikda aniqlaydi. Agar jonli ob'ekt kuzatilayotgan bo'lsa, tarbiyachi bolalarga uni nima bilan ovqatlantirish, qanday parvarish qilish kerakligi hamda ularga nisbatan g'amxo'rlik qilish lozimligini tushuntiradi. Kuzatish mashg'ulotini mavzu va uning mazmuniga mos she'r aytib berish, topishmoq, aytish, qiyin so'zlarni mustahkamlovchi ta'limiy (didaktik) o'yinlar o'tkazish bilan yakunlaydi.

Kuzatish natijalari doimo mustahkamlanib borish shart. Kuzatish jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlovchi mashg'ulotlar uch-to'rt kundan keyin o'tkazilishi mumkin. Masalan, katta guruhdagi mashg'ulotda bolalar meva-sabzavotlarni ko'zdan kechiradilar. Uch-to'rt kundan keyin esa "**Qaerda o'sishini ayt**" degan ta'limiyl o'yin o'tkaziladi. Bundan tashqari, ushbu guruhlarda suhbatlar uyushtirishda, maydonchada, gulzorda, bog'da va hokazolarda mehnatni tashkil etishda, qush va hayvonlarni parvarish qilishda, kitob o'qib berish, diafilmlar ko'rish, illyustratsiyalarni ko'rib chiqish va boshqa faoliyati turlarida mustahkamlanib boriladi.

Bolalarni buyumlar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomi, nima uchun kerakligi, nimadan qilinganligi, u qanday shakldagi va uning yana qanday belgilari borligi aniqlanadi, bo'lar haqida boshlang'ich bilimlar beriladi. Shu maqsadda buyumlarni (predmetlarni) ko'rib chiqish va u haqda suhbat mashg'ulotini o'tkazish tavsiya etiladi. Yil davomida bunday mashg'ulotdan bir nechta rejallashtirilib o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlarda uy-ro'zg'or buyumlari (idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mehnat qurollari o'quv qurollari), jonli tabiat ob'ektlari (turli xildagi meva va sabzavotlar, turli daraxtlarning barglari va shoxchalari, uy o'simliklari, akvariumdagi baliq va hokazolar) ko'rib chiqiladi va ular haqida suhbatlar o'tkaziladi. Buyumlarni (predmetlarni) ko'rib chiqish va ular haqida suhbatlar bolalarning bilim doirasini kengaytiradi, ularning qiziquvchanligini oshiradi, tevarak-atrof haqida to'g'ri tushunchalar beradi. Shu bilan bir qatorda tarbiyachi bunday mashg'ulot jarayonida katta lug'at ishini olib boradi. Buyumlarning aniq, nomlari va ularning sifatlari (materiali, shakli, hajmi, gapi va hokazolar), harakatlarning nomlari (masalan, pichoq bilan kesadilar, archadilar, to'g'raydilar, qoshiq, bilan ovqat yeydilar, salom bilan boshlaydilar va hokazo) va boshqalarni bildiruvchi so'zlarni bilib oladilar, narsa-buyumlarni ko'rib chiqish va u haqida suhbat mashg'ulotlarida bir toifaga (kategoriyadagi) kiradigan buyumlarni ko'rgazmali taqqoslash usulidan foydalanish katta pedagogik qimmatga egadir. Bolalar buyumlarni bir-biri bilan taqqoslash orqali ularning belgilarni aytib, harakatli belgilarini payqab, katta aqliy ish bajaradilar. Buyumlarni taqqoslash jarayonida bolalar oldida kuzatgan narsalarining nomini aytib berish vazifasi turadi. Taqqoslash bolalarning tafakkurini, kuzatuvchanligini rivojlantiradi, lug'atini faollashtiradi, tevarak-atrofga va ijtimoiy hayat hodisalariga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalaydi. Buyumlarning sifatlari va

xususiyatlarini chuqur bilib olishga asoslangan taqqoslash mashg'ulotlari o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida o'tkaziladi. Sababi shundaki, bu mashg'ulot turi bolalarda buyumlarning (predmetlarning) qismlarini, detallarini, sifat va xususiyatlarini ko'ra olish malakasining shakllanganligiga tayanadi.

Narsa-buyumlarni ko'rib chiqish va ularni taqqoslash mashg'ulotlarining muvaffaqiyati va natijalari bir qancha shart-sharoitlarga bog'liqdir: taqqoslash uchun buyumlarni (predmetlarni) tanlash. Tanlangan buyumlarda taqqoslash uchun yetarli miqdordagi belgilar bo'lishi: ya'ni o'xhash va farq qiladigan (shakli, uzunligi, qismlari, materiali, nimaga mo'ljallanganligi va hokazolar) belgilar bo'lishi kerak; taqqoslashning reja asosida bo'lishi. Tarbiyachi bolalarni buyumlarni taqqoslashda avval buyumlarning nomi, ularning nimaga mo'ljallanganligi, shakli, uzunligi bo'yicha taqqoslashdan, buyumlarning qismlarini, detallarini aytib o'tish va bu qismlarni detallarni taqqoslashga, ular o'rtasidagi farqni, so'ngra o'xhash tomonlarini aytishga o'rgatadi. Taqqoslash umumlashtirish bilan yakunlanadi, ya'ni har bir buyumning farqli belgilari ajratib ko'rsatiladi. Shuningdek, umumlashtiruvchi so'zlarni bolalar lug'atiga kiritish uchun havoda uchuvchi, suvda, suv ostida, er ustida yuradigan transport vositalari; qishki, yozgi, kuzgi kiyimlar; choy idishlari, oshxona, ovqat solinadigan idishlar va hokazolar ko'rib chiqiladi, ular yuzasidan suhbat o'tkaziladi va taqqoslanadi.

Bolalar bog'chasida lug'at bilan ishslash dasturi mavjud bo'lib, tarbiyachi bolalarga atrofdagilar bilan tez nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan so'zlarni tanlab, maxsus usul va uslubiyot yordamida ular nutqiga kiritib boradi. Bolalarni so'zlarning ma'nosini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni o'z nutqlarida faol ishlatishga ham odatlantirib boradi. Tarbiyachi bola lug'atining qo'pol so'zlardan xoli bo'lishiga, shevaga oid (mahalliy) so'zlarni adabiy tildagi so'zlar bilan almashtirishga e'tibor berishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Lug'at ishining mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
2. Lug'at ishiga qo'yiladigan talablar qaysilar?
3. Lug'at o'stirish usullari haqida nimani bilasiz?
4. Mashg'ulot jarayonida lug'at o'stirishning metodik xususiyatlari haqida gapiring?

Mavzu: Grammatik to'g'ri nutq qurilishini shakllantirish usuliyoti

Reja:

1. Nutqni grammatik to'g'ri shakllantirishning mazmuni va vazifalari.
2. Grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish ta'limi.
3. Grammatik mashg'ulot xususiyatlari.
4. Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatish usuliyoti.

Asosiy tayanch so'zlar:

Grammatik qurilish, grammatik to'g'ri nutq, morfologiya, sintaksis, gap, so'z birikmasi, bir va ko'p mashg'ulot uchun grammatik material, bolalar yo'l qo'yiladigan grammatik xatolar.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Nutqni grammatik to'g'ri shakllantirishning mazmuni va vazifalari..Grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish ta'limi. Grammatikmashg`ulot ususiyatlari Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatish usuliyoti.), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

"Grammatika" atamasi tilshunoslikda ikki mazmun kasb etadi. Birinchidan, shu fanning bo'limini anglatsa, ikkinchidan, gap qurilishining mazmuniy ifodasi va so'z o'zgarish xususiyatini anglatadi. Metodikada esa bolalarning nutq jarayonida tilning grammatik qurilishdagi mantiqiy xususiyatini ifodlaydi.

Maktabgacha ta'lif yoshdagi bolalar nutqdagi to'g'ri grammatik qurilishini shakllantirishning quyidagi vazifalari mavjud:

1. Bolalarning og'zaki nutqida grammatik xatolarni tuzatish.
2. Sintaktik xususiyatlarini tarkib toptirish.
3. Morfologik shakl jihatidan grammatik xatolarni tuzatishga o'rnatish.

Grammatik nutqni to'g'ri shakllantirish ta'limi usullari ko'p qirallli bo'lib, u quyidagi til xususiyatlarini o'z ichiga oladi:

1. Predmet va narsalarni ko'plikda qo'llash: o'yinchoq-o'yinchoqlar, qo'g'irchoq-qo'g'irchoqlar ...
2. Kelishik vositalari bilan qo'llash: ayiq-ayiqqa, olma-olmadan ...
3. Shaxs otlari qo'shimchalari bilan: koptok-koptogim, qoshiq-qoshig'ing ...
4. So'z urg'ularini to'g'ri qo'llash.
5. Sifatlarni qiyosiy o'rgatish usuli: katta-kichik, uzun-qisqa, oq-qora ...
6. Olmoshlarni o'rgatish: men, sen, u, biz, siz ...

Grammatik to'g'ri nutq ta'limining o'rgatish usullari mavjud. Grammatik tushunchalarni bir mashg'ulot va ko'p mashg'ulot jarayonida tashkil etiladi. Bir mashg'ulotda oddiy bir topshiriq, masalan, predmetlarni ko'plikda qo'llash mazmun o'rgatilsa, ko'p mashg'ulotda esa "**Gapni davom ettir**", "**Bir nechta gap ayt**", "**Rasm yuzasidan gap tuz**" kabi grammatik o'yinlar olib boriladi.

Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. Lug'at tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning o'zaro bog'lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi) belgilaydi.

Bola atrofdagilardan grammatik tomondan shakllangan nutqni eshitadi. Eshitganining ma'nosiga tushunish bilan birga, tilning grammatik tomonini egallaydi, modelini bilib oladi. Bola ona tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan shunchalik tez rivojlanadi. Agarda bolalarda nutqning grammatik tomoni noto'g'ri shakllansa, aqliy rivojlanishi kechikadi.

Shuning uchun tarbiyachi grammatikaning (morfologiya va sintaksis) turli shakllarini o'zlashtirishga yordam beruvchi didaktik va mashqlarni tashkil etadi. Masalan, kelishik qo'shimchasini o'zlashtirish uchun "**Topchi, men qayerda bo'ldim?**" (katta guruhsida); ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'zlashtirish uchun "**Men boshlayman, sen esa oxiriga etkaz!**", otning kelishiklar bilan turlanishini o'zlashtirishda "**Topchi, nima yetishmaydi?**", fe'l zamonlarini o'zlashtirish uchun "**Siz nima qilishni xohlaysiz?**" va hokazolar.

Bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturida katta va muktabga tayyorlov guruhlarida ikki so'zdan gap tuzishga, ularni so'zlarga ajratib, tartib bilan aytishga o'rgatish (birinchi so'z nima, ikkinchi so'z nima hamda uch va to'rt so'zdan iborat ko'makchisiz va bog'lovchisiz gap

tuzish nima, so'zlarning tartibini ko'rsatib, aytib berish, gap va so'z haqidagi tushunchalarni amaliy mashqlar davomida mustahkamlab borish kabi vazifalar) belgilangan. Bolalarni gap bilan tanishtirish dasturining mazmuni, maqsadi quyidagilardan iborat:

Nutqdagi gapni ajratish.

Gap tuzishga o'rgatish.

So'zlar gapda bog'lanib kelishi haqida tushuncha berish.

Bolalarni gap bilan tanishtirishdagi dastalbki tushunchalar quyidagilardan iborat. Kishilar bir-birlari bilan so'zlar yordamida gaplashishadi, so'zlar juda ko'p, har xil va ular nutqda gaplar bilan bog'lanadi. Bunday tushunchalar amaliy mashqlar asosida ko'rgazmali usuldan foydalanib amalga oshiriladi. Mashg'ulotni tahliliy asosda olib borish.

Tarbiyachi: - Bolalar mening stolim ustida nimalar bor?

Bolalar. - O'yinchoqlar.

Tarbiyachi: - Aytinglarchi, stol ustida qanday o'yinchoqlar bor?

Bolalar o'yinchoqlarni nomma-nom aytishadi.

Tarbiyachi: - Siz turli o'yinchoqlarning nomini aytdingiz - koptok, chelakcha, qo'g'irchoq, mashina, ayiqcha, kuchukcha. U o'yinchoqlarning bilan ifodalanadi. Men so'zlarni yana bir marta takrorlayman - koptok, chelakcha, qo'g'irchoq, mashina, ayiqcha, kuchukcha. Xabarlar, men qancha so'z aytdim, bu so'zlarning barchasi har xil.

Bolalar birma-bir sanab o'tishadi.

Tarbiyachi: - Siz ko'p so'zlarni aytdingiz. Jihozlarning nomlari stol, stul, servant, shkaflar ham so'z. So'zlar hammasi har xil. So'zlar juda ko'p. So'zlar bilan turli narsalarni, o'simliklarni, hayvonlarni nomlaymiz. Hozir men bitta o'yinchoqni olaman. Bu nima?

Salim: - Koptoq

Tarbiyachi: - Olima, Salim qaysi so'zni aytdi?

Olima: - Salim "koptoq" so'zini aytdi.

Tarbiyachi: - Koptoqka yaxshilab qarang, u haqda qaysi so'zni aytish mumkin? O'ylang.

Bolalar. - Koptoq - rezinali, qizil, dumaloq, katta va hokazo.

Tarbiyachi: - Yashanglar, koptoq haqida har xil so'zlar aytdingiz. Endi mana bu o'yinchoqqa qarang. Buni qaysi so'z bilan aytish mumkin?

Bolalar. - Ayiqcha.

Tarbiyachi: - To'g'ri, bu ayiqcha. Bu ayiqcha haqida qaysi so'zlarni aytish mumkin.

Bolalar. - Ayiqcha - jigarrang, chiroqli, maymoq va hokazo.

Tarbiyachi: - Ayiqchani stol ustiga o'tqazib qo'yib endi bolalar ayiqcha haqida ikkita so'z aytin.

Bolalar. - Ayiqcha o'tiribdi; ayiqcha qarayapti; ayiqcha chiroqli.

Tarbiyachi: - Siz ayiqcha haqida ikkita so'zdan iborat gap aytdingiz. Biz kimilardir, nimalardir haqida gapirganimizda gaplar yordamida gaplashamiz.

Tarbiyachi: - Salim, sen ayiq haqida qaysi gapni aytding?

Salim: - Ayiqcha qarayapti.

Tarbiyachi: - Sening gapingda nechta so'z bor?

Salim: - Ikkita so'z.

Tarbiyachi: - Bu so'zlarni ayt.

Salim: - "Ayiqcha" va "qarayapti".

Tarbiyachi: - Yana bir marta gapingni takrorla.

Salim: - Ayiqcha qarayapti.

Tarbiyachi: - Ahmad, sen ayiq haqida qaysi gapni aytding?

Ahmad: - Ayiqcha o'tiribdi.

Tarbiyachi: - Sening gapingda nechta so'z bor?

Ahmad: - Ikkita so'z.

Tarbiyachi: - Endi bolalar mana bu o'yinchoq haqida gap o'ylang (mashina o'yinchog'ini ko'rsatadi).

Jamila: - Katta mashina.

Gavhar. - Mashina yuryapti.

Tarbiyachi: - Jamila sening gapingda nechta so'z bor?

Jamila: - Ikkita so'z: "Katta" va "mashina".

Tarbiyachi: - Hammangiz ikki so'zdan iborat gap tuzdingiz. Gapda bitta, ikkita, uchta va undan ortiq so'zlar bo'ladi. Endi biz o'yinchoqlar haqida bir, ikki so'zdan iborat bo'lgan gaplar yordamida gaplashamiz.

Hozir men bitta o'yinchoqni olib u haqda gapiraman: shar.

Mening gapimda nechta so'z bor?

Bolalar. - Bitta.

Tarbiyachi: - Endi siz bu o'yinchoq haqida ikkita so'zdan iborat bo'lgan gap tuzing.

Bolalar. - Dumaloq shar; shar uchadi; shar yengil.

Tarbiyachi bolalar bilan birga gapning to'g'ri tuzilganligini tekshiradi. Xuddi shunday amaliy mashqlar boshqa o'yinchoqlar bilan ham o'tkaziladi. Tarbiyachi mashg'ulotning oxirida bolalarni qanday

xulosa chiqarish kerakligiga o'rgatadi. Bugun biz hamma narsa, ya'ni nimani ko'rayotgan, nimani qilayotgan bo'lsak, so'zlar bilan aytamiz. So'zlar ko'p, so'zlar har xil. Biz gaplar yordamida so'zlashamiz (gapiroshimiz). Har bir gapda bitta, ikkita va undan ortiq so'zlar bo'lisi mumkin, gap bilan tanishtirish, so'zlardan gaplar tuzish, gapdagi so'zlar tarkibini aytishga o'rgatish, so'zlar gapda bog'lanib kelishi haqida tushuncha berish, bir nechta mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar oddiydan murakkabga qarab boradi. Masalan: bolalarni nutqdagi gaplarni ajratisnga, gap tuzishga o'rgatish hamda bolalarga gapda so'zlar bog'lanib kelishi haqida tushuncha berish uchun mashg'ulotni taxminan quyidagicha tashkil etish mumkin. Mashg'ulot uchun ikkita sujetli (mazmunli) rasm: "Koptok o'ynayotgan bolalar" tasvirlangan rasmlardan foyrdalaniladi.

Tarbiyachi mashg'ulotni quyidagi tartibda boshlaydi. ("Koptok o'ynayotgan bolalar" rasmini doskaga osib qo'yib, bolalarga shunday murojaat etiladi):

- Bolalar, bu rasmga diqqat bilan qarang va mening hikoyamni tinglang. "Bolalar koptok o'ynashayapti. Salim koptokni Dilbarga irg'itdi. Dilbar koptokni ilib oldi. Men avval kim haqida gapirdim?

Bolalar. - Bolalar haqida.

Tarbiyachi: - Bolalar haqida men nima dedim?

Bolalar. - Ularning koptok o'ynayotganliklari haqida.

Tarbiyachi: - To'g'ri men bolalar haqida, ularning koptok o'ynayotganliklari to'g'risida gapirdim. Keyin men nima dedim? Kim haqida gapirdim?

Bolalar. - Salim haqida.

Tarbiyachi: - Salim haqida nima dedim? Qani, Maftuna, aytchi?

Maftuna: - Salim koptokni Dilbarga irg'itibdi.

Tarbiyachi: - Keyin men nima dedim? Kim haqida nima dedim?

Bolalar: - Qiz bola, Dilbar haqida. Dilbar koptokni ilib oldi.

Tarbiyachi: - Mening qisqa hikoyamda uchta gap bor edi.

Birinchi gap "Bolalar koptok o'ynayapti", ikkinchisi "Salim koptokni Dilbarga irg'itibdi" va uchinchi gap "Dilbar koptokni ilib oldi". Endi sizlar, biz nimalar haqida hikoya qilsak, gaplar yordamida gapiroshimizni bilib oldingiz. Endi siz ushbu rasm bo'yicha hikoya o'ylab toping. (Tarbiyachi rasmni doskaga ilib qo'yadi.) Behruz! Sen hikoya tuzginchi?

Behruz: - Bolalar gulga suv qo'yishyapti. O'g'il bola chelakda suv tashiyapti. Qizcha leyka bilan gullarga suv qo'yyapti.

Tarbiyachi: - Behruz juda yaxshi hikoya tuzdi. Men hozir Behruz tuzgan hikoyani sekin takrorlayman, siz esa diqqat bilan tinglang va bu hikoyada nechta gap bor ekanligini aniqlab ayting. (Tarbiyachi Behruning hikoyasini har bir gap oralig'ida uncha cho'ziq bo'limgan pauza bilan takrorlaydi.)

Bu hikoyada nechta gap bor?

Bolalar: - Uchta gap bor.

Tarbiyachi: - Birinchi gap qaysi?

Bolalar: - Bolalar gulga suv qo'yapti.

Tarbiyachi: - To'g'ri, Mafuna, ikkinchi gapni, takrorla.

Mafuna: - O'g'il bola chelakda suv tashiyapti.

Tarbiyachi: - Shahzod, hikoyadagi uchinchi gapni takrorla.

Shahzod: - Qizcha gullarga suv qo'yapti.

Tarbiyachi: - Behzod, endi sen, barcha gapni takrorla. Shunda hikoya hosil bo'lsin.

Behzod takrorlaydi.

Tarbiyachi: - Bu hikoyada kimlar haqida gapiriladi?

Bolalar: - Bolalar haqida. O'g'il bola va qizcha haqida.

Tarbiyachi: - O'g'il bola haqida nima deyilgan?

Bolalar: - O'g'il bola gullarga suv kuyapti. O'g'il bola chelakda suv tashiyapti.

Tarbiyachi: - Qizcha haqida nima deyilgan?

Bolalar: - Qizcha gullarga suv qo'yapti.

Tarbiyachi: - Bugun biz hikoya tuzdik. Hikoya qisqa uchta gapdan iborat bo'ldi. Hikoya nima haqida ekanligi ham barchaga tushunarli bo'ldi.

Demak, biz nima haqida hikoya qilsak ham, gaplar bilan gaplashgan bo'lamiz. Tarbiyachi mashg'ulotning oxirida bolalardan bugungi mashg'ulotda nimalar o'rganib olganliklarini so'rab ko'radi.

Bolalarni tarbiyachi tomonidan berilgan so'zlar yordamida gaplar tuzishga o'rgatishdan maqsad berilgan so'zlardan har xil gaplar tuza olishga o'rgatishdir. Bolalardan tashqari, gaplarda narsalar, buyumlarning nomigina aytib qolinmasdan, balki u haqda tinglovchilarga narsaning noma'lum bo'lgan xususiyatlari ham bayon etiladi degan tushuncha berishdir. Bu maqsadlarni amalga oshirishda tarbiyachidan ijodkorlik talab etiladi.

Biz quyida mashg'ulotni qanday tashkil etishning taxminiy ishlanmasini taklif etamiz;

Tarbiyachi: - Bugun biz sizlar bilan gaplar o'ylab topamiz.

Men kuchuk haqida gap o'yladim. Ushbu gap "Ku-chuk" so'zi bilan boshlanadi: Kuchuk ... Men qaysi gapni o'yladim? Tarbiyachi qaysi bolani chiqarib so'rasa, shu bola aytilgan gapni to'ldirib gapiradi:

Kuchuk vovullaydi. Kuchuk suyak chaynaydi. Kuchuk mushukka irillaydi.

Tarbiyachi: - Yashanglar, siz kuchuk haqida har xil gaplar o'ylab topdingiz. Men esa ushbu gapni o'yladim. "Kuchuk ona it bilan o'ynayapti". Endi Shuhrat sen "Quyon" so'zi bilan boshlanadigan gap o'ylab top. Sen o'ylagan gapingni aytmay tur. Biz esa qanday gap qurbaningni topishga harakat qilamiz. O'yladingmi?

Shuhrat: - Ha.

Tarbiyachi: - Bolalar, Shuhrat qanday gap o'yladi? Qani topinglarchi, bu gap "Quyon" so'zi bilan boshlanadi?

Bolalar: - Quyon sakrayapti. Quyon sabzi yeyapti. Quyon yuguryapti.

Tarbiyachi: - Shuhrat, sen ham xuddi shu gaplarni o'yladingmi?

Tarbiyacht - Yashanglar. Hammangiz "Quyon" haqida turli xildagi gaplarni o'ylab topdingiz. Endi "Tovuq" so'zi bilan boshlanadigan gap o'ylab toping.

Bolalar. - Tovuq ququlaydi.

- Tovuq don cho'qiydi.
- Tovuq jo'jalarini qanoti ostiga yashirdi.
- Tovuq qanot qoqadi.
- Tovuq chuvalchang yeydi va hokazo.

Tarbiyachi: - Yashanglar, tovuq haqida ko'p gap o'ylab topdingiz. Biz hammamiz tovuq nimalar qilishini bilib oldik. Endi men gap aytaman "Sigir sut beradi". Bu gap nima haqida ekan?

Bolalar: - Sigir haqida.

Tarbiyachi: - Sigir haqida nima deyish mumkin ekan?

Salim: - Sut berishi haqida gapirish mumkin ekan.

Tarbiyachi: - To'g'ri, gap nima haqida ekanligi hammamiz uchun tushunarli. Gapda sigirning sut berishi haqida aytilgan. Ushbuni tinglang. Bog'da olma qip-qizil. Men gap aytdimmi?

Bolalar: - Yo'q.

Tarbiyachi: - To'g'ri, bu gap emas, bu oddiy, alohida so'zlardir. Gap hosil bo'lishi uchun so'zlani tanlab, o'z o'rniga to'g'ri qo'yish kerak. Behruz, sen bog' haqida gap aytgin.

Behruz: - Bog'da olma qip-qizil bo'lib pishdi.

Tarbiyachi: - To'g'ri, sen "Bog'da olma qip-qizil bo'lib pishdi" degan gap aytding. Gavhar, endi sen, olma haqida gap aytgin.

Gavhar. - Olma bog'da yetishtiriladi.

Tarbiyachi: - To'g'ri gap tuzding. "Olma bog'da yetishtiriladi".

Behzod: - Bu gap nima haqida borayotgan ekan.

Behzod: - Olma va bog' haqida.

Tarbiyachi: - Hozir men sizlarga topshiriq beraman. Uyda, sevimli o'yinchoqlaringiz haqida gap tuzing, ertaga tuzgan gaplaringizni aytib berasizlar. Mashg'ulotning oxirida bugungi mashg'ulotda nimani o'rganib olganliklarini so'raydi.

3. Gap so'zlar tarkibidan tuzilganligi haqidagi bilimlarni mustahkamlash maqsadida ta'limiylar o'yinlar o'tkaziladi. Chunonchi, "Kim oxirini o'ylab topadi?", "Pochtalyon xat olib keldi", "Jonli so'zlar", "So'zni top", "Gap o'ylab top", "Rasm haqida gap o'yla", "Rasm yuzasidan gap tuz" va hokazo. Yuqoridagi ta'limiylar o'yinlardan ayrimlarini o'tkazishga doir namuna bayon etamiz.

"Kim oxirini o'ylab topadi?" ta'limiylar o'yinining borishi.

Tarbiyachi: - Bolalar, hozir men she'r aytaman, ammo bu she'rning ayrim qatorlaridagi oxirgi so'zlar tushirib qoldirilgan. Bu tushirib qoldirilgan so'zlarni o'zingiz o'ylab topib, aytishingiz kerak. Men she'rni aytayotganimda xato qilmaslik uchun uni diqqat bilan tinglashingiz kerak. Kim oxirini o'ylab topsa, shu bola mendan sovg'a oladi.

Bolalar qatorda tushirib qoldirgan so'zni aytadilar. Har bir topshiriqni yaxshi o'zlashtirib olganlaridan so'ng yangi she'rni aytish mumkin. Tarbiyachi mashg'ulotning ikkinchi qismida so'z taklif etadi, bolalar esa ikki so'zdan iborat gap tuzadilar.

Tarbiyachi: - Olxo'ri. Bolalar: - Olxo'ri pishgan. Olxo'ri qizil va hokazo. Tarbiyachi: - Anjir. Bolalar: - Anjir shirin. Anjir mazali ...

Tarbiyachi: -Divan ... va hokazo so'zlarni aytadi, bolalar esa so'zni oxirini aytib, gap tuzadilar. Tarbiyachining topshirig'iga ko'ra gapni tahlil (analiz) qiladilar.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bolalar bilan birga mashg'ulotga yakun yasaydi.

"Pochtalyon xat olib keldi" ta'limiylar o'yinining taxminiy borishi. Bu o'yin uchun mazmunli (sujetli) rasmlar, pochtalyon uchun kerak bo'lgan jihozlar tayyorlanadi. Mashg'ulot quyidagicha olib boriladi.

Tarbiyachi: - Bugun biz qiziq o'yin o'ynaymiz. Siz xat olasiz va uni bizga o'qib berasiz. Faqat xat qisqa, ikki-uch so'zdan iborat bo'lishi kerak.

Guruhga pochtalyon kirib kelib, bolalar bilan salomlashib, tarbiyachiga quyidagi so'zlar bilan murojaat etadi: "Sizga xat bor" deydi va xatni tarbiyachiga uzatadi.

Tarbiyachi: - Rahmat, marhamat o'tiring. Hozir men xatni "o'qiyman". Siz diqqat bilan tinglang, xatda nimalar yozilganini xotirangizda saqlab qoling. (Mazmunli-sujetli rasmni bolalarga ko'rsatmay qo'lga oladi va uni bir necha daqiqa ko'zdan kechirib chiqadi.) "Qizcha rasm chizyapti". Bu uch so'zdan iborat bo'lgan gap. Birinchi so'z - qizcha, ikkinchi so'z - rasm, uchinchi so'z - chizyapti. So'ngra rasmni bolalarga ko'rsatadi. Menga kelgan xatdagi gap qisqa, uch so'zdan iborat. Hozir sizlar ham "xat" olasiz, uni menga "o'qib berasiz", so'ngra xatdagi gap necnta so'zdan iborat ekanligini: birinchi so'z, ikkinchi so'z, uchinchi so'z nima ekanligini aytib berasiz. (Pochtalyon bolalarga xatni tarqatadi, bolalar xatdagi rasmlni kartochkani oladilar va berilgan topshiriqqa javob o'ylaydilar.)

Tarbiyachi shu tariqa bir qancha bolalardan so'rab chiqadi (qolgan bolalardan uyqudan keyin yoki boshqa kuni ertalabki soatda so'raydi).

Mashg'ulotning oxirida bolalar bilan birgalikda mashg'ulotga yakun yasaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Grammatika atamasining ma'nosini qanday tushunasiz?
2. Grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishning talablarini ayting?
3. Nutqning to'g'ri grammatik qurilishi deganda nimani tushunasiz?
4. Nutqning to'g'ri grammatik qurilishini rivojlantirish usullarini ayting?
5. Nutq jarayonida grammatik qurilish qanday o'rinni egallaydi?
6. Mashg'ulot jarayonida nutqni to'g'ri grammatik qurilishi qanday tashkil etiladi?

7-mavzu: Tovush madaniyatini tarbiyalash usuliyoti

Reja:

1. Nutq tovush madaniyatini tarbiyalashning mazmuni va vazifalari.
2. Tovush madaniyatini o'stirish ishini tashkil etish.
3. Nutqda nafas yo'llarini tarbiyalash.
4. So'zning aytilishi va talaffuzini nutq jarayonida to'g'ri qo'llash.

Asosiy tayanch so'zlar:

Nutqda tovush talaffuzi, ohang ustida ishlash, bo'g'in va urg'u ustida ishlash, orfoepik to'g'ri talaffuz, ovoz tempi (sur'ati) va sifati, ifodali nutqni tarbiyalash, ravon gapishtish (diksiya), ifodalalik (intonatsion ma'nodorlik), tovush madaniyati.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Nutq tovush madaniyatini tarbiyalashning mazmuni va vazifalari. Tovush madaniyatini o'stirish ishini tashkil etish. Nutqda nafas yo'llarini tarbiyalash.So'zning aytilishi va talaffuzini nutq jarayonida to'g'ri qo'llash.), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Nutqda tovush madaniyatini shakllantirish keng metodik ishlarni talab etadi va o'ziga xos xususiyatga ega. Tovush madaniyati degan tarbiyachi bolalar nutqidagi tovush ohangi ulardagi o'zgarishlar, shuningdek, tovush ifodaliligi, ritm, intonatsiya, temp (ovoz tezligi), mimika, qat'iylik kabi xususiyatlar va nutq apparatlarining me'yoriy darajada ishlashi, faoliyati nazarda tutiladi. Tovush madaniyatini tarbiyalashning quyidagi mazmun va vazifalari mavjud:

1. Nutqda tovushlarning to'g'ri talaffuzini shakllantirish. Tovush - eng kichik birligidir. U nutqda fonema, ovoz va gapni yuzaga keltiradi.

2. Ohang ustida ishlash. Ohang aniq va muayyan so'zning talaffuzini belgilaydi. So'z ohangi uning mazmun va mantiqini belgilaydi.

3. So'z o'rgatish. Nutq jarayonida so'z o'rgatish gap uchun material sanalgan so'zning ma'nosi va ohangini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Urg'u o'zgarishi bilan so'zning ma'nosi ham o'zgaradi.

Ifodali nutqni tarbiyalash uchun tarbiyachi ushbu metodik ishlarni doimiy tarzda amalga oshirmog'i lozim:

1. Bolalarning kundalik hayotida tabiiy ifodalilikni shakllantirish.

2. Mashg'ulot jaryonida badiiy asar voqealarini ifodali tarzda bayon etishga o'rgatish.

Nutq madaniyati – bu bayon etiladigan fikr mazmuniga mos tarzda til vositalarining barchasidan (tovush, intonatsiya, grammatik shakllar, leksik urg'ulardan) to'g'ri foydalana olishdir.

Nutqning tovush madaniyati nutq madaniyatining ajralmas bir qismidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining tovush madaniyatining atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo'lishlari natijasida egallaydilar. To'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarning bir qismigina hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarda to'g'ri nafas olish va chiqarishni ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri foydalinishni, shoshilmasdan nutqning mazminiga qarab, ifodali gapirishni tarbiyalaydi.

Nutq tovushi madaniyati deb, nutqning fonetik va orfoepik jihatdan to'g'riliqi, so'zlashgan vaqtida to'g'ri nafas olish va chiqarish, ravshan gapirish, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatish, nutqning mazmundorligiga qarab uning ifodliligi, ovoz kuchi va nutq sura'tini tartibga solish tushuniladi.

Bolalarga ona tilini o'rgatish bo'yicha ishlar tizimida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash muhim o'rinni egallaydi. Bu jarayonda bola o'zbek tilidagi hamma tovushlarni tog'ri talaffuz etishga, mashg'ulotlarda, kundalik muomalada yetarli ovoz kuchida javob berishga, shoshilmasdan, ifodali gapirishga o'rganadi. Nutqi yaxshi rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishib ketadi, o'z fikrini va istagini tushunarli tarzda bayon etadi, o'rtoqlari bilan birgalikda o'ynaydigan o'yinlari haqida darrov kelishib oladi. Aksincha, tushunarsiz nutq o'zaro munosibatni qiyinlashtiradi, bola xarakterida salbiy xususiyatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Nutqning tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni eshitish qobiliyati asosida shakllanadi, rivojlanadi. Bolalarda to'g'ri, jarangdor nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda, tarbiyachi quyidagi vazifalarni qo'yishi kerak:

1. Bolalarda nutqni eshitish qobilayatini va uning asosiy komponentlarni: eshituv diqqatini (eshitish orqali u yoki bu tovushni va uning yo'nalishini aniqlash malakasi), fonematik eshitishni, temp va ritmni idrok etish qobilayatini tarbiyalash.
2. Tog'ri nafas olish va chiqarish ustida ishlash, ya'ni qisqa nafas olib, uzun havo oqimini chiqarish qobilayatini tarbiyalash. Bu jumlalarni erkin talaffuz qilish imkoniyatini beradi.
3. Muloqot shatalariga mos ravishda ovoz balandligini boshqara olish qobilayatini tarbiyalash.
4. Ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirish.
5. Har bir tovush, so'z va jumlalarning aniq, ravshan talaffuzini shakllantirish, ya'ni ravon gapirishni tarbiyalash.
6. O'zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalari (talablari) ososida so'zlar talaffuzini rivojlanterish.
7. Nutqning odatdag'i tempini shakllantirish, ya'ni so'z va jumlalarni o'rtacha tempda (nutqni tezlatmay ham, sekinlashtirmay ham) tinglovchilarga uni aniq idrok qilishlari uchun imkoniyat yaratgan holda gapirishga o'rgatish.
8. Nutqning intoniatsion ifodaliligini tarbiyalish, ya'ni mantiqiy pauza, urg'u, xushohanglik, temp, ritm va tembr yordamida his-tuyg'ularini va kayfiyatini, fikrlarini aniq ifodalash qobilayatini tarbiyalash.

Tarbiyachi o'zbek tilidagi unli tovushlar va harflar bilan tanishtira boshlaydi. Unli tovushlar bilan tanishtirishda tarbiyachi bolalarga: unli

tovushlarni talaffuz qilishda ovoz og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqadi. Unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi. So'zda qancha unli tovush bo'lsa, bo'g'in ham shuncha bo'ladi degan tushuncha beradi. Undosh tovushlar talaffuz etilganda og'iz bo'shlig'ida to'siqlarga uchraydi va shovqin bilan hosil bo'ladi. Undosh tovushlarning yakka o'zi bo'g'in hosil qilmaydi. Unli tovushlarning ishtirokisiz yomon eshitiladi va so'zdan yaxshi ajralib turmaydi. So'zni to'g'ri hosil qilish uchun undosh tovushlarni aniq talaffuz qilish kerak degan tushunchalar beriladi. Tovush va harg'lar bilan tanishtirish ishini quyidagi tartibda o'tkazish mumkin:

1. Tovushning tipik ohangdagi talaffuzi.
2. So'zdan tovushlarni ajratish (so'zning boshida, o'rtasida, oxirida).
3. Tarkibida o'rganilishi lozim bo'lgan tovush bor oddiy so'zlarni tovush jihatidan tahlil (analiz) qilish.
4. Harflarni ko'rsatish (katta va kichik), ularning yozilishini tahlil (analiz) qilish).
5. Tayoqchalardan harflar tuzish va plastilindan yasash.
6. Harflarni guruh bo'yicha bo'yash (unli harg'larni qizil, undosh harflarni ko'k qalam bilan bo'yash).

Bolalarni tovush va harflar bilan tanishtirish ishi so'zlarni tovush tarkibini analiz (tahlil) qilish bilan amalga oshiriladi.

Tovush va harflar bilan tanishtirish ko'proq ko'rgazmali materiallardan foydalanishni talab qiladi. Bu ko'rgazmali materiallardan biri tovush jadvalidir. O'rganiladigan tovush va harflar uchun tovush jadvali beriladi, bu jadvalda o'rganilayotgan tovush bor bo'lgan narsalarning surati bo'lib, bu suratlar ham o'z navbatida uch qatorga joylashtirilgan bo'ladi. Tarbiyachi birinchi mashg'ulotda bolalarni tovush atamasi bilan tanishtiradi. Bolalar tarbiyachi talaffuz etgan tovushni eshitadilar, tashqaridan kelayotgan tovushlarni tinglaydilar. Tarbiyachi so'zini yakunlab, biz tovushlarni eshitamiz, talaffuz qilamiz deydi.

Nutq tovushlari hosil qilishning manbai – bu o'pkadan chiqayotgan havo oqimining kekirdak, hiqildoq, og'iz bo'shlig'i yoki burun bo'shlig'i orqali o'tishi hisoblanadi. Nafas nutq texnikasining muhim qismidir. Nafas ovoz va nutqni tinglovchiga yetkazish, ovoz kuchini tashkil etish vositasidir. Bolaning nafas olishi qancha yaxshi bo'lsa, ovozi ham, nutqi ham shu qadar jarangdor va kuchli bo'ladi. Chiniqqan va mashq qilingan nafas jumlalarni mantiqan

yaxlit, o'zaro uzviy bog'liq holda talaffuz etishda muhim rol o'ynaydi. Nutq jarayonida nafas olish va chiqarish nutqsiz nafas olishdan farq qiladi. Nutqsiz nafas olishda havo oqimi burn orqali olinadi va chiqariladi. Nutqsiz nafas olishda burun orqali olinadigan va chiqariladigan havo oqimining davomiyligi bir xilda, ya'ni teng bo'ladi.

Nutq jarayonida nafas og'iz orqali olinib nafas olish tez bo'ladi, nafas chiqarish esa sekinlashadi. Nutqsiz nafasda nafas olishdan so'ng tez nafas chiqarilib, so'ng pauza qilinadi. Nutqiy nafasda esa nafas olishdan so'ng pauza qilinib, keyin bir tekisda nafas chiqariladi. Nutqda to'g'ri nafas olish va chiqarish to'g'ri tovush talaffuzini ta'minlaydi, kerakli bo'lgan nutq balandligini tutib turish uchun sharoit yaratadi, aniq pauzaga rioya qilsihni, nutqning bir tekisda bo'lishini va uning intoniatsion ifodaliliginini ta'minlaydi. Nafas chiqarishning qisqa bo'lishi bolalarni mantiqiy pauzalarga amal qilmasdan, shoshilib gaprishga majbir qiladi. Shuning uchun tarbiyachi oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. O'yin mashqlaridan foydalanib, erkin, tekis havo oqimini hosil qilish.

2. Tarbiyachi – pedagog nutqiga taqlid qilish orqali nafasdan tog'ri, o'rinni foydalanishga o'rgatish.

Nutqning tovush madaniyati vazifalarini to'liq anglab etgan tarbiyachi har bir bola nutqining tovush madaniyati darajasi bilan tanishadi. Bu tarbiyachiga umumiy vazifalarni aniqlashga yordam beradi.

Shu munosabat bilan o'quv yilining boshida bolalar nutqining tovush tomoni tekshiriladi. Shuningdek, tarbiyachi har bir bolaning nutq holatini kundalik kuzatishlarining natijalari asosida ham o'rganib boradi va ularning nutqlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Bola nutqini tekshirishdan avval tarbiyachi bog'cha shifokori bilan suhbatda bo'lib, bolalarning artikuliyatsiya apparati holatlarini ko'zdan kechiradi, nuqsonlarni aniqlaydi. So'ngra nutqning tovush tomoni tekshiriladi. Tekshirish jarayonida maxsus rasmi kartochkalardan foydalaniлади.

Bundan tashqari, so'zning bo'g'in tuzilishi, fonematik idrok (**sa-sha, sha-sa, sa-ja, ja-za ...**) tekshiriladi. Bolalarga yod olgan she'rlarini aytib berishni taklif etib, ularning nutq sur'atini, ohangdorligini, nutqda nafas olish va chiqarishni, nutqning ravonligini, ovoz ohangini, intonatsion ma'nodorligini va hokazolarni tekshiradi.

Tarbiyachi bolalarning bog'chaga kelgan birinchi haftasidayoq ularning eshitish ahvoli to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Buning uchun kundalik kuzatishdan va eshituv diqqatini rivojlantiruvchi

o'yinlardan foydalanadi. Har kuni 2-4 bolaning nutqini yakkama-yakka holda tekshiradi. Tekshirish hisobga olib borish jadvaliga yozib boriladi va necha foiz balalar talaffuz normasidan ortda qolayotgani aniqlanadi. Nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar ro'yxati mudiraga taqdim etiladi. O'quv yili mobaynida (yanvar, may) qo'shimcha tekshirish o'tkaziladi. Bu tekshirish o'quv yilining boshida nutqida tovush madaniyati bo'yicha kamchiligi bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladi. Olingen natijalar yana daftarga yoki nutqning tovush madaniyati holatini aks ettiruvchi jadvalga belgilanadi. Mudira yoki katta tarbiyachi (usuliyotchi) olingen natjalarni ilgarigi tekshirish natijalari bilan taqqoslaydi.

Bolalar nutqidagi kamichiliklar aks ettirilgan ma'lumotnomaga jadvali maktabgacha tarbiya uslubiyot xonasiga (shahar yoki tuman usuliyot xonasiga) beriladi. Shahar yoki tuman usuliyotchisi hamma bolalar bog'chasidagi bolalar tovush talaffuzining ahvoli to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar nutqining holatlari jiddiy tahlil qilinadi. Bolalar nutqining tovush madaniyati ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlardan maktabgacha tarbiya sohasida ishlovchilarining anjumanlarida foydalaniladi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Bola, eng avvalo. tilning tovush tomonini egallashi kerak, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi lozim. Nutqning tovush tomoni ustida ishlash o'zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasiga asoslanadi. Bola kattalarga taqlid qilib, so'zlarda urg'uni tg'tri ishlatishga o'rganib oladi, ona tilining intonatsion tomonini o'zlashtiradi hamda so'zlarni turli talaffuz qilishga odatlanadi. Ayniqsa, bola atrofdagilar bilan nutqdy muloqotda bo'layotganda samimi ohangda, burro va aniq, gapirishga o'rgatiladi. Har bir bolada nutqning bunday sifatlarini tarbiyalash, kelgusi hayotida, ya'ni matabda, o'quv yurtlarida ta'lim olishda, mustaqil mehnat faoliyatiida jamoa, jamiyat o'rtaida o'z fikrlarini to'liq, va tushunarli qilib bayon etishda muhim ahamiyatga egadir.

Agarda tarbiyachi bola nutqidagi, tovush talaffuzidagi nuqsonlar, ohang va tempga, dixsiyasiga (aniq, burro gapirish), nutqining mazmundorligi va ifodaliligiga e'tibor bermasa, bunday nuqsonlar bilan maktabga borgan bola bilimni o'zlashtira olmaydi va bu uning keljakdagi mustaqil hayotida ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni nutqdda nuqsoni bo'lgan bolaning nutqi boshqalarga tushunarsiz bo'ladi, o'z fikrini ifodalashda qiynaladi, uyaladi, natijada gapirmaslikka harakat qilib, indamas, jizzaki bo'lib qoladi. Bolalarning hammasi uning ruhiy rivojlanishiga ham ta'sir etadi.

Bolalar nutqini rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib, nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni asosan 3 bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqich: 1 yosh-u 6 oylikdan 3 yoshgacha (yilning ikkinchi yarmidan ilk yoshdagi bolalarning 2-guruhi va 1-kichik guruhi). Bu bosqichda bolaning faol lug'ati tez rivojlanadi, nutqi yuzaga keltiruvchi artikulyatsiya apparati a'zolalarining harakati takomillashadi, ya'ni ancha harakatchan, mustahkam bo'ladi. Taqlid qilish qobiliyati rivojlanadi, buning natijasida tarbiyachi bola nutqining tovush madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi imkoniyatga ega bo'ladi. Ushbu guruhdha tovush madaniyatini tarbiyalash ishlari turli tovushlarga taqlid qilishdan iboratdir. 1 yoshu 6 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlar darajasi ancha o'sadi. Ushbu yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ishlar uncha ko'p bo'lmasan bolalar guruhi bilan (5-6) olib boriladi.

2-bosqich: 3 yoshdan 5 yoshgacha (2-kichik va o'rta guruh). Bu yoshda so'zlarning fonetik va morfologik tarkibi shakllana boshlaydi. Ancha murakkab artikulyatsiya harakatlari takomillashib boradi. Bu bolaga afrikat (qorishiq), sonor va oraliq tovushlarni talaffuz etish imkonini beradi. Bu bosqichdagi ishlar so'zlarning tovush tomoniga ongli munosabatga asoslanadi va ona tilidagi hamma tovushlarni ketma-ket va to'g'ri talaffuz etilishi nazarda tutiladi.

3-bosqich: 5 yoshdan 7 yoshgacha (katta va mактабга таъворлов гурухи). Bu bosqich nutqning tovush tomonini shakllantirish ishlarining yakunlovchi davri hisoblanadi. Bu bosqichning boshida ancha murakkab, artikulyatsiyasi jihatidan yaqin bo'lgan tovushlarni (s-sh, z-j va hokazolar) aniq farqlashga o'rgatiladi. O'xshash tovushlarni farqlashni takomillashtirish bo'yicha tashkil etilgan ishlar kelgusida fonematik eshituvni rivojlantirishga yordam beradi. Nutqning tovush madaniyatiga doir vazifalarni (tovush talaffuzi, tempi, ravshan gapirish, ma'nodorligi, ovoz sifati va hokazolar) hal etishda ishlarning umum shaklidan foydalaniladi. Ular xilma-xildir. Asosiy mashg'ulotlar tarkibiga har xil mazmundagi mashqlar kiritiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Tovush madaniyatini shakllantirishning mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
2. Tovush madaniyatiga qo'yiladigan talablarni ayting.
3. Tovush madaniyatini shakllantirish usullari haqida nimalar bilasiz?

8-mavzu: Mashg'ulot jarayonida tovush madaniyatini shakllantirish usuliyoti

Reja:

1. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni tashkil etish.
2. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'otlinarning tuzilishi.

Asosiy tayanch so'zlar:

Tovush sur'ati, tovush sifati, ravon gapisirish, ifodali nutqda tovush madaniyati, ovozni eshitish, nutq organlari va artikulliyatsiyasi, nutq apparati, ovozni tarbiyalash, nafas yo'llarini tarbiyalash.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni tashkil etish. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg`otlinarning tuzilishi.), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyg'a vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Mashg'ulot nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning asosiy shakli hisoblanadi. Mashg'ulot onda-sonda emas, balki uzlusiz tarzda o'tkaziladi. Nutqning tovush madaniyatini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun maxsus mashg'ulotlar bilan chegaralanish kerak emas. Shuning uchun nutq o'stirish bo'yicha turli mashg'ulotlarni rejalashtirganda (masalan, she'r yod oldirish, surat bo'yicha ishlash va hokazolar) ning dastur mazmuniga nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning ayrim bo'limlarini (ma'noli nutqni shakllantirish, nafas olish va chiqarishni, nutq sur'ati, ovoz sifatini va hokazolar) kiritish kerak. Nutqning tovushh madaniyatini rivojlantirishda musiqa mashg'uloti katta ahamiyatga ega.

Ilk yoshdagi bolalar bilan har kuni yakkama-yakka va uncha katta bo'limgan guruhchalar bilan (bir yarim yoshgacha 6 ta bola bilan, bir yarim yoshdan 2 yoshgacha 10 ta bola bilan) o'yin mashqlari tashkil etiladi. Mashg'ulot 10 daqiqa davom etadi.

O'yin-mashg'ulotlar bolalarda eshituv diqqatini, nutqni tushunishni, artikulyatsiya apparati a'zolarini rivojlantirishga, tovush va tovush birikmalariga taqlid qilishga, lug'atini faollashtirishga qaratilgan. Bu o'yinlar mazmuniga tovushga taqlid qiluvchi (hayvonlarning, narsa-buyumlarning) ovozlari, hazillar kiritilgan, shuningdek, o'yinchoqlar va turli buyumlarni ko'rsatishda, nomini aytishda tovushga taqlid qilishda (kuchukcha - vov-vov; soat - chiq-chiq va boshqalar) foydalilanildi.

2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bilan o'tkaziladigan mashg'ulot nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga bag'ishlangan bo'lib, haftada 1 marta tashkil etiladi, davomiyligi 15 daqiqadan iborat..

Bu yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulot bolalarning eshituv idrokini, nafas olish va chiqarish, ovoz apparatining harakatini rivojlantirishga, artikulyatsiyani aniqlashga, so'z va jumlalarni to'g'ri va aniq talaffuz etishga qaratilgan. Bu mashg'ulotlar turli hayvonlarning, ovoz chiqaradigan buyumlarning ovoziga taqlid qilish, ashula, hazillar, ta'limiyl o'yinlar, kichik she'rlar va hikoyalarni kiritish yo'li bilan o'tkaziladi.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar hamma guruh bilan nutq o'stirish mashg'ulotining (haftada 1 marta, 5-8 daqiqandan) qismi sifatida va mustaqil mashg'ulot (oyda 1-2 marta, 15-20 daqiqa) tarzida o'tkaziladi.

Ushbu guruh yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulot fonematik va nutqni tinglashni rivojlantirish, artikulyatsiya apparatining haraktachanligini takomillashtirish, ona tilidagi hamma tovushlarning

to'g'ri talaffuzini egallash va mustahkamlash, so'z va jumlalarni ishonchli tarzda to'g'ri talaffuz etish, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatalish, adabiy talaffuz qoidalariga binoan so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, ovoz balandligidan foydalana olish malakasini tarbiyalash, so'z va jumlalarni ma'noli nutqning intonatsion vositalarini hisobga olgan holda kerakli nutq sur'atida talaffuz etishga o'rgatish maqsadida o'tkaziladi.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lган bolalar bilan mashg'ulotlar hamma guruh bolalari bilan nutq o'stirish mashg'ulotining qismi sifatida (5-8 daqiqa) hamda oyda bir marta maxsus mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

Bu bosqichda nutqning tovush madaniyatining hamma bo'limlari (vazifalari) bo'yicha hosil qilingan ko'nikma va malakalar qayta ishlanadi, mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Misol tariqasida quyida **o** tovushi va harfi bilan tanishtirish mashg'ulotini keltiramiz.

Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: Men hozir **o** tovushini talaffuz etaman, siz diqqat bilan tinglab turing, so'ngra siz talaffuz etasiz, deydi. Bolalar **o** tovushini bir necha marta takrorlaganlaridan so'ng tarbiyachi **o** tovushi unli tovush ekanligini, uni ovoz bilan talaffuz etilishini, ichimizdan chiqayotgan havo hech bir to'siqqa urilmay, erkin chiqishini, **o** tovushi turli so'zlarda uchrashini, bu tovush so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkinligini aytadi. Shundan so'ng o'zi bir so'zni aytib (masalan, olxo'ri) bolalarga "Olxo'ri" so'zini qizil, ko'k, qizil doiracha yordamida to'zib chiqishni, qora g'ishqani o tovushining ustiga qo'yishni taklif etadi. Tarbiyachi bolalarga bu so'zdagi unli tovushlarni (**o**, **u**, **i**) aytishni, "Olxo'ri" so'zini bo'g'inga bo'lishni, (olxo'ri) va **o** unli tovushi so'zning qayerida kelayotganini o'ylab topishlarini taklif qiladi. Bolalar bu so'zni bo'g'inga bo'ladilar (ol-xo'-ri). Tarbiyachi birinchi, ikkinchi bo'g'inalarni so'raydi va **o** tovushi qaysi bo'g'inda va so'zning qayerida eshitilyapti? deb so'raydi. Tarbiyachi bolalarning javoblarini ma'qullab, to'g'ri **o** tovushi birinchi bo'g'inda, so'zning boshida kelyapti, deb aytadi. Shundan so'ng, bolalarga **o** tovushi uchun tuzilgan jadvalni ko'rsatadi va ularga quyidagi topshiriqni beradi. Bolalar jadvaldagi suratlarning nomini ichingizda ayting, uni bo'g'inalarga bo'ling va **o** tovushi so'zning qayerida kelayotganini o'ylab, javob berishga tayyorlaning. Tarbiyachi bolalardan birini chiqaradi va birinchi qatordagi biror suratning nomini aytib, uni bo'g'inga bo'lish va **o** tovushi qaysi bo'g'inda va so'zning qayerida kelayotganini aytishni taklif qiladi. Qolgan bolalar o'rtoqlarining

javobini kuzatib turadilar, agar noto'g'ri javob bersa, uni to'g'rila shga yordam beradilar. Jadvalning ikkinchi qatoridagi suratlar ham shu tarzda tahlil (analiz) qilinadi. Bunda bolalar **o** tovushini so'zning o'rtasida kelayotganini bilib oladilar. Masalan, **o** tovushi birinchi bo'g'inda, ba'zan ikkinchi bo'g'inda, so'zning o'rtasida kelayotganini tushunadilar. Bolalar mashq qilganlaridan so'nggina tarbiyachi ularga **o** bilan boshlanadigan o'rtoqlarining ismini o'ylab topishlarini, so'ogra **o** tovushi so'zning o'rtasida va oxirida keladigan ismlarni mustaqil o'ylab topishlarini taklif qiladi. Shunday qilib, tarbiyachi mashg'ul davomida bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, uni aniq eshitishga va bu tovushlarni so'zlardan topa olishga o'rgatib boradi. Shundan so'nggina bolalarga **o** harfi ko'rsatiladi.

Bolalarning bilimlarini tekshirish uchun tarbiyachi quyidagi usuldan foydalanadi.

Tarbiyachi 20 x 12 sm kattalikdagi kartochkaga bolalarga tanish bo'lgan unli va undosh tovush boshida keladigan narsalarning: mix, shar, soat, nok, paypoq, radio, lola, archa, uzum, igna, olma va hokazolarning rasmlarini yopishtiradi. Har bir rasm yopishtirilgan kartochqanining ostiga harfni solib qo'yish uchun cho'ntakcha qilinadi (qog'ozdan cho'ntakcha qilib yopishtiriladi). Mashg'ul vaqtida rasmli kartochkalar doskaga ilib qo'yiladi. Bolalar oldidagi xat jildlarining ichidan barcha harflarni olib, stol ustiga: chap tomonga unli tovushlarni, o'ng tomonga undosh tovushlarni qo'yadilar.

Tarbiyachi shunday deydi: - Men hozir sizlarga rasm ko'rsataman, sizlar esa ovoz chiqarmay, uning nomini bildiradigan so'zning birinchi harfini ko'rsatasizlar. Shundan so'ng birortangiz doskaga chiqib, rasm tagidagi cho'ntakka kerakli harfni qo'yasiz.

Shu tariqa bolalarning tovush va harf haqidagi bilimlari tekshiriladi.

Tarbiyschi shu tariqa navbatdagi mashg'ulotda bolalardan jadval bo'yicha o'rganilgan tovush va harg'larni takrorlatadi va yangi undosh tovush (reja asosida) bilan tanishtiradi. Shunday qilib, tovushlarni o'rganish bo'yicha o'zbek tilidagi barcha tovushlar uchun jadval beriladi. Tarbiyachi har bir mashg'ulotda o'rganilishi lozim bo'lgan tovushga qarab, tegishli jadvaldan foydalanadi va har bir mashg'ulotda shu suratlarning nomini aytishni, nomini ifodalovchi so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, uni so'zning qayerida eshitilayotganini topa olish mashq qildirib boradi, bu esa bolalarni o'z nutqlarini analiz va sintez qilishga o'rgatishga, fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga katta yordam beradi.

Bolalar tovush va harflarni quruqdan quruq yodlab olmay, uni ongli ravishda o'zlashtirib boradilar. Bolalarni o'zbek tilidagi barcha tovush va harflar bilan tanishtirilgach, unli va undosh tovushlar ishtirokida bo'g'in va so'z tuzishga o'rgatiladi. Masalan, tarbiyachi **o-na**, **o-ta**, **(-na, -ta bo'g'in)** so'zlarini tuzishga va o'qishga o'rgatishda bolalar bilan qisqa suhbat o'tkazadi. Tarbiyachi bolalardan qaysi bayramga tayyorgarlik ko'rayotganliklarini, qaysi she'rlarni yod olganliklarini so'rab, yod olgan she'rlaridan birini aytib berishni taklif etadi:

- Siz she'rni juda yaxshi aytib berdingiz, onangiz haqida gapirdingiz. Endi "**Ona**" so'zini o'qishga va yozishga o'rganamiz deydi tarbiyachi. U "**Ona**" so'zini bo'g'inga ajratishni va bu so'zda nechta bo'g'in borligini, birinchi va ikkinchi bo'g'in qaysi ekanligini aytishni taklif etadi. So'ngra bu bo'g'irlarni qaysi unli tovush hosil qilganini so'raydi. Bolalarga shakllar (**qizil**, **ko'k** gapdagi doirachalar yoki kvadrat) yordamida "**Ona**" so'zini tuzishni taklif qiladi. Tarbiyachining o'zi yozuv taxtasiga ilib qo'yilgan rasmni ("Ona" rasmi chizilib tagiga "Ona" so'zi qizil, ko'k, qizil shakllar yordamida belgilab qo'yilgan) ostida ko'rsatkich tayoqchani yurgizib, so'zni o'qiydi. Bu vazifa bajarilgach, "**Ota**" so'zini tuzishga va o'qishga hamda o'rgatishga o'tiladi.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bunday deb yakun yasaydi:

- Bugun biz, qanday ish qilsak, nimalarni ko'rsak, so'zlar bilan aytishini bilib oldik. So'zlar juda ko'p, so'zlar har xil. Bizlar gaplar bilan so'zlashamiz. Har bir gapda bitta, ikkita va undan ko'p so'z bo'lishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mashg'ulot jarayonida tovush madaniyatini shakllantirish usullari nimalardan iborat?
2. Nutq apparatlari qanday tarbiyalanadi?
3. Nutq ifodaliligidagi ohang, temp, ritmnning o'rni haqida gapirib bering.
4. Tovush madaniyati mashg'ulotida tovush talaffuzi, fonetik xususiyatlari tarbiyachi faoliyatida qanday o'rin egallaydi?

9-mavzu: Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish usuliyoti

Reja:

1. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish mazmuni va vazifalari.
2. Mashg'ulot jarayonida badiiy adabiyot bilan tanishtirsh usullari.
3. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarining qurilishi.
4. She'r yodlatish usuliyoti.
5. Badiiy asarni sahnalashtirish.

Asosiy tayanch so'zlar:

Badiiy adabiyot, obraz, syujet, qahramon, ifodali o'qish, parcha, sahna asari, mashg'ulotda mavzu birligi, takrorlash, ifodalilik, xotiralash, tanlab o'qish, she'r, she'r qismlari va qurilishi, she'r yodlatish usullari.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma'ruza mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish mazmuni va vazifalari. Mashg'ulot jarayonida badiiy adabiyot bilan tanishtirsh usullari. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarining qurilishi. She'r yodlatish usuliyoti. Badiiy asarni sahnalashtirish). maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Bolalar bog'chasida tarbiyachisining oldida har bir badiiy asarni san'at asari sifatida bolalar ongiga etkazish, uning mazmunini ohib berish, badiiy asarda qatnashuvchi qahramonlarga nisbatan emotsiyal munosabatda bo'lish, muallifning kechinmalarini his etishga, ya'ni asarda qatnashuvchi timsolga nisbatan o'z munosabatlarini ifodalashga o'rgatish kabi murakkab vazifalar turadi. Bu vazifalarni amalga oshrish uchun tarbiyachining o'zi, bolalrni badiiy asar bilan tanishtirshdan avval, uni his etishi va tushunishi, mazmunini tahlil eta olishi zarur. Shuningdek, pedagogik o'qish va hikoya qilib berish texnikasini, ya'ni aniq ohangni, ifodali o'qish vositalarini egallagan bo'lishi kerak.

Badiiy asarning har bir janrini ifodali tarzda bolalarga etkazilgandagina, uning frazaviy mazmunini to'g'ri idrok ettira olish mumkin. Bolalarda badiiy asarni idrok etish qobiliyati o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, uni bolaning ilk yoshdan boshlab, dunyoqarashini rivojlantirish va tarbiyalash kerak, shundagina bola keyinchalik badiiy asarlarni diqqat bilan tinglashga, badiiy asarlarning axloqiy, estetik mohiyatini anglashga o'rgatiladi.

Tarbiyachi badiiy asarlarni shunday o'qib yoki hikoya qilib berishi kerakki, u bolalarni o'ziga jalg qila olsin, bolalar asardagi obrazlarning siymolarini ko'z oldiga keltirib, tasavvur qila olsinlar va hayajonlansinlar.

Tarbiyachining badiiy asarlarni o'qib yoki hikoya qilib berishga tayyorgarligi muallifning nima demoqchi ekanligini yoki xalq ertaklarining frazaviy mazmuni, unda ishtirot etuvchilarning xarakter va o'zaro munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagagi bolalar uchun yozilgan asarlarda qahramonlarning xarakteridagi xususiyatlardan biri ajratib ko'rsatiladi. Masalan: "Quyonning uychasi" ertagida tulki ayyor, kuchsizlarni himoya qiluvchi sifatida tasvirlanadi.

Asar shunday tarzda muhokama etib olingach, uni ifodali bayon etish ustida ishlanadi. Bu uch yo'nalishda olib boriladi:

1. Emotsional va obrazli ifodalilik, ifoda xilma-xilligi va boyligi ustida ishslash.
2. Asarning ayrim qismlari o'rtasiga mantiqiy urg'u qo'yish.
3. Aniq va to'g'ri talaffuzni hosil qilish; har bir so'zni to'g'ri talaffuz etishga erishish kerak, shundagina bolalar uni to'g'ri idrok etadilar.

Tarbiyachi bunday tayyorgarlik jarayonida adabiy asarning mazmuniga tushunib etadi va matnni esda saqlay oladi, o'zining kichik

tinglovchilari bilan erkin muloqotda bo'ladi va uning nutqi ta'sirchan bo'ladi. Agar tarbiyachi bolalarga tanish bo'lgan asarni o'qib yoki hikoya qilib bermoqchi bo'lsa, ilgari uni bolalarga yetkazish ustida etarli darajada ishlangan bo'lsa, u vaqtida mashg'ulotga quyidagicha tayyorlanadi: asar matnini va ilgari hosil qilingan ifodali o'qish vositalarini yodiga tushirish maqsadida uni bir necha marta ovoz chiqarib o'qiydi, mashg'ulot rejasini tuzadi. Mashg'ulot rejasida asarni bolalarga qanday etkazish - o'qib berish yoki hikoya qilib berish usuli ko'rsatiladi.

Bolalar bog'chasing tarbiyachisi yozuvchi va bolalar o'rtasida vositachi bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar o'rtasida vositachi bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar o'quvchi emas, tinglovchidirlar. Bolalar tomonidan badiiy asarlarni qanday idrok qilish tarbiyachiga bog'liq.

Tarbiyachi asarni qanchalik ifodali, mazmunli o'qisa, bolalar shuncha diqqat bilan tinglaydilar, uning mazmunini yaxshi tushnadilar. Badiiy asarlar tarbiyachi tomonidan kitobdan o'qib berilishi, kitobsiz yoddan aytib berilishi, hikoya qilib berilishi mumkin. Asar mazmunini bolalarga etkazish asar janriga va tinglovchilarning yoshiga bog'liq.

Xalq ertaklari xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini bolalarga kitobdan o'qib bermasdan, hikoya qilib bergen ma'qul. Tarbiyachi dastur asosida o'qib berishi yoki hikoya qilib berishi uchun asar tanlagach, asarning mazmuni va uning tili bolalarga tushunarlimi yoki yo'qmi, shuni oldindan tasavvur etishi kerak. Agar tarbiyachi ulardagi ayrim ifodalar, so'zlar bolalarga tushunarli emasligini taxmin qilsa, u holda muallifning bayon etmoqchi bo'lgan fikrlarini bolalar tomonidan idrok etish qiyinlashadi. Mana shunday hollarni oldindan bilgan tarbiyachi bolalarga ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlarni quyidagi usullar yordamida tushuntirishi lozim: asarni hikoya qilayotgan vaqtida to'xtalmasdan (uzoq pauza qilmasdan), yangi so'zning sinonimi bilan yoki qisqa jumlalar bilan almashtirishi kerak.

Tarbiyachi bolalarga o'qilgan asarni chuqurroq o'zlashtirib olish, uni eslab qolishlariga yordam berish uchun turli metodik usullardan: takroriy o'qib berish, hikoya qilib berish, sahnalashtirish va boshqalardan foydalanadi.

She'r yod oldirishda tarbiyachi oldida bir qancha vazifalar turadi:

1. O'qilgan she'rni hamma bolalar esda saqlab qolishlariga erishish.

2. Bolalarda she'rga (pauzaga) nisbatan qiziqish uyg'otish va mustahkamlash.

3. She'r mazmunini va undagi ayrim qiyin so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam berish.

4. Tinglovchilar oldida she'rni ifodali aytib berishga o'rgatish.

Bu vazifalarning barchasi bir vaqtida amalga oshiriladi. Yodlatish uchun she'r tanlashda "Dastur" vazifalariga, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, esda saqlash qobiliyatlariga e'tibor berish kerak. Yodlatish uchun she'r tanlashda shuni hisobga olish kerakki, she'r hajm jihatidan uncha katta bo'lmasligi, kichik guruhlarda 1 banddan oshmasligi, o'rtalari guruhda 2 band, katta guruhlarda 3-4 banddan oshmasligi kerak. Bolalar bir oy ichida kuni bilan 1-2 ta she'rni (mashg'ulotda) yod oladilar. Ba'zilarini (sanamalar, ashulalarini) mashg'ulotdan tashqari vaqtida (sayrda, o'yin jarayonida) beixtiyor eslab qoladilar. Tarbiyachi bolalar bilan she'r yod oldirish mashg'ulotini tashkil etishdan avval guruhdagi bolalarning qaysisi tez, qaysi birlari sekin, qaysilari puxta, qaysilari bo'sh yod olishlarini aniqlab olishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish ishining mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?

2. Badiiy asar o'qitishda qanday hissiy tuyg'ular shakllantiriladi?

3. Badiiy asar o'qitishning ahamiyati nimadan iborat?

4. Mashg'ulotda badiiy asarni o'rgatishning qanday usullarini bilasiz?

5. Ertak o'qitishni qanday tashkil etiladi?

6. She'r yodlatish usullarini aytинг.

10-mavzu: Mashg'ulotdan tashqari paytlarda badiiy adabiyot bilan tanishtirish

Reja:

1. Bolalarning turli faoliyat ko'rinishlarida badiiy adabiyot.
2. Adabiy ertaliklar va tadbirlar.
3. Kitob burchagi haqida.

Asosiy tayanch so'zlar:

Ertak, hikoya, rivoyat, masal, maqol, tez aytish, topishmoq, she'r va she'riy parchalar, ertalik, adabiy kecha, kitob burchagi, sahna, sahna ko'rinishlari, bosh qahramon, ijobi va salbiy qahramon, teatr, kino.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Bolalarning turli faoliyat ko'rinishlarida badiiy adabiyot. Adabiy ertaliklar va tadbirlar. Kitob burchagi haqida), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyg'a vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Mashg`ulotdan tashqari vaqtida badiiy adabiyotdan foydalanishga turli yosh guruqlarida tashkil etilgan kitob burchagida ishlash, bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlarni sahnalashtirish, ya'ni qo'g'irchoq teatri, soya teatri (ko'lanka), stol teatri, diafilmlar namoyish etish, radio kabi tashkil etish kiradi. Tarbiyachi mashg`ulotdan tashqari qulay

vaqtida bolalarni kitob burchagidagi kitoblar bilan tanishtiradi, kitobdag'i rasmlarni ko'rsatib, u haqda suhbat o'tkazadi, asarlarni o'qib yoki hikoya qilib beradi, mualliflar bilan tanishtiradi, bolalarga oldingi mashg'ulotlardan tanish bo'lgan, shuningdek, dasturga kiritilmagan asarlarni takror o'qib berish mumkin. Mashg'ulotdan tashqari vaqtida tabiat haqidagi asarlarni, yirik she'rlarni, matal va qochirimlar, topishmoqlar, sanamalar va hokazolarni aytib berish bolalarning his-tuyg'ulariga katta ta'sir etadi. Mashg'ulotdan tashqari vaqtida (kechki soatlarda) o'rta guruhdan boshlab o'qib berilgan kitob haqida, yozuvchi va shoirlar haqida suhbatlar o'tkaziladi. Kutubxonaga, kitob do'koniga sayohatlar tashkil etiladi. Yilning turli yoz, kuz, qish haqidagi she'rlar aytib beriladi, hikoyalar, ertaklar uchun tarbiya vositasi bo'lgan materiallardan, topishmoqlardan keng foydalaniladi. Bolalarning tanish asarlar haqidagi bilimlarini tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan o'yinlarda mustahkamlash mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar faqat tinglovchi bo'libgina qolmay, balki tomoshobinlardir. Bolalar bog'chasida badiiy asarlarni sahnalashtirishning bir necha turi mavjud. Sahnalashtirilgan asarlar bolalarning estetik tasavvurini boyitadi, chunki spektaklda san'atning bir qancha turlari: badiiy so'z, tasviriy san'at (bezak, qo'g'irchoqlar), sahna san'ati, musiqa va hokazolar birlashgan bo'ladi. Spektaklning bolalarni o'ziga jalg qila olishining sababi shuki, unda ishtirok etuvchi qo'g'irchoqlar jonlanadi, to'siq orqasida yoki ekranda sodir bo'layotgan qo'g'irchoqlar jonlanadi, deb biladilar. Sevimli qahramonlari bilan qanday voqealar sodir bo'lishi haqida qayg'uradilar, qahramon og'ir ahvolga tushib qolganda yordam berishga harakat qiladilar. Ko'rgan spektakllarini bir-birlariga aytib beradilar, buning natijasida ularning nuqi rivojlanib boradi.

Qo'g'irchoq teatr jamoasi bolalar bog'chasida tez-tez spektakl namoyish etib turishadi. Qo'g'irchoq teatrini bolalar bog'chasiga taklif etishdan avval bog'cha mudirasi yoki tarbiyachi oldindan spektaklni ko'rishi va uni qaysi guruh uchun namoyish etishi mumkinligini aniqlashi kerak. Bolalar bog'chasida qo'g'irchoq yoki ko'lanka teatrini o'z kuchlari bilan tashkil etish ham mumkin. Qo'g'irchoq teatrini kunning ikkinchi yarmida ko'rsatish maqsadga muvog'iq. Qo'g'irchoq teatri zalda, agar zal bo'lmasa, guruh xonasida ko'rsatiladi. Oldindan spektaklda zaruriy narsalarni tayyorlab qo'yish kerak. Bolalarni o'tqazish uchun qulay joy tayyorlanishi, ya'ni namoyish etilayotgan narsalar aniq ko'rinishi turishi lozim.

Soya (ko'lanka) teatri bolalarda qiziqish uyg'otadi. Soya teatri ertaklarni insenirovkalashning keng tarqalgan turi. Soya teatrini namoyish etish ertak yoki hikoya masalni o'qish bilan bir vaqtida namoyish etiladi. Soya teatri o'zining bir qancha xususiyatlariga ega: siluetlarning harakatsizligi, ularni ketma-ket kuyishning imkoniyati yo'qligi; soya teatrida "**Tulki va Turna**", "**Bo'g'irsoq**", "**Sholg'om**" va hokazolarni namoyish etish mumkin. Soya teatrini imkoniyatlarini kengaytirish uchun bir qahramoning bir nechta siluetlari (ko'rinishlari) tayyorlanadi. Soya teatrini namoyish etish uchun birichi kunlarda uchta tarbiyachi ishtiroki etadi: bittasi ekran oldida o'tirib, matnni o'qiydi, ikkitasi esa ekran orasida turib, siluetlarni boshqaradi.

Diafilm va diapozitivlar oynada yoki tasma ko'rsatiladigan kitobiy suratlar. Diafilm ko'rsatish bolalarga ekranlashtirilgan asar voqeasini yaxshiroq eslab qolish imkonini beradi. Tarbiyachi diafilm tayyorlanish paytida undan foydalanishning maqsadini aniqlanishi lozim. Diafilmdan bolalarning tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'atini boyitish uchun nutqini o'stirishda, ko'ngil ochish va boshqa maqsadlarga foydalanish mumkin.

Hamma diafilmlar qiziqarli va bolalarga tushunarli bo'lishi, ularda tanish narsalar notanish narsalar bilan birgalida namoyish qilinishi lozim. Diafilmda yangi material qanchalik ko'p bo'lsa, seans shuncha qisqa bo'ladi. Bir seansda mazmunan bir-biriga yaqin kichikroq ikkita diafilmni ko'rsatish mumkin. Agar seans uzoq davom etadigan bo'lsa, bolalar toliqib qoladilar.

Bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini va undan foydalanishning eng oddiy malakalarini tarbiyalash maqsadida bolalar bog'chasingin har bir guruhida **kitob burchagi** tashkil etiladi. Kitob burchagi uchun yorug' va qulay joy tanlanadi. Kitob burchagidagi kitoblarni vaqt-vaqt bilan almashtirib turish kerak. Agar tarbiyachi kitob burchagidan qaysidir kitob onda-sonda olinayotgannini ko'rsa, bu kitobni vaqtincha olib qo'yib, bir qancha vaqt o'tgach, yana kitob burchagiga qo'yishi kerak. Kitob uzoq saqlanishi, yirtilmasligi uchun bolalar kitob betini yaxshilab ko'rib bo'lishgach, u muqovalanib qo'yiladi. Kitobni shunday muqovalash kerakki, uning yuza qismi, undagi rasmlar ko'rinish tursin.

Tarbiyachi kitob burchagida bolalarning adabiyot haqidagi bilimlarini oshirib boradi. Buning uchun bolalarni kitobning muqovasi, varag'i bilan tanishtiradi, kitobdan qanday foydalanishni o'rgatadi. Hamma yosh guruhlarida tarbiyachi bolalar bilan kitob haqida

suhbatlashadi. Ularning kitob burchagiga quyilgan kitoblar mazmunini bilish-bilmasliklari, illiyustratsiyalarni ma'nosiga tushunishlari bilan qiziqadi, bolalarning uylari qanday kitoblar borligini surishtiradi.

Tarbiyachi bolalarning kitob burchagida o'zлari qanday tutishlarini, kitobga qanday munosabat bo'layotganliklarni, bolalarning kitobdagi rasmlarni ko'rishga qanchalik e'tibor berayotganliklarini nazorat qilib, bolalar bilan yakka tarzda shug'ullanadi.

Mavzuni mustahkanlash uchun savollar

1. Mashg'ulotdan tashqari paytlarda badiiy adabiyot o'rgatishning mazmun va vazifalarini ayting.
2. Badiiy adabiyot o'rgatishning mundarijasi nimadan iborat bo'lishi kerak?
3. Nutqning ravonligi va tovush madaniyatini tarbiyalovchi badiiy adabiyot janrlarini izohlang.
4. Bolalarni mehnatga o'rgatishda, odoblilik ruhida tarbiyalashda maqollarning ahamiyatini ifodalang.
5. Badiiy asarlardagi obrazlar xatti-harakatini qiyosiy o'rganishga misollar keltiring.
6. Badiiy asarlarda badiiy tasviriy vositalarning o'rnini belgilang.

11-Mavzu: Bolalar savodxonliligin shakllantirishga tayyorgarlik

Reja:

1. Savodxonlilikni shakllantirishning mazmuni va vazifalari.
2. Savodxonlilik ta'limi usullari tarixidan.
3. Savodxonlilik ta'limining asosiy yo'naliishlari.
4. Savodxonlilikning bog'cha ta'limidagi dasturiy talablari.

Asosiy tayanch so'zlar:

Savodxonlilik, so'zni bo'g'inga ajratish, savodxonlilikning psixologik nuqtalari, savodxonlik tarixi, yangi alifbo, gapni qismlarga ajratish, yangi tovushni o'rganish, bosma harflarni o'rganish, alifboden so'z va gapni o'qish.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Savodxonlilikni shakllantirishning mazmuni va vazifalari)Savodxonlilik ta'limi usullari tarixidan. Savodxonlilik ta'limining asosiy yo'naliishlari. Savodxonlilikning bog'cha ta'limidagi dasturiy talablari), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Bog'chada, oilada o'qish va yozishga o'rgatish umumrivojlantiruvchi yo'nalishga ega bo'lib, u bolada fikr yuritish qobiliyat, axloqiy-irodaviy, estetik va boshqa shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Demak, bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalarida, oilada o'qish va yozishga o'rgatish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim sharti deyish mumkin. Shuning uchun bolalar bog'chasi tarbiyachilari (bolalar boshlang'ich sinflarda o'qishni muvaffaqiyatli boshlab ketishlari uchun) o'qish va yozishga (savodga tayyorlashga) o'rgatish davri, vazifalari, mazmuni va uslubiyotlarini juda yaxshi bilishlari kerak.

Maktabda bolalarni **o'qish va yozishga (savodga) o'rgatish** 3- 5 oy davom etadi va u uch davrni - **alifbogacha davr, alifbo davri, alifboden keyingi davrlarni** o'z ichiga oladi.

1-davr. Alifbogacha bo'lgan davr 3-7 kun davom etadi va bu davr ichida bolalar nutqi rivojlantiriladi, gaplarni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inga va hokazolarga ajratishga o'rgatiladi.

2-davr. Bu alifbo davri hisoblanib, bunda bolalar o'zbek tilidagi barcha tovushlar va ularning harf belgilari bilan tanishadilar.

3-davr. Alifboden keyingi davr 10-12 kun davom etib, bunda bolalar hamma tovush va harflarni o'rganib oladilar. Bu davrga kelib, bolalar endi alifbodagi hikoyalar, she'rlar, syujetli rasmlarni va rasm ostidagi yozuvlarni (gaplarni) o'qiy oladigan bo'ladilar. Chunki alifboden keyingi davrning maqsadi hamma bolalarda bo'g'inlab to'g'ri o'qish malakasini hosil qilishdan iboratdir.

Maktabda bolalarni yozishga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan bir vaqtda olib boriladi. Ammo bolalar maktabda tez va puxta savod chiqarishlari uchun poydevor bog'chaostonasida qurilgan bo'lishi kerak. Aytish lozimki, maktabga qadam qo'ygan bolalar tez savod chiqarishga qiziqadilar. Shu bois agar bolalar maktab ta'limiga yaxshi tayyorlangan bo'lsa, o'qish va yozish jarayonini osonlik bilan o'zlashtiradilar.

Maktabga borish bolalar hayotida yangi bir dunyo hisoblanadi. Endi ularning faoliyatlarida turli o'zgarishlar yuz beradi. Odatda, maktab yoshidan boshlab bolalarning asosiy faoliyatları, vazifalari o'qish hisoblanadi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyati bo'lgan o'qish ularning yangi sifat, yangi xususiyatga ega bo'lishlarini taqozo eta boshlaydi. Endi o'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustahkam xotira va tafakkur, yaxshi nutq, iroda shuning bilan

birga mustaqillik, ishchanlik, batartiblik sifatlari tarkib topgan bo'lishi kerak.

Bolalar mакtabga o'tishlari bilan ularning ijtimoiy holatlarida ham o'zgarishlar ro'y beradi. Masalan, 6 yoshli bolalar bog'chada katta guruh bolalari, 7 yoshlilar esa mакtabga tayyorlov guruhi bolalari deb yuritiladi. Shunga qaramay, yetti yoshli bolalar mакtabda kichkintoylar hisoblanishadi.

6-7 yoshli bolalar mакtabga o'tishlari bilan ulardagi bunday o'zgarishlarni nazarda tutib, ularni mакtabdagi yangi hayotga har tomonlama tayyorlash kerak.

Ma'lumki, bolalar bog'chasingning asosiy vazifasi bolalarga har tomonlama tarbiya berib, ularni mакtabda o'qiy oladigan qilishdan iborat. Bu esa o'z navbatida mакtabdagi o'qish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida muayyan izchillik bo'lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, bog'chada bolalarning jismoniy o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy, axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Bolalarni mакtabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, ular bilan o'tkaziladigan ta'limiy mashg'ulotlarda bolalarning idroki, diqqati, tafakkur va xotiralar, xayol hamda tasavvurlari, irodaviy sifatlari doimiy ravishda rivojlantirib boriladi.

Bog'chada bolalar nutqini o'stirishga alohida e'tiboga ega. Chunki bolalar nutqining qay daraja rivojlanish, ularning mакtabda o'qishga qanchalik tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi ishonchli dalil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun tayyorlov guruhidagi bolalarni mакtabga tayyorlaishda ularning o'z ona tilini yaxshi, puxta o'rganisnlariga, ya'ni so'z boyligini orttirishlariga, to'g'ri talaffuz qilishlariga, to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga alohida ahamiyat berish kerak. Bog'cha va oila hamkorligida bolalarni mакtabga tayyorlashda ularning qiziqishlariga jiddiy e'tibor beriladi.

Katta guruh bolalari uchun mакtab hayoti doimo qiziqarli hisoblanadi. Shu bois tarbiyachi va ota-onada bunday qiziqishni qo'llab-quvvatlashi va yanada ortirib borishi kerak. Buning uchun esa mакtab va unda o'qish haqida qiziqarli suhbat o'tkazish hamda yaqin atrofga sayohat uyushtirish foydalidir. 6-7 yoshga to'lish davri go'daklikning tugashi va ilk yosh boshlanish davriga to'g'ri keladi. Ana shu davrdan boshlab bolalarni uzluksiz o'qishga o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu davrga kelib 6-7 yoshli bola jismonan va ruhiy jihatdan ancha o'sadi. O'zini idora qilishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga

harakat qiladi. U o'zini bemalol eplaydigan bo'ladi, o'z kuchiga yarasha mehnat qiladi. Bu davrda bolaning fikrlash darajasi ham ancha oshib, narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tafakkuri rivoj topib, ko'pgina she'r va hikoyalarni bilib oladi. So'z boyligi ortadi. Natijada u o'rtoqlari bilan erkin suhbat qura oladi, harakati mustahkamlanadi. U qaychi, ruchka, ignadan bemalol foydalana oladi. Shunday bo'lsada, 7 yoshli bola mакtabga borganidan keyin ham uning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. O'yin jarayonida o'z-o'zini idora qilishga, javobgarlikni his qilishga, jamoa manfaatini farqlay olishga odatlanadi.

Bolalar 1-sinf borar ekanlar, ular savod chiqarishga puxta hozirlik ko'rgan va o'qish malakasini egallashga yaxshi tayyorlangan bo'lishlari kerak. Shuning uchun 6 yoshli bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarda madaniy nutq saviyasini oshirishga, tovush eshituv diqqatini rivojlantirishga, ona tiliga qiziqishini tarbiyalashga, so'zni tovush jihatdan tahlil qila olish malakasini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Shuningdek, bolalar tovushlarni ko'rinishiga qarab bir-biridan farqlashga, so'zdagi urg'ularni belgilay olishga, gaplarni so'zlarga ajratishga, berilgan 2-3 ta so'zdan gap tuzishga va ularning ketma-ketligini ayta olishga (1- so'zni ayt, 2- so'zni ayt) o'rgatilishi kerak. Bolalar o'zbek tilidagi barcha harflarni bilib olishlari va kesma harflardan so'z va gaplar tuzib uni o'qiy olish malakalariga ham ega bo'lishlari lozim. Berilgan va tuzilgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga o'rgatish ham o'qish va yozishga o'rgatish ishining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Katta guruhlarda nutq bolalar uchun dastlabki o'quv manbayi hisoblanadi. Tarbiyachi va ota-onalarni og'zaki nutqqa haqiqiy til fani sifatida munosabatda bo'lishga hamda bolalarga so'zlarni tovush jihatdan tahlil qilishga o'rgatadi.

Analiz va sintez tafakkurning asosiy jarayonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tahlil shunday bir tafakkur qilish usulidirki, bunda narsalarni ayrim elementlarga, ayrim qismlarga ajratamiz. Tahlil jarayonida narsalarni tarkibiy qismlarga ajratish orqali butunni qismlarga, qismlarni esa butunga bo'lgan munosabatini aniqlaymiz. Demak, tahlil qilish orqali biz narsalarni ichki bog'lanishlarini, ularning mohiyatini aks ettiramiz. Natijada, ongimizda juda ko'p narsalarni tahlil qilishimiz mumkin. Masalan, qo'limizdagi ruchqani, suvni, stulni, nutqdagi gaplarni tahlil qilish va ularni tarkibiy qismlarga ajratishimiz mumkin.

Sintez-tahlilning aksi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Sintez qilishda biz analiz qilish vaqtida ayrim bo'laqlarga ajratilgan narsalarning qismlarni birlashtirib, bir butun holga keltiramiz. Demak, analiz va sintez bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Bolalarni savodga o'rgatish jarayonida sintez va analiz jarayonlarining juda katta ahamiyati bor. Masalan, tovushlardan bo'g'inlar, bo'g'lnardan so'zlar, so'zlardan gaplar tuzish va gaplarni nnutqda ishlatish, aksincha, nutqdan gap ajratib olish, gapni so'zlarga ajratish va uni tarkibini aniqlash, so'zlarni qismlarga, bo'g'lnarga ajratish, bo'g'lnarnitovushlarga ajratish analiz va sintezning asosi hisoblanadi.

Shundan aytish mumkinki, analiz va sintez savodga o'rgatishning asosiy metodlaridan biridir. Savodga o'rgatishdagi dastlabki vazifa bolalarni tovush eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Ammo bolalar nutqdagi tovushlarnigina emas, balki ularning turlarini, unli va undosh tovushlar ekanligini hamda asosiy va yordamchi so'zlarni bilishlari ham kerak. Tarbiyachi bog'chada bolalarni so'zlardan gaplar tuzishga, gaplarni so'zlarga ajratishga, gapdagi so'zlarning tartibini aytishga (birinchi so'z nima, ikkinchi va uchinchi so'z nima). Keyinroq shu so'zlardan yana qayta gaplar tuzishga, so'zlarni qismlarga, ya'ni bo'g'lnarga ajratishga (1-bo'g'in nima), bo'g'inni birlashtirib so'z tuzishga o'rgatishi lozim.

Savodga o'rgatishning bu jarayonida analiz va sintez metodidan faol foydalaniladi. Maktabda o'qituvchi bolalarga so'zni bo'g'inga, bo'g'inni tovushga ajratishga o'rgatishdan oldin kesma harflardan qanday qilib so'z tuzishni va so'zni o'qishni hamda yozishni o'rgatadi. Bog'chada ham har bir bolada kesma harflar bolishi lozim, bu savodga o'rgatishda muhim qo'llanma hisoblanadi. Bola bog'chada kesma harflar yordamida bo'g'in va so'z tuzishga o'rganib olgach, u maktabda yozishni va bo'g'lnab o'qishni yaxshi egallab oladi. Kesma harflar bilan so'zlarni aytishi va yozilishini qiyoslash esa endi ayrim qismlari o'xshash so'zlarni, harflarni o'zgartirish bilan boshqa so'z tuzish imkonini beradi. Bolalar maktabda kesma harflar bilan ishslash jarayonida so'z va bo'g'lnarni yozib boigach, o'qishni mashq qiladilar, demak, bu sintezdir.

Analiz va sintez savod o'rgatishning hamma bosqichlarida bir-biri bilan bog'liq holda olib boriladi, shuning uchun ham analiz va sintez deb aytildi. Yangi tovush va harflarni analiz va sintez metodi bilan o'rgatish quyidagi tartibda olib boriladi:

Analiz

1. Nutqdan gap ajratib olish.

2. Gapni so'zlarga bo'lish va so'z tanlab olish.
3. So'zni bo'g'lnlarga bo'lish.
4. Yangi tovushli so'zni bo'g'lnlarga bo'lish, bo'g'indan yangi tovushni ajratib olishni o'rgatish. Bosma harfda o'rgatilgan tovushning yozma shakli bilan tanishtirish.

Sintez

1. Harf va tovushlardan bo'g'in va so'z tuzish.
2. Tuzilgan so'zni aytish.
3. So'zlardan gaplar tuzish.

Analiz va sintez asosida dastlabki og'zaki mashqlar o'tkazish usullari savod o'rgatishga tayyorgarlik davri va savod o'rgatish jarayonida dastlabki suhbat mashqlari o'tkaziladi. Suhbat tovush jadvalining chap tomonidagi rasm asosida o'tkaziladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Savodxonlilikni shakllantirishning qanday mazmuni va vazifalarini bilasiz?
2. Savodxonlilik ta'limi usullari tarixi xususida nimalar bilasiz?
3. Savodxonlilik ta'limining asosiy yo'nalishlari haqida gapiring.
4. Analiz qilish usulini izohlang.
5. Sintez usulini tushuntiring.
6. Savodxonlilikning bog'cha ta'limidagi dasturiy talablari nimalardan iborat?

12-mavzu: Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash

Reja:

1. Maktabda tayyorlashda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish ahamiyati.
2. Maktabda o'qish va yozishga o'rgatish davrlari.
3. Analiz va sintiz tovush metodi asosida savodxonlikni takomillashtirish.
4. O'qishga o'rgatish va yozuv ishida dastur materiallari.

Asosiy tayanch so'zlar:

Maktab, oila, o'qish, yozuv, davr, olti yosh bolalar, og'zaki nutq, yozma nutq, qalam, daftar, ko'rgazma, savodxonlilik, o'quvchi, o'qituvchi, yozuv taxtasi, dastur.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg`ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Maktabda tayyorlashda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish ahamiyati Maktabda o'qish va yozishga o'rgatish davrlari. Analiz va sintiz tovush metodi asosida savodxonlikni takomillashtirishO'qishga o'rgatish va yozuv ishida dastur materiallari), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantrish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro`yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Maktabga tayyorlashda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatishning ahamiyati. Bolalar bog'chasida bolalarga o'qish va yozishni o'rgatishning boshlang'ich bilimlarini berish, ya'ni bolalarga so'z haqida tushuncha berish, so'zlardan gaplar tuzishga o'rgatish, gaplarni so'zlarga ajratish va ular tartibini aytishga (so'zlarni qismlarga, bo'g'lnarga ajrata olishga), o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarni aytish va ularni so'zlarda tahlil qila olishga, o'rgangan harf va tovushlardan bo'g'in yasay olishga, harf elementlarini yozishga va hokazolarga o'rgatish lozim. Bola mакtabga borgunga qadar shunday malakalarga ega boishi, uning mакtabda muvaffaqiyatli o'qishining garovi hisoblanadi.

Maktabga kelgan bolalar bilan ularni kutib olgan o'qituvchi suhbat o'tkazadi. Suhbat uchun tuzilgan gaplarni nutqdan ajratish ustida mashq qilinadi. Bolalar bog'chasida esa "**Sholg'om**" ertagi uchun ishlangan rasm yuzasidan suhbat va tovush jadvalining chap tomonida berilgan rasmlar bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Suhbatlarni jonli, ko'rgazmali bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak. Suhbat uchun faqat jadvaldagি rasmlardan emas, balki uning mazmunini to'ldiruvchi boshqa rasmlardan ham foydalanish mumkin.

Bolalarni o'qish va yozishga o'rgatishda analiz va sintez metodi bolalarni savodga tez o'rgatibgina qolmay, balki ularning nutqini, diqqatini, xotirasini, tafakkurini rivojlanishiga yordam beradi.

O'qish va yozishga o'rgatish jarayonida (savodga o'rgatishda) ona tilini puxta o'rganish manbayi jonli nutq hisoblanadi.

Endigi vazifa bolalarni jonli nutqdan tovushlarni ajrata olishga (analiz qilishga), bu tovushlarni harflar bilan belgilashga, tovush va harflardan bo'g'in va so'zlar to'za olishga (sintez qilishga) o'rgatishdir. Bolalarning barchasi bolalardan nutqni eshitishni (fonematik qobiliyatining rivojlanganligini, nutqni harakatga keltiruvchi apparatlardan erkin foydalana olishlarini) talab etadi.

Shuningdek, o'qish va yozishga o'rganish uchun nutqni so'zlarga ajratish, so'zlarni esa bo'g'lnarga va tovushlarga ajratish mumkinligini; ajratilgan nutq elementlaridan bo'g'in va tovushlardan yana so'z hosil qilish mumkinligini tushunish zarur.

Bolalarni o'qishga puxta o'rgatish jarayonida quyidagi asosiy didaktik jihatdan bajarish zarur:

1. O'rgatishdagi izchillik, ketma-ketlik.
2. Doimiy ravishda takrorlashning zaruriyligi.
3. Sekin-asta murakkablashtirib borish.
4. Ishning turli usullarini qo'llash.

5. O'rgatish jarayonida bolalarning ta'lif jarayonida faol ishtiroki va matnni tushungan holda o'zlashtirishlari.

Bolalarning barchasi tarbiyachini tinglash, bergen topshiriqlarini mustaqil bajarish, nimani ko'rgan va eshitganligini, esida qolganligini gapirib berish masalasiga o'rgatish orqaligina amalga oshiriladi. Bolalarni o'qishga o'rgatishda bolalar bog'chasi bo'lgan materiallar va o'yinchoqlar, maishiy-xo'jalik buyumlari, rasm va jadvallar, kesma harflar va bo'g'in jadvallaridan foydalanish shart. Shuningdek, so'zlarni, bo'g'inxilarni, tovushlarni aniq talaffuz etish, gap va matnlarni ifodali o'qish ham katta ahamiyatga ega. Maktabga tayyorlov guruhida ishni gap bilan tanishtirishdan boshlash kerak. Bu vaqtga kelib bolalar gapni so'zlarga, so'zlarni esa bo'g'inxilarga ajrata olishlari lozim. Har bir bola amaliy jihatdan nutqni yaxshi egallagan bo'lishi mumkin, ammo ular o'z nutqlari hali alohida so'zlardan, so'zlar esa bo'g'in va tovushlardan iborat ekanligini bilishmaydi. Endi ular ilk bor o'z nutqlarini tahlil qilishga o'tadilar. Tahlil qilishni doimiy ravishda o'rgatib borish kerak.

Bolalar butun sentabr oyida nutqdan gapni ajratishga, tarbiyachining savollariga javob berishga, rasmga qarab va berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzishga o'rganadilar, sayr va sayohatlarda nimalarni ko'rganliklari haqida gapirib beradilar.

Endi ular har bir gapda so'zlarni, ularning tarkibi va miqdorini aytishi olishlari, alohida so'zlardan gap tuza olishlari darkor. Har bir mashg'ulotda bola nutqini va fikrini rivojlantiruvchi ish bo'lishi lozim. Bosma harflar bilan yozilgan so'z, bo'g'in amaliy zaruriyat bo'lib hisoblanishi kerak. Tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarga rasmlar bosma harflar bilan **o'z nomlari (bolalar ismlari)** ni yozishni o'rgatib, yaqin kishilari: **ota, ona, aka, uka, opa, singil, xola, amma, tog'a, o'rtoq** va boshqalar haqida so'z va gaplar tuzishga doir mashqlar o'tkazishi lozim. So'zlarni bo'g'in, tovush tarkibi bilan taqqoslash, bir bo'g'inni ikkinchi bir bo'g'in bilan yoki bir harg'ni ikkinchi bir harf bilan almashtirish, berilgan so'zga bo'g'in yoki harfni qo'shish - bularning barchasi bolalarni o'qishga o'rgatish ishining ajralmas qismi bo'lib qolishi kerak.

O'qishga o'rgatish mashg'ulotini quyidagi ketma-ketlikda o'tkazgan ma'qul:

1. Rasm, jadval yoki tinglangan hikoya, ertak yuzasidan qisqa suhbat.
2. Yangi bo'g'inli so'zni ajratib olish, uni bo'g'in va tovush tomonidan tahlil qilish.

3. Kesma harflardan so'z tuzish, uni o'qish.
4. Mustaqil ravishda yangi bo'g'in ishtirokida so'z tuzish.
5. Tuzilgan so'zlarni ovoz chiqarib o'qish va ularni og'zaki nutqqa kiritish.
6. To'g'ri chiziq daftarga yangi bo'g'in bilan tuzilgan so'zni bosma harfda yozish va yozilganni o'qish.

Odatda, dastur vazifalari oyma-oy taqsimlanadi. Chunki har bir bo'lim ona tiliga o'rgatishning boshqa bo'limlari bilan chambarchas bog'liqdir. Mashg'ulotlar oyma-oy taqsimlanganda, ba'zi oylarda mashg'uloti to'rt emas, balki beshta rejalashtirilishi mumkin. Shuni hisobga olib tarbiyachining bolalarni o'qishga va yozishga o'rgatish mashg'ulotini rejalashtirishni xohishiga ko'ra belgilab oladi.

Gapdagi so'zlar tarkibi to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash. Berilgan so'zlardan gap tuzish, gapdagi so'zlar tarkibi tovushlarni aniqlash, so'z haqidagi tushunchani mustahkamlash, gapdagi so'zlar tarkibi to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash, o'zning bo'g'in tarkibi bilan tanishtirish bu sohadagi metodik ishlarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bolalarni savodga (o'qish va yozishga) o'rgatishda so'zning bo'g'in qurilishi bilan tanishtirish katta aharaiyatga ega. Bolalar o'qishga o'rgana boshlaganda, so'zni bo'g'inlab o'qishga o'rganadilar. So'z bo'g'indan tashkil etilganligi to'g'risidagi ilk tasavvurni, bolalar tarbiyachining namunasida, ya'ni so'zni bo'g'inlab talaffuz etishini eshitish orqali erishadi. Namuna ko'rsatishdan avval, bolalar oldiga quyidagi vazifani qo'yish muhim, ya'ni ulardan so'zni qismlarga ajratib talaffuz etish mumkinmi? deb so'raladi. "**Qism**" degan **atama** ilk mashg'ulotda (birinchi mashg'ulotda) "**Bo'g'in**" **atama** o'rnida ishlatiladi, chunki bolalar dastlabki mashg'ulotda bo'g'in va so'zni bir-biriga aralashtirib yuboradilar. Keyinchalik, so'zni bo'g'in qurilishini tahlil qilishga o'rganib olganlaridan so'ng, "**Bo'g'in**" atamadan foydalilanadi, bu jarayonda bolalarga quyidagicha tushuncha beriladi: so'zning qismi "**Bo'g'in**" deb aytiladi, chunki so'z bo'g'inlardan tuzilgan bo'ladi.

Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: - So'z gap so'zlardan iborat ekanligini bilasiz. Firuza, menga uch so'zdan iborat bo'lgan birorta gapni ayt. (Bolalar quvnoq kuylashyapti...) To'g'ri. Endi sen, Shuhrat, bu gapni birdaniga aytmasdan, bir so'zni ikkinchi so'zdan ajratib, alohida-alohida, hammaga eshitarli qilib aytgin. Endi gapdagi birinchi so'zda qanday tovushlarni tinglaymiz. Bu so'zni birdaniga talaffuz

etmay, qismlar bo'yicha aytish mumkinmi? Tarbiyachi bu savollarni berish orqali bolalarning diqqatlarini faollashtiradi hamda ularning oldiga so'zni qanday talaffuz qilish kerakligini vazifa qilib qo'yadi. Bu esa bolalarni so'zning bo'g'in tarkibini tushunib olishlarini yengillashtiradi.

Tarbiyachi bo'g'inlab talaffuz etgan so'z bolalarning so'zni tushunib, idrok etishiga yordam beradi. **Tarbiyachi** bolalarga "**So'zni bordaniga emas, qismlarga ajratib talaffuz etish mumkinmi?**" deb murojaat etadi. Bolalar so'zni ovoz chiqarmasdan pichirlab qismlarga ajratib talaffuz etadi. Bunday vazifani hamma bolalar ham oson bajara olishmaydi. Shuning uchun bolalar qiyngagan vaqtida tarbiyachining o'zi dastlab ikki bo'g'inli so'zni (**ol-ma, sab-zi, shol-g'om** va hokazo) bo'g'inlab talaffuz etadi. Shundan so'ng bolalar tarbiyachi namunasi asosida so'zni qismlarga bo'lib talaffuz etadilar. Bolalarni so'zni bo'g'inlab talaffuz etishga o'rgatishdan maqsad, so'zni bo'g'in qurilishi prinsipini anglab olishga yordam berishdir. Ular so'zdagi birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo bo'g'inni yaxshi eshitishlari va aytishlari, berilgan bo'g'inga mos so'z tuzishlari kerak. So'zning bo'g'in tarkibi bilan tanishtirishning bir qancha usullari mavjud. Ulardan ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz:

1. Tahlil qilinishi lozim bo'lgan so'zning bo'g'in tarkibini bildiruvchi chizma tasvir.

2. Ma'lum miqdordagi bo'g'in tarkibidan iborat bo'lgan so'zni tanlash. Buning uchun bolalar tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqqa asosan taalluqli miqdorda bo'g'ini bo'lgan so'zni esga tushiradilar yoki rasmli kartochkalar ichidan so'zning tarkibida kerakli miqdorda bo'g'ini bo'lgan rasmli tarqatma tanlaydilar.

3. Ma'lum bir bo'g'in tarkibidan (**so, sa, zi, ak** va boshqalar); bo'g'inning o'rni berilishi mumkin (shunday so'zni eslanglarchi, uning tarkibidagi ikkinchi bo'g'in, sa bo'lsin); tarkibida uchta bo'g'ini bo'lgan so'zni toping. ("**Nomni bildiruvchi so'z uch bo'g'indan iborat bo'lib, oxirgi bo'g'ini bo'lgan rasmni toping**") " degan topshiriq beriladi.

4. Ma'lum bir bo'g'in bilan boshlanadigan so'zni tanlash. Tarbiyachi so'zning birinchi bo'g'inini aytadi, bolalar uni keyingi bo'g'inini topib, so'zni to'ldiradilar. Bolada so'zni bo'g'inga ajratishga va bu so'zni bo'g'indan tuzishga o'rgatishda "**Jonli so'zlar**" ta'limiy o'yindan foyrnlanshlari mumkin.

Quyida bolalarni so'zni qism (bo'g'inlar)ga ajratishni o'rgatishga doir mashg'ulotning taxminiy borishini misol tariqasida keltiramiz.

Tarbiyachi bolalarga so'zning qismi haqida tushuncha berish uchun so'zlarni qismiga (bo'g'inlab) ajratib talaffuz etiladigan so'zlar kiritilgan hikoyadan foydalanadi. Hikoyaning taxminiy matni quyidagicha: Maftuna chilvirda sakrashni juda yaxshi ko'radi. U onasidan chilvir olib ko'chaga yugurdi. Ko'chada dugonalaridan hech kim yo'q edi. Maftuna dugonalarini baland ovoz bilan chaqira boshladi: **Ze-bo! Gav-har! Ha-li-ma! Sa-no-bar!** Dugonalari uning ovozini eshitib, yugurib kelishdi va birgalikda o'ynay boshlashdi.

Har oyda yozishga o'rgatishga doir 4 tadan mashg'ulot o'tkaziladi. Har haftada mashg'ulot bir marta o'tkazilib, u 25-30 daqiqa davom etadi.

Bolalarni yozishga o'rgatishda gigiyenik sharoitlarga amal qilish, alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'tiradigan stol-stullar ularning bo'yiga mos bo'lishi kerak. Yozish vaqtida bolaning gavdasi to'g'ri holatda, boshi oldinga biroz egilgan, oyoqlari tizzadan bukilib, to'g'ri burchak hosil qilishi va oyoq panjalari, poshnasi polda yoki oyoq kuygichda turishi shart. Bolalar oyoqlarini stol tagiga uzatib, bir-biriga chalishtirib, bir oyog'ini ikkinchi oyog'i ustiga qo'yib yoki oldinga cho'zib yoyib o'tirmasligi darkor. Bolalar qo'llarini stol qirrasiga tirsakdan qo'yib, 45° burchak hosil qilib o'tirishlari lozim. Shunday holatda bolaning o'ng qo'li daftar ustida bo'ladi, chap qo'li esa daftarning chap qirrasini yengil ushlaydi. Yozish vaqtida qo'l holatini to'g'ri bo'lishi juda muhimdir, chunki haddan tashqari boshni egish, bolaning ko'ruv organiga zarar yetkazadi. Stol qirrasi bilan yozayotgan bolaning ko'kragi orasidagi masofa 3-5 sm, ko'z bilan daftar varag'ining oralig'idagi masofa 30-35 sm bo'lishi kerak. Hozirgi talablarga muvofiq yozish vaqtida egilish daftarning gorizontal holatiga nisbatan 65° , daftarning qirrasi stol qirrasiga nisbatan 25° bo'lishi kerak. Yozish uchun yumshoq qalam bo'lishi lozim. Uning uchi qisqa, uchli qilib chiqarilgan bo'lishi kerak. Tarbiyachi bиринчи mashg'ulotda bolalarni to'g'ri o'tirishga, qalamni to'g'ri ushlashga, daftardan qulay foydalana olishga o'rgatadi. Keyingi mashg'ulotlarda ham bu talablarning to'g'ri bajarilishi tarbiyachi tomonidan doimiy suratda nazorat qilib boriladi. Bolalarni harf shakllarini yozishga o'rgatishdan oldin, ularni tayyorlab boriladi.

Bolalar qo'lini yozishga o'rgatish mashqlarini o'tkazish davrida (to'rt oy mobaynida) to'g'ri o'tirish, qalamni to'g'ri ushslash, daftarning to'g'ri holatda bo'lishi kabilar ustida ham mashq qilib boriladi. Daftarning qatorlar chegarasida chizish vositasida ko'z bilan chamalash,

qo'l barmoqlari va undagi mayda musqo'llar rivojlantiriladi. Bularning barchasi harf shakllarini yozishga tayyorgarlik ishlari bo'lib hisoblanadi.

Yanvar oyidan to may oyigacha bolalar harf shakllarini (haftada bitta mashg'ulot) yozishga o'rganishadi. Harf elementlarini daftarga yozishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilish kerak: ular yozishni boshlagan qatorni oxiriga yetkazishlari kerak, yozishni boshlagan sahifani to'ldirish darkor. Har bir mashg'ulotda o'rganishning boshida albatta 2-3 qator yozish kerak. Zarur malaka hosil bo'lgach, 5 qator yozish mumkin. Turli harfning har bir elementi ko'p marta takrorlanib yozilishi tufayli, bir elementni yozish ustida uzoq to'xtab o'tishga zarurat qolmaydi.

Harflarning asosiy va qo'shimcha unsurlari mayjud:

1. To'g'ri chiziq (tayoqcha) uchini pastga bosib aylantirish.
 2. To'g'ri chiziq (tayoqcha) uchini yuqori tomon aylantirish.
 3. To'g'ri chiziq (tayoqcha) ning yuqori va pastki uchlari aylantirilgan.
 4. Ilkita birlashtiruvchi to'lqinli chiziqchadan iborat to'g'ri chiziqcha (tayoqcha).
 5. Ilmoqli uzun to'g'ri chiziq (tayoqcha).
- Bolalar bog'chasida harflarning oddiy unsurlari o'rganiladi. Bolalarni u yoki bu harf unsurlari bilan tanishtirishni quyidagi izchillik (ketma-ketlik) asosida olib borish mumkin:
1. Oldingi ishlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish.
 2. Tarbiyachi tomonidan yangi materialni yozuv taxtasida ko'rsatish.
 3. Tarbiyachi rahbarligida namunani muhokama qilish. Yangi materialni bolalar tomonidan tarbiyachi rahbarligida sanab turish bilan yozish va mustaqil bajarish.

4. Yozilganni tahlil (analiz) qilish. Bolalar bajargan ishlarni mustaqil ko'rib chiqishadi, qatorga yozilgan harf elementlari ichidan yaxshi yozilgan elementni aniqlab, ana shu namuna asosida qo'shimcha yana bir qator yoki ikki qator yozib chiqishadi.

5. Bolalarni harf elementlarini yaxshi yozishga o'rgatish bu bolalar harfning o'zini yozishni o'zlashtirishlarini yengillashtiradi.

To'g'ri tayoqchani yozish. Tayoqchani yozishda quyidagilarga erishish zarar:

- a) tayoqchani yuqori qator chiziqchadan yozishni boshlash va uni pastki qator chiziqchada tugallash;

b) tayoqchalar orasidagi masofani bir xilda bo'lishligiga amal qilish (egri chiziq bo'ylab 2 katak qoldirish).

d) tayoqchalarni to'g'ri chiziq ko'rinishida tasvirlash, qiyshayishiga yo'l qo'ymaslik, yordamchi egri chiziqdan chiqmasliq

Bolalar daftarga xuddi tarbiyachi tushuntirganidek, namunaga qarab, tayoqchani yoza boshlaydilar. Ikkinci qatorni nuqta yordamida topadilar, ammo bir tayoqcha bilan ikkinchi tayoqcha oralig'idagi masofaga rioya qilingan holda nuqtasiz tayoqchani yozadilar.

Bir mashg'ulot davomida uch qator yoza olishlari mumkin.

Xatolarni o'z vaqtida tuzatib borish zarur. Qiynaladigan bolalarga yordam berish, topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganlarni rag'batlantirib borish kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Maktabda tayyorlashda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish ahamiyati xususida gapiring.

2. Maktabda o'qish va yozishga o'rgatishning qanday davrlarini bilasiz?

3. Alifbogacha bo'lgan davr mashg'ulotlari qanday tarzda tashkil etiladi?

4. Alifbo davri mashg'ulotlari tashkil etish yo'lari haqida gapiring.

5. Alifboden keyingi davr mashg'ulotlari qay tarzda tashkil etiladi?

6. Analiz va sintiez tovush metodi asosida savodxonlikni takomillashtirishni misollar asosida tushuntiring.

7. O'qishga o'rgatish va yozuv o'rgatishning metodik talablarini ayting.

13-mavzu: Maktabgacha muassasalarda nutq o'stirish ishini tashkil etish

Reja:

1. Bog'chada to'g'ri nutq o'stirish ishining qulay sharoiti.
2. Nutq o'stirish ishining gigienik sharoiti.
3. Atrofdagi kishilar bilan munosabatni shakllantirish.
4. Nutq o'stirish bo'yicha qo'llanmalar.

Asosiy tayanch so'zlar:

Maktabgacha muassasalar, gigienik talablar, atrofdagi kishilar, ota-onalari, kattalar, oshpaz, xizmatchi, tarbiyachi, musiqachi, shifokor, usuliy ishlar.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma'ruza mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Bog'chada to'g'ri nutq o'stirish ishining qulay sharoiti. Nutq o'stirish ishining gigienik sharoiti. Atrofdagi kishilar bilan munosabatni shakllantirish. Nutq o'stirish bo'yicha qo'llanmalar.), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyg'a vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Tilshunoslik bolalar nutqni kattalarga taqlid qilish yo'li bilan egallab olishlarini isbotlab berdi. Tarbiyachining nutqi ona tilini endigina o'r ganayotgan bolalar uchun namuna va ularga ta'sir etish vositasidir. Bolalar hali tajribalari yo'qligi, nutqlari yaxshi rivojlanmaganligi sababli kattalar nutqidagi yaxshi jihatlarga ham yomon tomonlariga ham bir xilda taqlid qilaveradilar.

Har bir yosh guruhdagi bolalar, o'z tarbiyachilari bilan maishiy-xo'jalik, mehnat, o'yin faoliyatiida muloqotda bo'ladilar. Tarbiyachi bolalar o'yinini tashkil etadi, badiiy asarlarni o'qib beradi yoki hikoya qiladi. Mana shu jarayonda tarbiyachi nutqining yaxshi tomonlari ham, nuqsonlari ham yaqqol namoyon bo'ladi va bu xususiyatlar tarbiyalanuvchilar nutqida o'z aksini topadi. Demak, tarbiyalanuvchilarining nutq xususiyatlari to'laligicha tarbiyachi nutqiga bog'liq. Doimo bolalarning diqqat markazida bo'lgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun madaniy nutq namunasi hisoblanadi. Tarbiyachi tomonidan ifodali va mazmunli qilib o'qib berilgan yoki hikoya ko'ringan ertak bolalarda badiiy asarlarga qiziqish va muhabbatni tarbiyalaydi, so'zning sehrli (jozibali) kuchini his etishga o'rgatadi, asar mazmunining xotirada uzoq, saqlanishini ta'minlaydi, aksincha, xuddi shu hikoyani yoki ertakni quruq, mazmunsiz, tez tempda, past ovozda hikoya qilib berish bolalarni zeriktiradi, toliqtiradi, badiiy asarga bo'lgan muhabbatini, qiziqishini so'ndiradi, boladagi ruhiy jarayonlarning (xotira, hissiyot, diqqat, tafakkur va hokazolar) rivojlanishini chegaralab qo'yadi.

To'g'ri nutq malakasi boshqa malakalar kabi bolalar bog'chasida shakllantiriladi. Oddiy tushunarli, obrazli, ifodali, mazmunli qilib aytib berilgan ertakdan, she'rdan, hikoyadan bola ko'ngli yashnaydi, huzur qiladi, estetik zavq oladi. Demak, tarbiyachining oddiy, tushunarli, obrazli, jonli, ifodali nutqi bolaga estetik tarbiya berishda asosiy vosita hisoblanadi.

Tarbiyachida madaniy nutqning yo'qligi, ya'ni so'zlar tarkibidagi ba'zi tovushlarni noto'g'ri talaffuz etishi, so'z birikmalarini noto'g'ri tuzishi, so'zlarga noto'g'ri urg'u berishi, ularni mantiqsiz ishlatishi, nutqdi grammatik tomondan noto'g'ri shakllantirishi va hokazolar bolalar tomonidan qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilinib, ularning shaxsiy nutqlariga aylanib qoladi. Natijada bunday nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar nutqiy muloqotga kirishganda, ularning nutqi atrofdagilarga tushunarsiz bo'lib qoladi, kelajakda esa maktab va boshqa uquv yurtlarida bilim olishda qiynaladilar. Demak, bolalarga

aqliy, axloqiy tarbiya berishda ham tarbiyachining to'g'ri nutqi zaruriy vosita hisoblanar ekan.

Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

1. **Nutqda tovush madaniyati.** Agar tarbiyachining nutqi aniq bo'lsa, jumlalarni, so'zlarni va har bir tovushni aniq talaffuz etsa, bolalar ona tilining tovush tomonini muvaffaqiyatli o'zlashtira oladilar.

Ko'p hollarda, ayrim tarbiyachilar tovushlarni noaniq talaffuz etadilar, so'zning tarkibidagi ayrim tovushlarni tushirib ketadilar, tovushlar o'rnini almashtiradilar.

2. **Adabiy til me'yorlariga muvofiq to'g'ri talaffuz.** Tarbiyachi adabiy til me'yorlariga amal qilishi, o'z nutqida turli mahalliy sheva so'zlarni ishlatmasligi, so'z urg'ularini to'g'ri qo'llashi lozim.

3. **Nutqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan to'g'ri foydalanish.** Nutqda fikrlar, his-tuyg'ularni aniq, ifoda etish lozim. Bunga faqat so'zlar yordamidagina emas, balki nutqning intonatsion ifodaviy vositalaridan: ovoz kuchi, temp, to'xtam, ritm, urg'u va hokazolardan foydalanish orqali erishiladi.

Tarbiyachining she'r, ertak va hikoyalar o'qib berayotganda ushbu vositalardan o'rinali foydalanishi bolalar asar mazmunini yaxshi tushunib olishlari va ona tilining go'zalligini his etishlariga yordam beradi.

Tarbiyachining bir xil ohangdagi nutqi kichkintoylarni zeriktiradi, asar mazmuniga bo'lgan qiziqishini susaytiradi. Bunday nutqni eshitishdan zerikkan bola boshqa narsalarga chalg'iydi, so'ngra tarbiyachining nutqiga butunlay qulq solmay qo'yadi.

4. **Tarbiyachi nutqining jo'shqin, intonatsiyaga boy bo'lisi.** Shoshilib gapiresh so'zlar tarkibidagi tovushlarni noaniq talaffuz etilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda shoshilmasdan, o'rtacha tempda (tezlikda) gapiresh kerak. Bunday tempda gapiresh nutqning aniq bo'lishini ta'minlaydi, aksincha, tez temp nutqning buzilishiga sabab bo'ladi, uni idrok qilishni qiyinlashtiradi.

5. **Tarbiyachi nutqining aniq, oddiy bo'lisi, fikrlar izchillik bilan bir-biriga bog'lanib, tushunarli ifodalanishi.** Bolalar tarbiya ichidan, kattalardan tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishni o'rganibgina qolmasdan, balki tinglagan ertak va hikoyalarining

mazmunini aniq qiziqarli tarzda qayta hikoya qila olishga, tevarak-atrofni kuzatish natijasida olgan taassurotlarini so'zlab berishga, o'z fikrlarini ketma-ketlik bilan bayon etishga, xulosalar qilishga ham o'rghanadilar.

Nutqda bildiriladigan mazmunni bolalarga tushunarli, qiziqarli, bo'glangan holda yetkaza olish tarbiyachi nutqining zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi. Tarbiyachi fikrini ketma-ketlik bilan bayon etishi, o'z nutqini tushunarsiz so'zlar, murakkab va uzun jumlalar bilan qalashtirib tashlamasligi kerak. Agar tarbiyachiniig nutqi qisqa jumlalardan iborat bo'lsa, uni bolalar oson o'zlashtiradilar. Aksincha, nutqdagi jumlalar uzundan-uzoq bo'lsa, nutqning mazmunini tushunib olish juda qiyin bo'ladi.

6. Tarbiyachi lug'atining boy bo'lishi. Tarbiyachi o'z nutqida so'zlarni to'g'ri va aniq ishlata olsa, u holda uning nutqi bolalarga tushunarli bo'ladi. O'zbek tilining lug'ati juda ham boy, u doimo yangi so'zlar bilan to'ldirib boriladi, iste'moldan chiqdan so'zlar yo'qolib boradi. Tarbiyachi bolalar bilan nutqiy muloqtda bo'lganda, ularning yoshini hisobga olib, ona tilining lug'at boyligidan keng foydalanmog'i lozim.

Tarbiyachi bolalar bilan so'zlashganda adabiy tildagi so'zlarni ishlatishi, qo'pol, iste'moldan chiqqan so'zlarni ishlatmasligi kerak. Tarbiyachining lug'ati qanchalik boy va rang-barang bo'lsa, uning nutqi shunchalik aniq-ravshan bo'lib, bolalar shunchalik ko'p so'zlarni o'zlashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachining hikoyasi to'liq, chiroyli, so'zlari to'g'ri tanlab olingan, grammatik tomondan to'g'ri shakllangan, mazmunli ifodali, mantiqan bog'langan bo'lishi kerak.

Tarbiyachi nutqining samimiyligi bo'lishi. Tarbiyachi bolalar bilan ishlash jarayonida nutqining quyidagi jihatlariga e'tibor berishi lozim:

1. Ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi.
2. Sof, aniq-ravshan nutqga ega bo'lishi, ya'ni diksiyasi yaxshi bo'lishi.
3. Nutqda adabiy talaffuzdan (so'zlardan) foydalanishi, ya'ni orfoepik normalarga rioya qilishi.
4. Bayon etiladigan fikrlarning mazmuniga qarab intonatsiya vositalaridan (ovoz kuchi, tempi, urg'u, to'xtam, ritm, temp, ohang) to'g'ri foydalanishga harakat qilishi.

5. Bolalar bilan nuqiy muloqotda bo'lganda engil, sekin tempdagi, o'rtacha baland ovozdagi nutqdan foydalanishi.

6. Bolalarning yoshiga qarab hikoya matnining mazmunini bayon etishda sinonim, omonimlardan va kinoya so'zlardan, xalq og'zaki ijodiyotining namunalaridan foydalanishi.

7. Nutqning grammatik tomoniga e'tibor bergen holda fikrini izchillik bilan, bir-biriga boshab bayon etishi.

8. Bolalar bilan so'zlashganda baland ohangda gapirmaslik, qo'pol so'zlardan foydalanmasligi lozim.

Tarbiyachining o'z nuqini takomillashtirish ustida ishslashining zarurligi. Nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaslik, natijasida yillar o'tishi bilan bu nuqsonlar mustahkamlanib, kishilar uni sezmay ham qoladi. Nutqida kamchiligi bo'lgan tarbiyachi bolalar bilan ishlashi mumkin emas. Ko'pchilik kattalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Lekin bu fikr to'g'ri emas. O'z nutqi ustida doimiy va qat'iy ishlagan tarbiyachi nuqsonlarini bartaraf etishi mumkin. Ayniqsa, tarbiyachi o'z nutqida sirg'aluvchi (s, z), shovqinli (sh, j, ch), sonor (l, r) tovushlar talaffuziga e'tibor berishi kerak. Agar tovush talaffuzida nuqsoni bo'lsa, artikulyatsiya apparati a'zolarining harakatiga, tovush talaffuzini takomillashtirishga yordam beruvchi mashqlarni bajarishi kerak. Buning uchun maxsus adabiyotlardan foydalanishi lozim.

To'g'ri nafas olish va nafas chiqarish ustida ishslash. Tarbiyachi so'zlashganda to'g'ri nafas olib, uni to'g'ri chiqishi nutqning jarangdor, ohangdor bo'lishiga yordam beradi. U normal holdagi ovoz va tovushning hosil bo'lishini ta'minlaydi, nuqning bir xilligi va musiqaviyligini saqlaydi, nutqrинг mazmundorligiga qarab ovoz kuchi va balandligini o'zgartirish imkonini beradi. Nutq jarayonida to'g'ri nafas chiqarishda kamchiligi bo'lgan tarbiyachi doimiy ravishda to'g'ri nafas chiqarishga yordam beruvchi quyidagi mashqlarni bajarib borishi zarur.

Ohang ustida ishslash. Ohang deganda - sof, aniq, ravshan nuqni, tovush talaffuzini tushunamiz. Yaxshi ohangni hosil qilish uchun artikulyatsiya apparati a'zolarining harakatlarini takomillashtirish va mustahkamlash kerak. Buning uchun pastki jag', til, lablar harakatini rivojlantiruvchi maxsus mashqlarni bajarish ko'zda tutiladi. Pastki jag' muskillari harakatini rivojlantirish uchun tarbiyachi quyidagi topshiriqlarni bolalarga bajatirishi mumkin:

1. Pastki jag'ni tishlar orasidagi oraliq ikki barmoq kengligida bo'lguncha erkin ravishda qo'yib yuborish.
2. Bir nafas chiqarishda unli tovushlarni talaffuz etish.
3. Unli tovushlarga ovoz qo'shib aytish.

Nutq orfoepiyasi ustida mashq qilish. Nutq, orfoepiyasi ustida mashq qilish, nutqning adabiy talaffuzini o'zlashtirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki talaffuz har doim ham foyda talabi asosida, ya'ni adabiy til me'yori talablari darajasida bo'lmaydi. Shuning uchun ham adabiy til me'yolari darajasidagi nutqni suxandonlardan, badiiy so'z ustalaridan, namunali madaniy nutqqa ega bo'lgan kishilardan o'rganish kerak. Ularning nutqlariga taqlid qigsish lozim. Agar ayrim so'zlarning to'g'ri talaffuz etilishiga, urg'ularning ishlatilishiga shubha bo'lsa, lug'atdan foydalanish shart.

Nutqning ifodaliligi ustida ishslash. Nutqning ifodaliligi ustida ishslashda og'zaki nutq uchun ifodalilikning intonatsion vositalaridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tarbiyachi o'z nutqida urg'ularni to'g'ri ishlatish, ovoz tezligi va kuchini o'zgartirish bilan so'zlarning mazmunini ajratish, to'xtamlardan nutqda ovozni vaqtincha to'xtatish, ovoz balandligini o'zgartirish ustida mashq qilish lozim. Intonatsiya nutqni jonli, jo'shqin qiladi, fikrni to'liq va tugallangan holda bayon etishga yordam beradi. Har bir tarbiyachi nutqning yuqoridagi sifatlariga ega bo'lishi uchun bir qancha mashqlarni bajarishi kerak. Chunonchi:

1. Jumlalarni o'qishda ovoz yordamida ayrim so'zlarni ajratib ko'rsatish.
2. Maqol, matallardagi asosiy mazmunni ifodalovchi so'zlarni baland ovoz bilan ajratib o'qish.
3. She'r, hikoya, ertak, maqol, matallarni kerakli o'rinnarda to'xtamlarga rioya qilgan holda o'qish.
4. Jumlalarni ovozni goh baland, goh past qilib o'qish.
5. Tez aytishlarning nutq tempini o'zgartirib oqish.
6. Tanish she'rni turli ovoz balandligida o'qish.
7. Maqol, tez aytishlarning nutq tempi va balandligini o'zgartirib oqish.

Tarbiyachiga so'z ustida ishslashda, grammatik vositalardan ,to'g'ri foydalanishga o'rgatishda turli lug'atlar, ma'lumotnomalar, metodik ko'rsatmalar, darslik va qo'llanmalar yordam beradi. Tarbiyachi o'z lug'atini boyitishda mashqlar, matallar va tez aytishlarni, she'r va so'z o'yinlarini yod olishi katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o'zbek tilidagi

sinonim, antonim, omonim, paronim so'zlarni o'rganib olish tarbiyachi lug'atini boyitadi.

Shunday qilib, tarbiyachi nutqidagi so'zlar aniq tanlansa, jumlalar grammatik tomondan to'g'ri bo'lsa, undagi fikrlar oddiy, aniq, ravshan bo'lsa, izchil ketma-ketlikda bayon etilsa, bolalarning yoshi va psixik xususiyatlari hisobga olinsa, bunday nutq bolalar tomonidan osonlik bilan idrok qilinadi va ular uchun tushunarli bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Bog'chada nutq o'stirish vazifalarini amalga oshirish uchun qanday shart-sharoit bo'lishi lozim?
2. Nutq o'stirish mashg'ulotini o'tkazish uchun qanday gigienik talablarni bilasiz?
3. Mashg'ulotdan tashqari paytlarda tabiat va atrofdagi kishilar bilan bolalar munosabatini shakllantirish uchun qanday pedagogik usullar olib boriladi?
4. Bolalar nutqini shakllantirishda kattalar bilan qaysi mavzularda suhbat tashkil etish mumkin?
5. Bog'chada nutq o'stirish mashg'ulot va vazifalarini tashkil etish ifodalangan qanday usuliy qo'llanmalarni bilasiz?
6. Nutq o'stirish vazifalari yuksak texnologiya asosida uyushtirilganligini qanday yutuqlarga ko'ra baholash mumkin?

14-mavzu: Bog'chada ishlarni rejalashtirish

Reja:

1. Mashg'ulot bo'yicha bir haftalik ishni rejalashtirish.
2. Mashg'ulot bo'yicha oylik ishni rejalashtirish.
3. Mashg'ulot bo'yicha yillik ishni rejalashtirish.
4. Tarbiyachining ish rejasiga qo'yiladigan talablar.

Asosiy tayanch so'zlar:

Haftalik reja, oylik reja, yillik reja, guruhlarda nutq o'stirish mashg'ulot rejalar, reja namunalari, rejaga qo'yiladigan talablar.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma'ruza mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Mashg'ulot bo'yicha bir haftalik ishni rejalashtirish. Mashg'ulot bo'yicha oylik ishni rejalashtirish. Mashg'ulot o'yicha yillik ishni rejalashtirish. Tarbiyachining ish rejasiga qo'yiladigan talablar.), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyg'a vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Ish rejasi tarbiyachining bolalar nutqini o'stirishda rejali, ritmik bajarishda muhim pedagogik va me'yoriy hujjat sanaladi. Uni to'g'ri tuza olish va aniq rejalashtirish ishning asosiy tizimidir.

Ta'limiy-taqvimiylar rejaning asosiy ko'rinishi haftalik ish rejasidir. Tabiiyki, haftalik ish rejasida ta'llimning asosi mashg'ulotni tanlash hisoblanadi. Mashg'ulot soni "**Uchinchi mingyillikning bolasi**" tayanch dasturida aniq ko'rsatilgan. Kichik va o'rta guruhlarda mashg'ulot 20 daqiqa, katta va tayyorolov guruhlarda esa 25-35 daqiqagacha olib boriladi. Har bir mashg'ulot uchun tanlangan nutq o'stirish topshiriqlari haftalik ish rejasining yuzaga keltiradi. Bir mashg'ulotda nutq o'stirishning har xil ta'lim metodlaridan foydalilaniladi. Unda mashg'ulot mazmuni, didaktik talablari va mavzuning bolalar dunyoqarashiga mosligi tarbiyachi tomonidan doimiy tarzda nazorat qilinadi. Ish rejasida mavzuning uzviyligi, murakkab harakat, bolalar diqqati qat'iy hisobga olinadi. Mashg'ulot oxirida esa materiallarning takrorlash, keng ko'rgazmalilik va bolalar his-tuyg'usi faolligi aniq belgilanib boriladi.

Mashg'ulotning qurilishi va uning mazmundorligi, saviyasi, hozirgi davr milliy istiqlol foysasi asosida shakllantirilganligiga alohida e'tibor qilinadi. Mashg'ulot jarayonida, ayniqsa, qayta hikoyalashda tanlangan asari bolalar tasavvuri va ularning hayotiy tajribalariga moslanganligi nazarda tutilib, voqeiylikka mos har xil ko'rgazma qurollar: rasm, predmetlar va musiqalardan foydalilaniladi.

Tarbiyachi nafaqt haftalik ish rejasi, balki shu reja orqali oylik va yillik ish rejasini ham belgilaydi.

Yil boshida ko'pincha yengil materiallar (maishiy ob'ektlar va daliliy hikoyalar) keltiradi. Materialarni o'rganish jarayonida esa, fasllar bilan o'zaro bog'liq (tabiat, kiyim) an'anaviy taqvim bayramlari sanalarga mos mavzular tanlanadi. Materialarni taqsimlashda uning amaliyliligiga va tarbiyachining maqsadiga alohida e'tibor beriladi.

Mashg'ulot jarayonida takrorlashni ham rejalashtirish muhim o'rinni egallaydi. Takrorlash nutq o'stirishda dolzarb bo'lib, masalan, tovush artiqliyatsiyasini me'yoriy tarbiyalashda grammatik shakllarni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Takrorlashning o'ziga xos yo'nalishlari mavjudki, ular turli mashg'ulot tiplari va usulrada olib boriladi: birinchi navbatda materialni e'lon qilish; bilim va malakalarni mustahkamlash; mustaqil ravishda bilim va tajribalarni namoyish etishdan iborat.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarini rejalarashtirish kutilmaganda bilim va tajribalarni har bir guruhda mos qulaylikda rivojlantirishdan iborat.

Taqvimiylar uchun mashg'ulotlar, balki mashg'ulotdan tashqari ishlardan ham rejalarashtiriladi. Unda ishning shakllari oldindan ko'rib chiqiladi va unga taxminiy tayyorgarlik ko'rildi. Mashg'ulotdan tashqari paytdagi ishlarda bolalarning soni, sayr, harakatli o'yinlar va mustaqil faoliyatga alohida diqqat qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Tarbiyachi faoliyatida taqvimiylar uchun qanday o'rinni to'tadi?
2. Haftalik ish rejasi qanday tuziladi?
3. Oylik ish reja qanday mavzularni o'z ichiga oladi?
4. Reja tuzishda nimalar asosiy vosita sanaladi?
5. Yillik ish rejasi qanday tuziladi?
6. Haftalik, oylik va yillik ish rejalarining o'zaro farqlarini ayting.

15-mavzu: Bog'chda tarbiyachi, mudira, usuliyotching burch va vazifalari

Reja:

1. Usuliy yordam va uni nazorat qilish.
2. Tarbiyachining keng va ilg'or tajribalari.
3. Tarbiyachining mutaxassislikdan malaka oshirish va ota-onalar bilan nutq o'stirish ishi bo'yicha tashfiqoti.
4. Ta'lif tizimida bohcha mudiriasi, uslubiyotchi va ularning faoliyatii.

Asosiy tayanch so'zlar:

Bog'cha mudirasi, usuliyotchi, tarbiyachi, guruhga kirish, nutq o'stirish bo'yicha tarbiyachi ishning qurilishi, o'zaro mashg'ulotga kirish, pedagogik yig'ilish, malaka oshirish, bog'cha mudirasi faoliyati, ilg'or tajriba, noan'anaviy mashg'ulot.

Mavzu “Til va nutq o'stirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari”.

Ma`ruza mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqtি	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruza mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu(Usuliy yordam va uni nazorat qilish. Tarbiyachining keng va ilg'or tajribalari. Tarbiyachining mutaxassislikdan malaka oshirish va ota-onalar bilan nutq o'stirish ishi bo'yicha tashfiqoti. Ta'lif tizimida bohcha mudiriasi, uslubiyotchi va ularning faoliyati), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Savollarga javob beradi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

Bolalar bog'chasida metodik ishlar shakli rang-barang va har xilliliqi bilan murakkabdir. Ulardan bir qanchasi pedagogik yig'ilishlarda ko'rib chiqilishi ham mumkin. Masalan, o'rta guruhlarda tovush madaniyatini shakllantirish (yarim yillikda), yosh tarbiyachilarning mutaxassisliklarini oshirish yo'llari namunali tajribalarni ommalashtirish kabi masalalar ham hisobga olinadi. Ulardan maqsad bog'cha mudirasining tarbiyachi bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlab, bolalarning nutq o'stirish jarayonini rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachining nutq o'stirish faoliyati va undagi yutuqlarni asosan metodik jihatdan ko'rib chiquvchi, baholovchi shaxs tarbiyachi-metodistdir. Tarbiyachi-metodist tarbiyachining bu sohadagi barcha ishlarini to'g'ri anglaydigan, usuliy jihatdan aniq tushunadigan, yordam bera oladigan hamda pedagogik kengashlarda ilg'or tajribalarini ommalashtiruvchi shaxs bo'lishi lozim. Tarbiyachi- metodist bu vazifalarni mashg'ulot jarayonida bajaradi, mashg'ulotning tahlilida tarbiyachi yutuq va kamchiliklarini izohlab beradi.

Bog'cha muassasasida asosiy rahbar shaxs mudiradir. Mudira ham har bir pedagogik jarayonni yaxshi anglaydigan, nutq o'stirish mashg'ulotining mazmun va mohiyatini aniq, ravshan bilishi lozim. Garchi mudira bog'chaning iqtisodiy muammolari uchun javobgar shaxs bo'lsa-da, u ham mashg'ulotni kuzatib tahlil etishi, bu sohada tarbiyachiga amaliy yordam berishi lozim.

Mudira va tarbiyachi-metodist tarbiyachiga quyidagi sharoitlarda usuliy yordam ko'rsatishi zarur. Masalan, bu ishlar oddiy bo'lsa-da, mashg'ulot samarasi uchun foydali bo'lgan ishlar: mashg'ulotning optimal usullarini ko'rsatish, didaktik o'yinlarni tashkil qilish yo'llarini namoyish etish, adabiy ertaliklar va tadbirlarni o'tkazish uchun zaruriy materiallar hamda metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Bundan tashqari, ular yozma hujjat materiallari: taqvimiyl-ta'limiyl ish rejasi, guruhlarda bolalar nutq o'stirish soni va sifatini doimiy kuzatib borish daftari, ota-onalar bilan ishlash daftarini ham doimiy nazorat qilib turadilar. Mudiraning muhim ishlaridan yana biri guruhlarda nutq o'stirish darajasini oshirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotlarida doimiy xabardorlik: mashg'ulot jarayonini ko'rgazmalilik bilan ta'minlash, ularning hissiy-ruhiy kafiyatlarini ko'tarish, shuningdek, guruh xonalarida, dahlizlarida zaruriy sharoitlarni ta'minlashdan ham iboratdir. Shu bilan birgalikda tarbiyachi ishtirokida guruhlarda bolalar bilan rasm asosida hikoya qilish, uy ishlari haqida

suhbat uyushtirish, guruhdagi voqealar asosida so'zlashuvlarni ham tashkil etishi zarur.

Mudiraning metodik vazifalaridan yana biri tarbiyachi bilan doimiy tarzda yakka suhbat shaklini uyushtirish, unda guruh ish rejasidagi yutuq va kamchiliklarni izohlash ham ko'rsatish hisoblanadi.

Nutq o'stirish ishining muhim metodik yo'llaridan biri tarbiyachilarning mashg'ulotlarga o'zaro qatnashib, maslahatlashuvi asosiy o'rinni egallaydi. Bunda tarbiyachilar bolalarning nutq boyligini o'stirish, tovush madaniyatini shakllantirish, taqvimiyl-ta'lifiy ish rejalarining mavzu jihatdan mosligini va boshqa masalalarni o'zaro nazorat qiladilar.

Bog'cha ta'luming metodik ishlari yuqori bosqichi pedagogik yig'ilishdir. Yillik reja asosida mudira yig'ilishni o'tkazish sanasi va kun tartibi bilan tarbiyachilarni xabardor qiladi. Har bir masala bog'cha ishida muhim pedagogik vazifalarni qamrab olishi bilan tarbiyachilarni qoniqtira olishi lozim. Bundan tashqari, pedagogik yig'ilishlarda ilg'or tarbiyachilarning faoliyatları o'rgatiladi, tajribalari ommalashtiriladi. Mudiraning muhim vazifalaridan biri tarbiyachining pedagogik bilim va tajribalarini doimiy tarzda oshirib borishdir. Ana shu maqsadda tarbiyachini o'quv-tarbiyaviy va metodik yig'ilishlariga ishtirokini ta'minlash, xalq ta'luming to'garak, seminarlariga qatnashishiga erishish uning ixtisoslik bilim doirasini oshirishga xizmat qiladi. Binobarin, logoped, shifokorlar, bolalar adiblari, kutubxonachi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, har xil ilg'or soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etishi lozim.

Bolalar bog'chasi vazifalaridan yana biri ota-onalar bilan doimiy tarzda yig'ilish o'tkazishdan iborat. Bu umumiy yig'ilishda bolalarning nutq o'stirishdagi yutuq va kamchiliklari tahlil etiladi. Ushbu soha bo'yicha ma'ruzalar, suhbat va maslahatlar uyushtiriladi. Shu bilan birga ota-onalarga bolalarning nutqini o'stirish, ularning yoshiga mos badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, nutq o'stirishning malaka va ko'nikmalari haqida me'yoriy ko'rsatkichlar asosida devoriy ko'rgazmalar chiqariladi.

Bolalarning nutqini o'stirish jarayoniga mas'ul shaxslardan biri tuman bolalar bog'chasi usulshunosining ham alohida o'rni bor. Tuman usulshunosi faoliyati serqirralidir: u tuman xalq ta'limi bo'limiga bog'chalarda bolalar nutqini o'stirish, bu sohadagi yutuq va kamchiliklarini tahlil etib, axborot berib turadi. Shuningdek, uning muhim pedagogik vazifalaridan biri tarbiyachi mashg'ulotlariga

qatnashib, nutq o'stirish sohasidagi ishlarga metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Agar lozim topsa, usulshunos tarbiyachining ilg'or metodik tajribalarini aniqlab tuman va viloyat miqyosida targ'ib etishga layoqatli shaxsdir. Bundan tashqari, usulshunos nutq o'stirish mashg'ulotlarining muvaffaqiyati uchun mas'ul bo'lib, mashg'ulotning tashkil etishning nazariy va amaliy yutuqlari uchun zamonaviy, hozirgi davr ta'lim texnologiyasiga asoslangan yangi metodik qo'llanmalar bilan tarbiyachini xabardor qilishi hamda ta'minlashi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Tarbiyachiga qanday usuliy yordam ko'rsatiladi va u nazorat qilinadi?
2. Tarbiyachi faoliyati va ilg'or tajribalarini qanday yorita oladi?
3. Tarbiyachining ixtisoslik bo'yicha malakalari qanday oshiriladi?
4. Tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorligi qanday oshiriladi?
5. Bog'chada mudira vazifalari nimalardan iborat?
6. Bog'chada tarbiyachi-usulshunosh vazifalari nimalardan iborat?
7. Bog'chada tuman xalq ta'limi bo'limi usulshunosi vazifalari nimalardan iborat?

Xulosa

"**Til va nutq o'stirish metodikasi**" fani oliv ta'lim tizimida maktabgacha tarbiya bo'limi talabalari uchun o'quv-usuliy qo'llanma hisoblanadi. U bo'lajak tarbiyachilarning yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning nutqini to'g'ri shakllantirish, mashg'ulot jarayonida ta'lim texnologiyasi va zamonaviy modellarini o'rganishga qaratilgan.

O'quv-usuliy qo'llanmaning materiallari tugalangan boblar, fasllar va qismlar asosida yaratilgan. Har bir bob mavzulari so'ngida mavzuni mustahkamlash savollari keltirilgan. Bu savollar bob va mavzularning mazmuni, materiallarini chuqur o'rganishga da'vat etadi. Mustahkamlash uchun berilgan savollar fanga oid dalillarga qaratilgan bo'lib, mashg'ulot jarayonidagi voqealarni bir-biriga qiyoslash, mustaqil munosabat bildirish va bolalarning nutqini o'stirish faoliyatining uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv-usuliy qo'llanma maktabgacha ta'lim muassasida nutq o'stirish jarayonini keng qamrab olganki, unda tarbiyachining pedagogik faoliyatining asosi bolalarning lug'at boyligini o'stirish, grammatik nutqini to'g'ri shakllantirish, tovush madaniyatini tarbiyalash, hikoya qilishga o'rgatish, qayta hikoyalashda monologik nutqini kamol toptirish, ularni badiiy adabiyot bilan tanishtirish va maktabda tayyorlashda savodxonlik ta'limini egallashga qaratilgan. Bu vazifalarni bajarishda har bir ishning mazmuni ta'limning o'ziga xos metod va usullarini joriy etishga, uni o'rganishni talab etadi.

Ta'lim jarayonining asosiy shaxsi tarbiyachi sanaladi. Shuning uchun uning pedagogik faoliyatida tarbiyanuvchi nutqini o'stirish vazifasi bilan birqalikda, tilshunoslik fani yuzasidan ham har tomonlama nazariy bilimga ega bo'lish mas'uliyati yuklanadi.

Bolalar nutqini o'stirish keng ko'lamli qat'iy rejaga asoslangan. Bunda nafaqat tarbiyachi vazifasi, balki bog'cha mudirasi, usulshunos va tuman usulshunosining ham muhim pedagogik mas'uliyati va ularning o'zaro hamkorligi, uzviyligi zarurat kasb etadi. O'quv-usuliy qo'llanmada ana shu shaxslarning bola nutqi rivojidagi burchlari va vazifalari ham aniq ko'rsatildi.

Bundan tashqari, qo'llanmada talabalarning fan bo'limlari yuzasidan egallagan bilimlarini atroflicha nazorat qilish, o'z-o'zining bilimini tekshirish maqsadida test savollari tartib berildi. Test savollari bo'lim va mavzular doirasida yaratildi.

O'quv-usuliy qo'llanmaning ijobiy ahamiyati shundaki, bolalarining nutqini o'stirish vazifasi hozirgi davr maktabgacha ta'lim muassasalari uchun yaratilgan "**"Uchinchi mingyillikning bolasi"** tayanch dasturi va **davlat talablari nizomi** nuqtai nazaridan belgilandi.

Ushbu o'quv-usuliy qo'llanma bo'lajak tarbiyachilarning bog'chada nutq o'stirish mashg'ulotlarini hozirgi zamon darajasida tashkil etish, uning yangi tizim va modellarini izlab topishga qaratilgan bo'lib, bu sohadagi bajarilgan metodik adabiyotlarning yaxlitligini ta'minlash maqsadini ham ko'zda tutadi.

Mavzular bo'yicha testlar

1. Fanning asosiy maqsadi nima?
 - a) til haqida ma'lumot berish
 - b) pedagogika haqida ma'lumot berish
 - c) bog'cha bolalarning og'zaki nutqini o'stirish
 - d) barchasi
2. Fan bu –
 - a) tilshunoslikning bir qismi
 - b) metodika fanining bir qismi
 - c) pedagogika fanining bir qismi
 - d) maktabgacha tarbiya fani
3. Fanning metodologik asosi nima?
 - a) falsafa fani
 - b) tilshunoslik fani
 - c) ona tilini falsafiy anglash
 - d) adabiyot
4. Fan qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?
 - a) tilshunoslik
 - b) adabiyot
 - c) ruhshunoslik va fiziologiya
 - d) barchasi
5. Lug'at boyligini o'stirish bo'limi maqsadi?
 - a) lug'at ishini rivojlantirish
 - b) bolalar nutqidagi xatolarni tuzatish
 - c) bolalar lug'at doirasini kengaytirish
 - d) lug'at bilan ishlashga o'rgatish
6. Bolalarning grammatik nutq to'g'rilibini shakllantirish bo'limi maqsadi nima?
 - a) bolalarni so'z birikmasi tuzishga o'rgatish
 - b) bolalarni gap tuzishga o'rgatish
 - c) so'z o'zagi, so'z o'zgaruvini – so'z shaklini
 - d) barchasi

7. Tovush madaniyatini o'rganish bo'limi maqsadi nima?

- a) so'zlarni tovush jihatidan to'gri talaffuz etish
- b) tovushlar xususiyatini
- c) unli va undosh tovushni
- d) ifodalilikni

8. Dialogik nutqni rivojlantirish uchun qanday vazifalarni bajarish zarur?

- a) bolalar dunyoqarashini hisobga olish lozim
- b) savolning sodda va mulohazali ekanligiga
- c) mavzu doirasida ekanligiga
- d) barchasi

9. Dialog nutq qanday ahamiyatga ega?

- a) suhbatni uyushtirishda
- b) og'zaki nutqni o'stirishda
- c) atrof-muhit, kishilar bilan tanishtirishda
- d) barchasi

10. Hikoya qilish ta'limi bu ...

- a) monologik nutqni o'stiradi,
- b) o'y xayolni rivojlantiradi
- c) lug'at doirasini kengaytiradi
- d) barchasi

11. Bog'chada qaysi nutq shaklini rivojlantirishga ko'p e'tibor beriladi?

- a) dialogik nutq
- b) monologik nutq
- c) dialog va monolog nutq
- d) suhbat

12. Bog'chada eng ko'p qo'llanadigan nutq turi?

- a) dialog
- b) monolog
- c) og'zaki
- d) yozma

13. Nutq turlarini aniqlang?

- a) og'zaki

- b) yozma
- d) dialog va monolog
- e) a va b javobalar

14. Nutq shakllarini aniqlang?

- a) og'zaki
- b) yozma
- d) dialog va monolog
- e) b va d javoblar

15. Badiiy adabiyot bog'chada qanday o'rinn tutadi?

- a) sh'erni ifodali o'qishni o'rganadilar
- b) sahnavuy asarni yaratishga erishadilar
- d) sevimli qahramonlarga havas qiladilar
- e) barchasi

16. Bog'chada kitob qanday o'ringa ega?

- a) og'zaki nutqni rivojlantirishga
- b) kitobga havas uyg'otish uchun
- d) kitob ileyustratsiyasi uchun
- e) kitob burchagi uchun

17. Amaliy mashg'ulotlar qaysi metodlarda olib boriladi?

- a) suhbat
- b) o'qish
- d) aralash
- e) barchasida olib boriladi

18. Mashg'ulotning qurulishiga doir talablar?

- a) o'z vaqtida tayyorgarlik
- b) optimal yo'lni izlash
- d) mashg'ulotning aniq vaqtda qurulishi
- e) barchasi

19. Mashg'ulotning tarbiyaviy xarakteri qanday bo'lishi shart?

- a) til jihatidan asoslangan
- b) hissiy xarakterli
- d) mavzu g'oyaviyligi
- e) barchasi

20. Mashg'ulotning tashriliy xususiyatlari qanday baholanadi?

- a) nutqda har bir bolaning faolligi
- b) jamoa faoliyat individuallik
- c) mashg'ulotning qurilishi
- d) barchasi

21. Mashg'ulotning texnologik xususiyatlari qaysilar?

- a) mashg'ulot sifati
- b) mashg'ulot samarasi
- c) mashg'ulot natijasi
- d) barchasi

22. Mashg'ulotning zaruriy shakli qaysi?

- a) takrorlash
- b) o'zga mavzu bilan bog'liqligi
- c) takroriylik prinsipi
- d) barchasi

23. Bog'chada hikoya turlari mazmuniga ko'ra necha xil bo'ladi?

- a) daliliy
- b) ijodiy (o'ylatadigan)
- c) murakkab
- d) a va b javoblar tog'ri

24. Hikoya qilish shakliga ko'ra necha turli bo'ladi?

- a) aniq bayon etish
- b) voqeali
- c) tasviriy
- d) haqiqiy

25. Qayta hikoyalash deganda nimani tushunasiz?

- a) hikoya qilishning birinchi turi
- b) o'qituvchi o'qigan mavzu
- c) tarbiyachi bog'chasining bola tomonidan bayoni
- d) a va d javoblar to'g'ri

26. Qayta hikoyalshga qo'yiladigan talablar?

- a) mazmuniylik
- b) ketma-ketlik
- c) tog'ri ritm, ifodalilik
- d) barchasi

27. Qayta hikoylash usullarini ayting.

- a) kengaytirilgan
- b) qismlarga bo'lish
- c) rollar (obrazlar) ga bo'lish
- d) barchasi

28. Hikoya qilishning vositalari qaysilar?

- a) o'yinchoqlar
- b) tabiiy narsalar
- c) rasmlar
- d) barchasi

29. Lug'atni boyitish usullarini ayting

- a) lug'at bilan munosabat
- b) lug'tani belgilash va mustahkamlash
- c) lug'atni faollashtirish
- d) barchasi

30. Lug'at maqsadiga ko'ra qanday belgilanadi?

- a) manosi
- b) sifati
- c) element tushunchasi
- d) hamma javoblar to'g'ri

31. Davlat talablari necha yoshdagi bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar me'yorini belgilang?

- a) 4-5
- b) 5-6
- c) 6-7
- d) 6

32. Davlat talablari ko'rsatkichlarini belgilashda inobatga olinadigan (asos bo'ladigan) xususiyat qaysi?

- a) bolaning ehtiyoji va imkoniyati
- b) bolaning etukliik darajasiga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma
- c) ota-onaning talab va istagi

e) ta'lim muassasasining kadrlar va moddiy-texnika bazasi

33. Davlat talablarini shartli ravishda necha yo'nalishga ajratish mumkin?

- a) 3 b) 5 d) 6 e) 7

34. Davlat talablari bo'yicha bola nutqini rivojlantirish va so'z boyligini oshirishdagi faoliyatidan biri qaysi?

- a) ertak va hikoya o'qib berish
b) radio qo'yib eshittirish
d) so'zlarni yodlatish
e) rasm orqali so'zlarni yodlatish

35. Davlat talablari bo'yicha bola nutqini rivojlantirish va so'z boyligini oshirishdagi faoliyati turlaridan biri qaysi?

- a) she'r o'qib berish
b) she'r yod oldirish
d) o'yinchoqlar nomini yod oldirish
e) rasm orqali so'zlarni yodlatish

36. 6-7 yoshdagi bolaning so'z boyligiga qo'yiladigan minimal ko'rsatkichlardan biri qaysi?

- a) 100 tadan ortiq so'zni tushuntirish va bilish
b) 1000 tadan ortiq so'zni tushuntirish va bilish
d) 1500 tadan ortiq so'zni tushuntirish va bilish
e) 3000 tadan ortiq so'zni tushuntirish va bilish

37. Davlat talablari bo'yicha 6-7 yoshli bola nutqining rivojlanganligi va so'z boyligiga qo'yiladigan minimal ko'rsatkichlardan biri qaysi?

- a) O'zbekistonning bayrog'i va gerbini tanish
b) O'zbekiston bayrog'i va gerbi haqida qisqacha so'zlab bera bilish
d) O'zbekiston madhiyasini yod bilish
e) O'zbekiston davlatchiliginini bilish

38. 6-7 bola nutqining rivojlanishi va so'z boyligiga qo'yiladigan minimal ko'rsatkichlardan biri qaysi?

- a) turli mavzudagi 2-3 ta she'rni yoddan aytish
b) ayrim mavzudagi 7-8 ta she'rni yoddan aytish

- d) turli mavzudagi 5-6 ta she'rni yoddan aytish
- e) turli mavzudagi 3-4 ta she'rni yoddan aytish

39. Davlat talablari bo'yicha bola qaysi siymolar Haqida ilk tasavvurga ega bo'lishi kerak?

- a) Beruniy, Amir Temur, Navoiy, Ibn Sino, Bobur
- b) Beruniy, Amir Temur, Navoiy, Ulugbek, Bobur
- c) Amir Temur, Navoiy, Ulugbek, Bobur
- d) Amir Temur, Navoiy, Ibni Sino, Ulugbek, Bobur

40. 6-7 yoshli bolalar qaysi sabzavot va poliz ekinlari nomini bilishi kerak?

- a) pomidor, bodring, kartoshka, piyozi, sabzi, karam, qovun, tarvuz
- b) pomidor, bulg'ori, bodring, kartoshka, piyozi, sabzi, qovun, tarvuz
- c) pomidor, bodring, kartoshka, piyozi, sabzi, qovun, tarvuz, qovoq

41. Maktabgacha tarbiya muassasida bolaning bilim va ko'nikmalarini egallashi baholanadimi, baholansa qanday baholanadi?

- a) ha, rag'batlantiruvchi, ko'ngilni ko'taruvchi so'zlar bilan
- b) ha, 5 ballik tizimda
- c) yo'q, baholanmaydi
- d) davlat talablarida bu haqda ma'lumot yo'q

42. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalari uchun ishlab chiqariladigan o'yinchoqlarning tuzilishi, xavg'sizligi boshqa, sifat va xususiyatlariga qo'yiladigan umumiyl talablar qanday me'yoriy hujjatlardan aks ettirilishi kerak?

- a) davlat sanitariya-gigiena nazorati hujjatlarida
- b) maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga berilmaydi
- c) Ishlab chiqarishda joriy qilinadigan davlat standartlaridan
- d) bilmayman

43. Daliliy hikoya mavzusini toping?

- a) "Sholg'om"
- b) "Bizning ko'cha"
- c) "Bo'g'irsoq"
- d) "Mening qo'g'irchog'im"

44. Daliliy hikoya mavzusini toping.

- a)"Sholg'om" ertagi
- b) bizning ko'cha
- d) "Bog'irsoq" ertagi
- e)"Mening qop'g'irchog'im"

45. Ijodiy hikoya mavzusini toping.

- a) bizning oila
- b) "Bizning bog'cha"
- d) men tug'ilgan kun
- e) "Bo'g'irsoq" ertagi

46. Qayta hikoyalashningning asosiy xususiyatini ayting.

- a) biror asar mavzusini hikoya qila bilish
- b) ifodalilik
- d) his-tuyg'u
- e) xotira

47. Hikoya qilishning asosiy shartlari nima?

- a) hikoya rejasini tuzish
- b) obrazlarini bilish
- d) voqealarni
- e) barcha

48. Hikoya qilishning asosiy namunasi bu –

- a) bir bola qissasi
- b) jamoa hikoyasi
- d) tarbiyachining namunali hikoyasi
- e) ikki bola hikoyasi

49. Hikoya qilishda, asosiy vosita –

- a) voqea
- b) badiiy vositalar
- d) qahramon
- e) tabiat manzaralari

50. Hikoya o'qitishning asosiy usullaridan biri.

- a) jamoa tarzida hikoya qilish
- b) qismlarga bo'lib o'qish
- d) sahnalashtirish
- e) barchasi

51. Hikoya qilishning uzviyligini ta'minlovchi vosita nima?

- a) voqealar ketma-ketligi
- b) uzoq pauza (to'xtam) ga yo'l qo'ymaslik
- d) qahramon
- e) a-b

52. Hikoya qilishda ikkinchi darajali vositalar

- a) savol berish
- b) baholash
- d) yordamlashish
- e) a-b

53. Qayta hikoyalshga qo'yiladigan talablar qaysilar?

- a) mavzuni tushunish va bayonda ifodalash
- b) bayonda kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik
- d) murakkab so'zlar sinonimini topish
- e) barchasi

54. Qayta hikoyalash necha yoshdan boshlandi?

- a) 1-2 yosh
- b) 3-4 yosh
- d) 4-5 yosh
- e) 6-7 yosh

55. Tarbiyachi qayta hikoyalashda nimaga qatiy rioya qilishi kerak.

- a) bolalar xotirasiga
- b) matn mazmuni va ifodalilikka
- d) a-b
- e) qahramonga

56. Qayta hikoyalash ta'limining asosiy usuli bu –

- a) asar ustida suhbat
- b) tabiat manzarasi tasviri
- d) qahramon
- e) badiiy vositalar

57. Qayta hikoyalashda nutq ko'rinishi –

- a) og'zaki
- b) dialogik
- d) monologik
- e) suhbat

58. Suhbat usulida asosiy nutq ko'rinishi –

- a) og'zaki
- b) dialogik
- d) monologik

e) so'zlashuv

59. Qayta hikoyalashda hikoya xususiyatlari qanday turlarga bo'linadi?

- a) hissiy
- b) xotira
- c) daliliy
- d) a-b

60. Qayta hikoyalashga o'rgatish usullari:

- a) topshiriq va bajartirish
- b) qismlarga bo'lish
- c) rasmlarga bo'lish, sahnalashtirish
- d) barchasi

61. Hissiy hikoyalarning asosiy xususiyati bu –

- a) predmetlarga
- b) voqealilikka
- c) predmet sifati va voqelik xususiyatiga (yaxshi yoki yomon)
- d) barchasi

62. Didaktik o'yinlarning asosiy maqsadi nima?

- a) ta'limni oshirish
- b) his – tuyg'usi va dunyoqarashni oshirish
- c) tartibga o'rgatish
- d) barchasi

63. Didaktik o'yin turini toping?

- a) "Sholg'om"
- b) "Alla"
- c) "Quyoncha"
- d) "O'yinchoqlar do'koni"

64. Xotiraviy hikoyalar mavzusi –

- a) Tug'ilgan kunim
- b) Hosil bayrami
- c) Archa bayrami
- d) barchasi

65. Lug'at o'stirish ishida bolalar nutq leksikasi necha turga bo'linadi.

- a) faol so'zlar
- b) Passiv (nofaol) so'zlar
- c) O'zlashgan va o'zlashmagan so'zlar
- d) a-b alohida

66. Lug'at o'stirishda asosiy usullarni ayting.

- a) lug'atga qiziqtirish
 - b) belgilar va mustahkamlash
 - c) lugatni takrorlash
 - d) barchasi
67. So'z tanlashda nimaga e'tibor beriladi?
- a) maqsadiga
 - b) bolalar tasavvuriga
 - c) sifatiga
 - d) barchasiga
68. Mashg'ulot jarayonida lug'at o'rgatish usullari qaysilar?
- a) ko'rgazmalilik
 - b) talaffuz
 - c) a, b
 - d) sinonimiga
69. Lug'at ishida qo'llanadigan didaktik o'yinlarni ayting.
- a) "Kimga nima kerak?"
 - b) "Top, nima o'zgardi?"
 - c) "Qaysi bir xil, qaysi boshqacha?"
 - d) barchasi
70. "Grammatika" atamasining ma'nosi nima?
- a) tilshunoslik bo'limi
 - b) gapda so'zning grammatik vositalari bilan o'zgarishi
 - c) so'z birikmasi
 - d) a va b
71. Grammatik to'g'ri nutqning asosiy mazmuni nima?
- a) nutq to'g'rilingini shakllantirish
 - b) so'zning morfologik shaklini o'rganish
 - c) so'zning sintaktik xususiyatlarini o'rganish
 - d) barchasi
72. Grammatik to'g'ri nutqning asosiy vazifasi nima?
- a) og'zaki nutqdagi grammatik xatolarni tuzatish
 - b) so'zning sintaktik xususiyatlarini o'rganish
 - c) a, b
 - d) xotirasini o'stirish
73. Grammatik nutqni to'g'ri rivojlantirish ta'limi qaysi paytlar olib boriladi?
- a) bir mashg'ulotda
 - b) ikki mashg'ulotda
 - c) doimiy

e) barchasi

74. Bolalar nutqidagi xatolar qaysi paytda tuzatiladi?

- a) mashg'ulot jarayonida
- b) bola xatolikka yo'l qo'ygan paytning o'zida
- c) tayyorgarlik ko'rish vaqtida
- d) mashg'ulotdan tashqari paytda

75. Tovush madaniyatini tarbiyalashning asosiy maqsadi nima?

- a) nutqiy talaffuzni yaxshilash
- b) nutq ifodaliligi
- c) nutqiy munosabat
- d) nutq sur'ati

76. Tovush madaniyatiy etishmagan bola nutqida qanday kamchilik ustuvor bo'ladi?

- a) tinglash qat'iyligi
- b) so'zlarni talaffuz eta olmaslik
- c) urg'uni qo'llay olmaslik
- d) tovushni to'g'ri his qilmaslik

77. So'zlarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish asosiy ishlari nimadan iborat?

- a) nutq apparati
- b) she'r yodlatish
- c) qayta hikoyalash
- d) gaphirishga o'rgatish

78. Tovush madaniyatidagi muhim vosita bu -

- a) tovushlar talaffuzi
- b) ohang
- c) mantiq
- d) monologik nutq

79. Tovush madaniyatidagi zaruriy vositalar qaysilar?

- a) urg'u, ohang
- b) ifodalilik
- c) a va b
- d) xotira

80. Kitob burchagida eng avvalo nima joylashtiriladi?

- a) Yurtboshi rasmi va kitoblari
- b) ertaklar kitobi
- c) rasmlar
- d) tabiat rasmlari ifodalangan kitoblar

81. Kitob burchagini ahamiyati nima?

- a) o'qib berish uchun
 - b) tanishtirish, bilimni mustahkamlash uchun
 - v) o'qish uchun
 - e) namuna uchun
82. Kitob burchagi kim tomonidan tayyorlanadi?
- a) tarbiyalanuvchi tomonidan
 - b) tarbiyachi tomonidan
 - d) bog'cha mudirasi tomonidan
 - e) usulshunos tomonidan
83. Tayyorlov guruhida kitob vistavkasi necha davrga yaratiladi?
- a) har haftada
 - b) har oyda
 - d) yilda ikki marta
 - e) yilda bir marta
84. Kitob vistavkasida yana nimalardan foydalaniadi?
- a) kitoblardan
 - b) gullardan
 - d) bolalar ishlaridan
 - e) suratlardan
85. Sahna asarlari qanday tashkil etiladi?
- a) o'qilgan badiiy asarlar asosida
 - b) televizor orqali
 - d) diafilm orqali
 - e) barcha
86. Sahna asarlari tashkil etiladi -
- a) bolalar va maktab bolalari kuchi bilan
 - b) qo'g'irchoqlar yordami bilan
 - d) kitob orqali
 - e) barchasi bilan
87. Savodxonlikning asosiy maqsadi -
- a) yozuvni o'rgatish
 - b) harf o'rgatish
 - d) yozuvni o'rgatib maktabga tayyorlash
 - e) yuksak axloqli qilish
88. Savodga o'rgatish ta'lmini yaratgan olimlar kimlar?
- a) L.Vigotskiy, L.Bojovich, A.Usova
 - b) Tixeyva, Fausiv
 - d) Nodirov, Qosimova
 - e) Rahmatullaev, Olimov

89. Savod ta'limini ishlab chiqqan metodistlar?
- a) L.Vigotskiy, L.Bojovich, A.Usova
 - b) Tixeyva, Fausiv
 - c) Qodirov, Qosimova
 - d) Olimov, Qodirov
90. Savod o'rgatishning qanday metodlarini bilasiz?
- a) suhbat
 - b) kuzatish va ko'rgazmalilik
 - c) analitik-sintetik
 - d) savol-javob
91. Analistik metod qoidasini toping
- a) butun predmet yoki voqeа-hodisani uning bog'liq qismlari asosida o'rganish
 - b) qismlar asosida butunni o'rgatish
 - c) butun va boshqa qism mavjudligi
 - d) har bir qism mavjudligi
92. Sintetik metod nima?
- a) qismlar asosida butunni ko'rsatish
 - b) tovush-bo'g'in-so'z-gap
 - c) butundan qismga o'tish
 - d) a va b
93. Savod o'rgatish ta'limi necha davrga bo'lib o'rgatiladi?
- a) bir davr
 - b) ikki davr
 - c) uch davr
 - d) to'rt davr
94. Savod o'rgatish davrlarini aytинг.
- a) Alifbegacha bo'lgan bo'lgan davr
 - b) Alifbe davri
 - c) Alisbedan keyingi davr
 - d) barchasi
95. Alifbegacha bo'lgan davrqancha kunga belgilangan?
- a) 1 oy
 - b) 15 kun
 - c) 3-7 kun
 - d) 1 hafta
96. Alifbegagacha bo'lgan davrda nimalar o'rgatiladi?
- a) og'zaki nutqi tuzatiladi
 - b) yozuv bo'yicha bilim sanaladi

- d) məktəb bilan tanışdırıldı
- e) qobiliyati tekshiriladi

97. Alifbe davrida nimalar o'rgatiladi?

- a) unli va undosh tovushlar yozuvi
- b) faqat unli tovushlar
- c) faqat undosh tovushlar
- d) qobiliyati sinaladi

98. Alifbedan keyingi davrda nimalar o'rgatiladi?

- a) yozuv bo'yicha egallagan bilimlari mustahkamlanadi
- b) grammatik qoidalar o'rgatiladi
- c) og'zaki nutqi rivojlantiriladi
- d) o'qiy olish mahorat hosil qilinadi

99. Tarbiyachining asosiy vazifasi –

- a) bolalarni sog'-salomat saqlash
- b) ta'lim-tarbiya berib ulg'aytirish
- c) she'r, hikoya o'rgatish
- d) savodga o'rgatish

100. Bog'cha mudirasi vasifasi nima?

- a) bolalarni iqtisodiy- ma'rifiy ulg'aytirishga javobgarlik
- b) bog'chani iqtisodiy ta'minlash
- c) bolalar savodxoligiga javob berish
- d) bolalarni oziq-ovqat bilan ta'minlash

Test javoblari

Savollar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Javoblar	d	d	d	e	d	e	a	e	e	e	b	d
13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	
e	d	e	a	e	e	e	e	d	e	e	e	
25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	
E	e	e	e	e	e	e	a	a	a	b	e	
37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	
B	d	e	e	e	d	b	b	e	a	a	d	
49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	
d	b	e	e	e	d	d	a	d	b	e	e	
61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	
d	b	e	e	e	e	e	d	d	e	e	d	
73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	84	
B	d	d	a	a	a	d	a	b	b	d	d	
85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96	
a	e	d	a	e	d	a	e	d	e	d	D	
97	98	99	100									
a	a	b	a									

Fanga doir zaruriy atamalar

Analiz - tekshirish obe'ktini fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilish usuli; tahlil.

Grammatika - tilshunoslikning so'z va gap qurilishini o'rghanuvchi, shunga ko'ra ikki qismdan-morfologiya va sintaksisdan iborat bo'limi; biror tilning o'ziga xos so'z o'zgarishi va so'zlarning gapda o'zaro birikish qoida va me'yorlari majmui.

Grafika - bo'yoq ishlatmay chiziq va chiziqchalar vositasi bilangina narsalarni tasvirlash san'at.

Dastur - ish-harakat uchun qo'llanma, yo'l-yo'riq, nizom.

Dialogik nutq - tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro hamkorligi natijasida biror mavzu yoki voqeilik yuzasidan suhbati.

Lug'aviy - lug'atga, so'zga oid; leksik, asl, tup.

Lug'at - biror tildagi so'zlarning ma'lum tartibda (odatda alfavit tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob; so'z. Barcha so'zlar majmuai.

Lug'at boyligi - tarbiyalanuvchining nutq doirasidagi so'zlar majmuai.

Leksika - tilshunoslikning alohida so'z ma'no xususiyatlarini o'rGANADIGAN bo'lim; tildagi har bir so'z.

Mazmunoma - kitob, maqola, ma'ruza va shu kabilarning qisqa yozib olingan mazmuni, bayoni; mashg'ulot mazmuni va bayoni.

Mashg'ulot - ish, yumush, kasb; o'qish, o'rGANISH, dars.

Metod - biror ishni bajarish, ado etish, amalga oshirish usuli yoki usullar tizimi.

Metodika - biror ishni bajarish, amalga oshirish usullarining yig'indisi.

Metodist - usuliyotchi, metodika mutaxassisi.

Monologik nutq - tarbiyalanuvchining biror mavzu yoki voqeilik xususidagi yakka nutqi.

Nizom - ma'lum ish, masala bo'yicha qonun-qoidalar, tartiblar majmuai.

Nutq - fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati; ikki yoki undan ortiq gapning mazmun va grammatik tomonidan tuzilgan fikrlar ifodasi.

Nutq apparati - nutq hosil qilishda ishtirok etadigan insonning nutq organlari majmuai.

Obraz (timsol) - badiiy asarda yaratilgan tip, xarakter.

Obrazli - yorqin, jonli, ifodali, tasvirli fikr.

Orfografiya - so'zlarni to'g'ri yozish haqidagi qoidalar.

Orfoepiya - to'g'ri talaffuz qilish haqidagi qoidalar.

Og'zaki nutq - og'zaki amalga oshiriladigan nutq vositasi.

Ohang - nutqda ma'noga qarab ovozning ko'tarilishi va pasayishi.

Pafos - ko'tarinki ruh, jo'shqinlik, zavq-shavq.

Punktuatsiya - tinish belgilarini qo'yish tartibi va qoidalar majmui.

Reja - biror ishni tartibi bilan va o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo'ljal.

Rejallashtirmoq - mashg'ulotni mavzu va soatlar asosida rejali uyushtirish.

Rejim - ish, mehnat, dam olish, ovqatlanish, uqlash va umuman hayotning aniq belgilangan tartibi.

Ritm - biror hodisa, ish-harakat shakllarining ma'lum tartibda va ma'lum vaqt oralig'ida o'lchovli ravishda bir tekis takrorlanib turishini va shunday takroriylikning o'zi.

Savod - o'qish va yozishdan xabardorlik.

Savodxon - o'qish va yozishni biladigan, xat-savodli odam.

Sintez - narsa va hodisalarni butun bir holda va ularning tarkibiy qismlarini o'zaro uzviy bog'lanishda o'rganishdan iborat ilmiy tadqiqot usuli.

Sifat - narsa, kishining ijobiy yoki salbiy belgi va xususiyati.

Syujet - adabiy asarning asosiy mazmuni va undagi qahramonlar xarakterini ochib beradigan, o'zaro uzviy bog'langan voqealar, hodisalar tizimi.

So'z - tovush yoki tovushlardan iborat, biror ma'no bildiruvchi nutq birligi, gap bo'lagi.

Tajriba - amaliy ishda, hayotda o'zlashtirilgan, orttirilgan bilimlar, malakalar, uquvlar majmui.

Tafakkur - insonning fikrlash qobiliyati, tasavvuri.

Ta'limiy - ta'limga oid; ta'lim-tarbiya ahamiyatiga ega bo'lgan.

Ta'limot - fan sohalari, ijtimoiy hayot, jamiyat va shu kabilalar haqidagi ilmiy qarashlar, nazariy xulosalar majmui, nazariya.

Tezis - ilmiy asar, maqola, ma'ruza va shu kabilardagi asosiy g'oyalarning qisqa va lo'nda ifodasi.

Tarbiya - bolani boqib katta qilish, voyaga etkazish uchun qilinadigan mehnat va g'amxo'rlik.

Tarbiyaviy - tarbiyaga oid; tarbiya uchun xizmat qiladigan vositalar.

Tarbiyalamoq - ma'lum tizim asosida ta'sir ko'rsatib g'oyaviy va ma'naviy jihatdan biror tarzda shakllantirmoq, etishtirmoq; ilm-hunar berib, odob-axloq o'rgatib etishtirmoq.

Tarbiyalanuvchi - tarbiya oluvchi bola.

Tarbiyali - tarbiyalangan, odob-axloqli.

Tarbiyasiz - tarbiyalanmagan, odob-axloqsiz.

Tarbiyachi - tarbiya beruvchi muallim, murabbiy.

Tasvir - biror narsaning o'yma, quyma yoki chizmalar shakli; rasm, surat; narsa, voqe-a-hodisa va shu kabilarning badiiy ifodasi.

Tovush - mexanik tebranishlar natijasi yuzaga keladigan va qulog eshitadigan ovoz, sado.

Topshiriq - tarbiyalanuvchi zimmasiga yuklanadigan ish, vazifa.

To'xtam - nutq orasidagi uzilish, tanaffus, sukut.

Faoliyat - biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot.

Hikoya - badiiy asar janri. Biror voqeilikning nasriy ifodasi.

Hikoyalash - hikoya va boshqa janrdagi asarlarning voqeasini bayon qilish.

Qayta hikoyalash - tinglangan biror asar voqeasini uzviy tarzda bayon etish.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Каримов И.А. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1998.
- 2.Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
- 3.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: O'zbekiston, 1998.
- 4.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
5. Абдуллаева К. Савод ўргатиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.
6. Асқархўжаева М, Ҳакимова Н. Боғчаларда ўзбек тилини ўргатиш (Таълим-тарбия рус тилида олиб бориладиган болалар боғчалари тарбиячилари учун методик қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1994, 126 бет.
7. Боғчада байрам. Тузувчилар: Али Шерқулов А, Гулчехра Муҳаммаджон қизи, Гули Ҳамро қизи. Тошкент, 1993, 31 бет.
8. Болалар нутқини устириш (Болалар боғчаларининг ўрта гурӯҳлари учун машғулот ишланмалари). Тузувчилар: ғайбуллаева М, Файзуллаева М. – Тошкент, 1998, 36 бет.
9. Болалар адабиёти хрестоматия. Тузувчилар: Аҳмедов И, Суюмов А ва бошқалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 358 бет.
10. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999.
11. Болангиз мактабга тайёрми?. Тузувчилар Аҳмедова X, Юдина Т ва бошқалар. – Тошкент: Маърифат-Мададкор, 2000, 320 бет.
12. Болаларни мактабга тайёрлаш дастури (Қисқа муддатли гурӯҳлар, мактаб қошидаги тайёрлов шанба, якшанбалик ва бошқа ноанъанавий гурӯҳлар учун). Тошкент, 2003, 28 бет.
13. Болалар боғчасида таълим-тарбия дастури.
14. Бородич А.М. Методика развития речи детей. – М: Просвещение, 1974.
15. Воскресенская А.И. О готовности детей к школьному обучению. –М: Просвещение, 1965.
16. Воҳидов М. Мактабчага тарбия психологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
17. Горецикий В.Г и др. Подготовка детей к усвоению грамоты. - М: Просвещение, 1983.

18. Гербова В.В. Занятия по развитию речи во второй младшей группе детского сада.- М: Просвещение, 1989, 110 стр.
19. Ғайбуллаева М. ва бошқалар. Нутқ ўстириш. Теваракатроф билан танишириш ва адабиёт. Болалар боғчалари учун дастур. Тошкент, 1996.
20. Журова Л.Е. Обучение грамоте в детском саду.- М., 1987.
21. Мактабгача ёшдаги русийзабон болаларни ўзбекча сўзлашишга ўргатиш дастури. Тузувчи-муаллиф Қодирова Ф.Р. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997, 64 бет.
22. Мактабгача кичик ёшдаги болаларга таълим-тарбия бериш (илмий-методик мақолалар мажмуаси, рус тилидан ўзбек тилга таржима). – Тошкент: Ўқитувчи, 1989, 184 бет.
23. Мутахассислар сизлар учун. Тузувилар: Рустамова М, Ҳакимова Н. Тошкент, 2002, 49 бет.
24. Мактабчага таълим ёшидаги болаларнинг давлат талаблари асосида эгаллаши лозим бўлган билим, қўнирма ва малакаларига қўйилган минимал талабларни амалиётга қўллаш (методик қўлланма). – Тошкент: Маърифат-Мададкор, 2003, 27 бет.
25. Қодирова Ф.Р, Қодирова Р.М. Мактабгача ёшдаги болаларга иккинчи тилни ўргатиш методикаси. Тошкент, 2004, 150 бет.
26. Расулова М., Солиҳова М. ва бошқалар. «Учинчи минг ийилликнинг боласи» таянч дастури. – «Маърифат-Мададкор», 2002.
27. Разбаева Э.М. Подготовка детей к обучению грамоте в школье. Тошкент, 1981.
28. Развитие речи детей дошкольного возраста. М., 1979., (под ред. Ф.А. Сокин).
29. Сабирова Г.В. Конкурси праздники викторини игри утренники вечера.- Бухара: Бухара, 1997, 121 стр.
30. Циркун Н.А. Развитие аоли у дошкольников. – Минск: Народная асвета, 1991, 111 стр.
31. Тихеева Е.И. Развитие речи дошкольника. – М: Просвещение, 1972.
32. «Тарбиячи! Машғулотга тайёрмисан? (услубий қўлланма). Тузувчилар: Мусулмонқурова Г., Исходжаева Н., Файзуллаева М. – Тошкент, 2002, 34 бет.
33. Учинчи мингийилликнинг боласи. Муаллиф-тузувчилар: Расулова М, Аҳмедова Ҳ ва бошқалар. Тошкент, 2000, 160 бет.

34. Учинчи мингийилликнинг боласи. Муаллиф-тузувчилар: Расулова М, Аҳмедова Ҳ ва бошқалар. Тошкент, 2001, 336 бет.
35. Венгер Л.А., Дьяченко О.М., Говорова Р.И., Цеханская Л.И. Игры упражнения по развитию умственных способностей у детей дошкольного возраста. – М: Просвещение, 1989, 127 стр.
36. Васильева А.И., Бахтурина Л.А., Кобитина И.И. Болалар боғчасининг катта тарбиячиси. Тошкент: Ўқитувчи, 1991, 173 бет.
37. Юсупова С. Мактабгача ёшдаги болаларни мактабга тайёрлаш (услубий тавсиянома). Термиз, 2005, 16 бет.
38. Ғозиева С., Очилова Д., Долимова Л. Бадиий терма китоб (боғчаларнинг катта гурухлари учун). – Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 192 бет.
39. Шодиева Қ.С. Ўрта гурӯҳ болалари нутқини ўстириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 222 бет.
40. Шодиева Қ.С. Мактабчага ёшдаги болаларни тўғри таллафузга ўргатиш.- Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 176 бет.
41. Шодиева Қ.С. Нутқ ўстириш услубиёти (касб-хунар коллажлари талабалари учун). – Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
42. Шодиева Қ.С. Кичкинтойларни ўқиш ва ёзишга ўргатиш (касб-хунар коллажлари учун ўқув қўлланма) . – Тошкент: Ўқитувчи, 2002, 112 бет.
43. Шодиева Қ.С. Болаларни мактабгача тарбия муассасаларида ва оиласда ёзиш ва ўқишга ўргатиш услубиёти. Бухоро, 2002, 114 бет.
44. Шодиева Қ.С. Ноанъанавий таълим муассасаларида мактаб таълимига тайёрлаш бўйича машғулот ишланмалари (касб-хунар коллажлари учун ўқув қўлланма). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003, 258 бет.

Mundarija

1. So'z boshi -----	3
2. "Til va nutq o'stirish metodikasi" fanining maqsad va vazifalari--	5
3.Nutq o'stirish ishining mazmuni, usuliyoti va vazifalari-----	12
4.Bog'lanishli nutqni o'stirish usuliyoti -----	30
5.Hikoya qilish usuliyotiga qo'yiladigan asosiy talablar-----	43
6.Lug'at o'stirish usuliyoti -----	47
7.Grammatik to'g'ri nutq qurilishini shakllantirish usuliyoti -----	59
8.Tovush madaniyatini tarbiyalash usuliyoti -----	67
9.Mashg'ulot jarayonida tovush madaniyatini shakllantirish usuliyoti -----	74
10.Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish -----	78
11.Mashg'ulotdan tashqari paytlarda badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish -----	81
12.Bolalar savodxonligini shakllantirishga tayyorgarlik -----	85
13.Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash -----	90
14.Maktabgacha ta'lim tizimida nutq o'stirishni tashkil etish ---	97
15.Bog'chada ishlarni rejalashtirish -----	103
16.Bog'chada tarbiyachi, mudira, usuliyotchining burch va vasifalari - -----	105
17. Xulosa -----	109
18. Mavzular bo'yicha testlar -----	111
19. Fanga doir zaruriy atamalar -----	126
20. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati -----	129